O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

**Da'vat**

*Fan yo'lida qilinadigan xizmatlarning eng buyugi unga yangi g'oyalarni kiritishdir.*

**Jozef TOMSON**

Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

ENLIGHTENMENT * XALQ ZIYOLILARI GAZETASI *

1931-yildan chiqa boshlagan | 2003-yil 29-oktabr, chorshanba | № 87 (7592)

**Ibrat**

*Do'stlik tumanidagi 4-maktabning faxriy o'qituvchisi Zamon Qurbonov tomorqasida 5 ming tup terak parvarishlamoqda. «Niyatim, bu teraklar imoratbop bo'lganida maktab qurishdir» deydi muallim.*

## ЯНГИ ЎҚУВ ЙИЛИ ЯНГИ МАКТАБДА

**Китоб туманидаги 69-умумий ўрта таълим мактаби ўқувчилари ва ўқитувчилари янги ўқув йилини янги, барча қулайликларга эга бўлган бинода бошлашди. Ушбу мактаб биноси тадбиркор Худойберди Ғаниев ташаббуси билан қад ростлади.**

**— 160 ўринли янги мактаб 40 кун ичида битказилиб, фойдаланишга топширилди. Қишлоқ қурилиш материаллари ташкилоти эса мактабни жиҳозлаш учун маблағ ажратди, — дейди мазкур мактаб директори Рўзиқул Қодиров.**

**Қулай имкониятларга эга бўлган бу каби мактаблар баркамол авлоднинг шаклланишида муҳим ўрин тутади.**



**Суратда: Мактабнинг умумий кўриниши.**

**Бурҳон РИЗО олган сурат.**

ГАЗЕТАНИ ВАРАҚЛАГАНДА:

СИНОВДАН ЎТСАГИНА АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ҚИЛИНАДИ — 2-бет

«ОНА ТИЛИНГИЗНИ АСРАНГ, ҲАР НЕДАН ОРТИҚ» — 3-бет

MALIKA AYYOR — 4-бет

ЛАЗЗАТЛАР ИЧИДА ЭНГ ШИРИНИ — СУҲБАТ — 5-бет

ЖУРНАЛИСТ БЎЛИШ ОСОНМИ? — 5-бет

ТИЛ ВА МАДАНИЯТ — 7-бет

МЕҲР-МУРУВВАТ ОЙИ — 8-бет

*Tajriba, sinov, natija*

## ЎҚУВЧИЛАР ЎРТАСИДА РАҚОБАТ

### У МУВАФФАҚИЯТЛАР ОМИЛИ БЎЛАЁТИР

*«Бундан икки-уч йил аввал Балиқчи туманидаги 5-гимназия интернат директори Мирзапўлат ака Имомов билан суҳбатлашганимда айни куз — «жўжани санайдиган палла» эди. Суҳбат асносида Мирзапўлат ака ўша йилги битирувчилар таълим олган даргоҳларига келиб, устозларига миннатдорчилик билдириб кетганини тўлқинланиб гапириб қолди:*

*— Кечаги ўқувчиларимизнинг деярли барчаси бугун талаба бўлган. Уларнинг шундай кунларини кўриб чарчоқларинг унутилади, — деганди. Менда бир табиий савол туғилди: — Нега битирувчиларнинг ҳаммаси эмас, «деярли ҳаммаси» талаба бўлди? Ахир Балиқчининг ишонган, ҳамма умид билдирган таянч таълим муассасаси, яна тумандаги барча мактабларнинг энг сара, иқтидорли ўқувчиларини қуйи синфларданоқ танлов асосида чертиб-чертиб қабул қилиб оладиган гимназияда «барча битирувчилар талаба бўлди» дейишга (тўғрироғи, талаба бўлишларига эришишга) имкониятлар бисёр эди-ку?!*

*Бироз мулоҳазага берилган домла саволларимга жавоб берар экан, уни ҳам шу саволлар қийнаётгани ойдинлашди.*

*— Биласизми, таълим шу қадар мураккаб жараён эканки, уни муваффақиятли амалга ошириш учун юксак педагогик салоҳият, психологик маҳорат, тинимсиз изланиш ва қобилият, чексиз меҳр, тоғдек бардош талаб қилинар экан. Кўпдан буён айни шу саволларга жавоб топиш йўлида ишлаяпмиз. Масалан, бу йил икки нафар битирувчимиз олий ўқув юртига киришда тест синовларидан ўта олмади. Жамоамиз кайфиятига 30 нафар битирувчидан 28 таси талаба бўлганидан кўра, ўша икки нафарининг муваффақиятсизликка учрагани кўпроқ таъсир қилади. Нега улар бошқа тенгдошлари қатори талаба бўла олмади? Улар туман марказида ўқиётганлигига қишлоқдошлари ҳавас билан қарашарди. Энди уларнинг гимназиямиз ҳақидаги тасаввурлари қандай бўлади? Болам туманда ягона бўлган ва фақат иқтидорлиларгина ўқий оладиган таълим даргоҳида таълим олаяпти, дея кўнгли хотиржам тортган ота-онанинг ишончи, кўп йиллик умидлари нима бўлди?*

*Саволлар кўп. Оғриқли саволлар. Ҳар бири жиддий жавобталаб. Ишни таълим муассасамизда таълим олувчи ўқувчиларнинг ижтимоий келиб чиқиши, оилавий шарт-шароитлари ва уларга мунтазам таъсир этиб турувчи муҳит ҳамда бошқа омилларни ўрганишдан бошладик. Ўша икки ўқувчимизнинг бири ўзи қизиққан (физика-математика) йўналишида эмас, балки ота-онаси хоҳлаган (ҳуқуқшунослик) йўналиши бўйича олий ўқув юртига киришга ҳаракат қилган. Натижада на ота-онанинг, на фарзанднинг орзулари ушалди. Иккинчиси оиладаги муҳит, тўғрироғи, шароит туфайли вақтида ҳужжатларини тайёрлаб бирор институтга топшира олмади. Ваҳоланки, педагогик жамоамиз айнан шу икки ўқувчига бошқаларга нисбатан кўпроқ ишонч билдирган эди. Демак, ишонч билдириш, яхши таълим-тарбия бериш билан ҳам иш битмас экан. Зарур бўлганда шогирдларимизга моддий ёрдам бериш, маънавий қўллаб-қувватлаш ҳам керак экан. Шу тариқа муҳим шартларга асосланган дастлабки хулосаларимизга таянган ҳолда гимназия таълим ишларини қайта ташкил этдик...»*

Бу суҳбатни бежиз эсламадим. Чунки ҳозирга келиб 5-гимназия ўн йиллик тажрибага эга. 1993 йилда Андижон вилояти ҳокимининг «Иқтидорли ёшларни танлаш ва уларга чуқурлаштирилган таълим беришни ташкил этиш тўғрисида»ги қарори асосида фаолият бошлаган таълим муассасасига туман мактабларида самарали меҳнат қилаётган илғор фан ўқитувчилари жалб этилди. Туман ҳокимлигининг кўмагида қисқа вақт ичида муассасанинг моддий-техника базаси мустаҳкамланди. Замонавий компьютерлар келтирилди, лингофон, лаборатория хоналари жиҳозланди, математика, физика, ўзбек тили, инглиз ва рус тили кабинетлари ташкил этилди. 50 ўринли (чекка қишлоқлардан келиб ўқийдиганлар учун) ётоқхона, 75 ўринли мослаштирилган ошхона иши йўлга қўйилди. Катта мақсадларни кўзлаб қўл урилган ишлар тез орада ўз мевасини бера бошлади. 1996 йилда вилоят халқ таълими бошқармасининг Ҳамкорлик кенгаши қарорига кўра, 5-гимназиядаги иш тажрибалари вилоят миқёсида ташкил этилган янги турдаги ўқув муассасаларида оммалаштириладиган бўлди.

Гимназия бозор иқтисодиёти талабларидан келиб чиқиб банкда ўз ҳисоб рақамини очди. Жамғармага эга бўлди. Ҳомий ташкилотлар, ота-оналарнинг ихтиёрий ёрдамлари ҳисобига йиғилган маблағлардан Алишер Навоий, ал-Хоразмий, Мирзо Улуғбек, Заҳириддин Бобур номидаги стипендиялар (гимназия миқёсида) ташкил этилиб, ўзлаштиришда юқори натижаларга мунтазам эришиб келаётган ўқувчиларни рағбатлантирилиши таълим сифатини янги босқичга олиб чиқди. Рағбат ўз кучини кўрсатди. Ўқувчилар ўртасида соғлом рақобат юзага келди. Улар фан олимпиадаларининг вилоят, республика босқичларидаги муваффақиятлари билан чекланиб қолмай, халқаро фан олимпиадаларида ҳам иштирок эта бошлади.

Юқори синфлар ўртасида ота-оналар ва турли касб усталари иштирокида тез-тез ўтказиладиган суҳбатлар, савол-жавоблар, сўровлар ўқувчилар қизиқишларини ўрганишга асос бўлмоқда. Уларни касб-ҳунарга тўғри йўналтиришга замин яратаяпти. Натижалар ҳам чакки эмас. Буни эндиликда гимназияда таълим олишга талабгор бўлганларнинг кескин ортиб кетганидан ҳам билиб олиш мумкин. Балиқчининг истиқболи бир жиҳатдан шу масканнинг фаолиятига ҳам боғлиқ эканлиги таълим муассасасига масъулият юклайверади.

**Фахриддин КАРИМОВ,**
**«Ma'rifat»нинг махсус мухбири**

## МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШ:

### МУАММОЛАР ЕЧИМ КУТМОҚДА

Бугунги кунда фарзандларимизни касб-ҳунарли қилишда касб-ҳунар коллежларининг ўрни беқиёсдир. Чунки, умумий ўрта таълим мактаблари битирувчиларининг, яъни ўсиб келаётган ёш авлоднинг асосий қисми — 90 фоизга яқини ушбу таълим муассасаларида таълим-тарбия олиши ва касб-ҳунар эгаллаши зарур.

Мамлакатимиз таълим тизимининг энг дастлабки «маҳсулоти» — кичик мутахассисларни айнан ўрта махсус, касб-ҳунар таълими босқичида тайёрланади. (1-расм қаранг).

Демак, мактабларнинг 9-синфини битираётган ёшларнинг 90 фоизга яқини меҳнат бозорига кириб келадиган энг катта ишчи кучи оқими деб қарайдиган бўлсак, ўрта махсус, касб-ҳунар таълими босқичи олдида бу ишчи кучи оқимининг нафақат миқдорий, балки сифат кўрсаткичларига ҳам жавоб беришдай залворли вазифа турибди.

Ишчи кучи оқимининг миқдор кўрсаткичларига жавоб бериш дегани, энг аввало, меҳнат бозорига зарур бўлган миқдорда мутахассис тайёрлаб бериш деганидир. Эркин бозор муносабатлари шароитида таълим муассасаси меҳнат бозори конъюнктураси асосида, яъни талаб ва таклиф асосида ўзига ўқувчилар қабул қилиши ва бозор талаб қилган миқдорда мутахассис чиқариши керак. Бу эса ўз ўрнида ҳар бир ўқувчини ўз қизиқиши, қобилиятига яраша маълум касб-ҳунарни ёшлигиданоқ онгли тарзда танлашга йўналтириш муаммосини ҳал этиш билан чамбарчас боғлиқ. Уни ҳал қилиш учун мактабгача таълим, умумий ўрта таълим босқичларида ёшларга барча касб-ҳунарларни тарғиб қилиш, турли йўналишдаги касб-ҳунар таълими битирувчилари навбатдаги олий таълим босқичи олдида тенг ҳуқуқ ва имкониятларга эга эканини, касб-ҳунарнинг нафақат меҳнат фаолиятида, балки турмушда, оилавий ҳаётда ҳам керак бўлишини тушунтириб бориш зарур. Касб-ҳунар коллежлари эса, ўз навбатида, умумий ўрта таълим муассасалари билан мустаҳкам алоқа ўрнатиши, касблар тарғиботи билан бир қаторда ўз илм масканлари рекламасини ҳам кучайтиришлари керак бўлади.

(Давоми 6-бетда)



## SO'NGGI UCH KUN MUJDALARI

### FARMON

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'anievich Karimov istiqbolda asosiy sub'ekt — qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchisi bo'lib qoladigan fermer xo'jaliklarini ustuvor rivojlantirish asosida qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy islohotlarini jadallashtirish maqsadida 14 banddan iborat bo'lgan "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonini e'lon qildi.**

### OLIY MAJLISDA

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida parlamentning Byudjet, bank va moliya masalalari qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan «Davlat moliyasini boshqarishni isloh qilish» mavzusida davra suhbati bo'lib o'tdi. Kun tartibidagi masalalar bo'yicha Jahon banki eksperti Ronald Klark, AQSh g'aznachiligi maslahatchisi Ilona Kastro, Jahon valyuta fondining maslahatchisi Jon Zoxrab, Avstraliyaning Siyosat yo'nalishlarini ishlab chiqish va rejalashtirish kompaniyasining konsultantlari Les Xenning va Tomas Marshelo kabi xalqaro moliya institutlarining vakillari asosiy maruzachilar sifatida so'zga chiqdilar.**

(Davomi 2-betda)

## МАКТАБ КУТУБХОНАСИ — МАЪРИФАТ МАРКАЗИ

*Xalqaro anjuman*

Кўп билган эмас, керагини билган оқилдир, деган экан донишмандлардан бири. Аммо одам мутолаасиз ҳеч нарсага эришолмайди. Китоб — барча билимлар хазинаси. Кутубхона — хазиналар хазинаси. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги томонидан 2003-2004 ўқув йили — умумий ўрта таълим муассасалари кутубхоналари фаолиятини такомиллаштириш ўқув йили деб эълон қилингани бежиз эмас. "Ўзбекистон таълим тизимида олиб борилаётган ислоҳотлар жараёнида кутубхона ва "Таълим ҳамма учун" дастури" мавзусидаги халқаро конференция ушбу йўналишдаги муҳим қадамлардан бири бўлди.

Анжуманда сўзга чиққанлар, жумладан, Осиё Ривожланиш банки, Британия Кенгаши вакиллари, чет эллик меҳмонлар бир нарсани таъкидлашди: Ўзбекистонда таълим соҳасида кечаётган туб ислоҳотлар мактаб кутубхонасига ҳам тегишли. Уни замонавийлаштириш, халқаро талаблар даражасига кўтариш зарур.

Халқаро конференцияда кутубхона масаласи ҳақида сўз юритилар экан, у билан китобхонлик масаласи уйғунлашиб кетди.

— Экспертлар фикрича, ўзбекистонлик талаба, ғарблик тенгдошидан 4,5 баравар кўп китоб ўқир экан. Аммо китобларда ахборот кўп. Уларни қайта ишлаш ва ўзлаштириш мураккаблик қилади. Бу борада уларга кўмаклашиш лозим, — дейди Осиё Ривожланиш Банки вакили Мануэль Перлос. Шу мақсадда 2 миллион АҚШ долларига яқин инвестиция киритдик. Ҳозир учинчи лойиҳа бўйича иш олиб борилмоқда.

— Мактаб кутубхонаси — нафақат мактабнинг, балки, шу мактаб жойлашган маҳалланинг маънавий-маърифий марказига айланиши лозим, — дейди халқ таълими вазири ўринбосари Рустам Аҳлидинов.

Анжуманда иштирок этган Австралиянинг кутубхона ишлари бўйича Халқаро маслаҳатчиси Аблитт Линда хоним «Халқаро кутубхоналар Ассоциацияси фаолияти ва Халқаро кутубхона стандартларининг Ўзбекистон кутубхоналар ишига тадбиқ қилиш имкониятлари» мавзусида маъруза қилди.

— Мен Ўзбекистонга ташрифим давомида бир неча мактаб кутубхоналарида бўлиб, уларнинг фаолияти билан танишиш имконига эга бўлдим, — дейди австралиялик меҳмон. — Таъкидлаш жоизки, республикадаги кўпгина мактаб кутубхоналари етарли ва талаб даражасида фаолият кўрсатмаяпти. Бироқ, шуни ҳам айтиш керакки, мактаб раҳбарияти ва кутубхоначиларининг аксарияти бугунги кун мактаб кутубхонаси қандай бўлиши керак, уларни фаоллаштириш учун қай тарзда иш олиб бориш зарурлиги хусусида бирдек бош қотираётгани мени қувонтирди. Ўқувчилар ҳам айни пайтда кутубхонадан қандай фойдаланиш зарурлигини англаб етмоқдалар. Ушбу жараёнлар, албатта, тез орада кутубхоналар фаолиятида жонланишларга олиб келади.

Халқаро анжуманга Латвиядан ташриф буюрган Лива Пакална Латвия мактаб кутубхоналари Ассоциациясининг президенти лавозимида хизмат қилади.

— Кутубхоналар фаолиятида ахборот технологияларининг ўрни ва аҳамияти беқиёс, — дейди у. — Бугун ёшлар компьютер ва технологиялар оламига шу қадар сингиб кетганки, уларни ана шу компьютер воситалари ёрдамида ўқишга жалб қилиш орқали мақсадга эришиш мумкин. Шу боисдан мактаб кутубхоналарини замонавий компьютер воситалари билан жиҳозлаш долзарб вазифага айланган. Латвия тажрибасига кўра шу ва шу каби муаммолар билан таълим ёхуд маданият вазирлиги мутасаддилари эмас, балки мустақил «Мактаб кутубхоналари Ассоциацияси» шуғулланади. Мазкур ассоциациянинг ташкил этилганига унча кўп вақт бўлмади. Бироқ, ўтган давр мобайнида республикамиз мактабларидаги мавжуд муаммоларни ўрганиб, уларни бартараф этишда муайян ютуқларга эриша олдик. Анжуман давомида мен қатнашчиларни ана шу тажрибалар хусусида имкон қадар таништиришга ҳаракат қилдим.

(Давоми 2-бетда)

**Shuni ham aytish joizki, o'tkazilgan tanlovlarda mazmuni jihatidan yetarli ball to'plagan ayrim darsliklarni muqobil (alternativ) holda chop etishga ham imkon berildi.**

**Oilada ko'zi ojiz farzand tug'ilgani aniq bo'lsa, har bir ota-ona o'zini yo'qotmasdan, o'z ustida ish olib borishga tayyorlanishi kerak.**



## SO'NGGI UCH KUN MUJDALARI

(Davomi. Boshi 1-betda)

### HAMKORLIK MUSTAHKAMLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining bir guruh mutaxassislari Moskva shahrida bo'ldi. Tashrifdan asosiy maqsad favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish masalalari bo'yicha hukumatlararo aloqani yanada mustahkamlashdan iborat edi. Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vaziri B. Subanov Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vaziri S. Shoygu bilan uchrashdi.

### UNIVERSITETNING HADYASI

Poytaxtimizning Chilonzor tumanida joylashgan Xlebushkina nomidagi 22-sonli mehribonlik uyida «Bolalarni himoya qilish kuni»ga bag'ishlangan bayram tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirga bolalar uyini o'z homiyligiga olgan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bosh-qosh bo'lib, mehribonlik uyiga 200 000 so'm miqdorida pul hamda tarbiyalanuvchilar uchun yozgi va qishgi kiyim, o'quv qurollari, shaxmat-shashka, o'quv albomlari va o'quv partalari hadya qildi. Bundan tashqari ushbu mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari universitetga kirish uchun TDIU tomonidan bepul repititorlar bilan ham taminlanadi.

### YANGI KORXONA

Romitan tumanidagi Qalaychorbog' qishlog'ida «Imidj-tekstil» korxonasi barpo etildi. Masuliyati cheklangan jamiyat sifatida ish boshlagan bu sanoat korxonasi 11 nafar fuqoroning poy mablag'i va «Zamin-bank»ning Buxoro filialidan olingan kredit hisobiga tashkil etildi. Korxona asosan xom surpni oqartirib unga gul bosish, aniqrog'i chit ishlab chiqarishga moslashgan. «imidj-tekstil» yiliga bir million pogonometr mato ishlab chiqish quvvatiga ega.

### XALQARO HUJJATLAR O'ZBEK TILIDA

Respublika Oliy Majlisida Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazi tomonidan nashr etilgan «O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. Inson huquqlari bo'yicha universal shartnomalar» deb nomlangan to'plamning taqdimoti o'tkazildi. Mazkur kitob uch bo'limdan iborat bo'lib, birinchi qismida BMTning inson huquqlari bo'yicha 10 ta universal shartnomasi, ikkinchi qismida Xalqaro Mehnat tashkiloti qabul qilgan va insonning mehnat qilish huquqlarini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadigan 16 ta halqaro konvensiya jamlangan. Uchinchi qismdan esa YUNESKO qabul qilgan 2ta hujjat o'rin olgan.

### «SINO»NING YANGI MUZLATGICHLARI

«Sino» aktsiyadorlik jamiyatida BMT taraqqiyot dasturining 1,5 million dollarlik loyihasi to'liq yakunlandi. Avval muzlatgichlarning devor va eshiklari oralig'idagi bo'shliqni to'ldirish uchun XFU (xlorftoruglerod) — 11 va sovutuvchi modda sifatida XFU-12 suyuqligidan foydalanilar edi. Bu esa atrof-muhitga, aniqrog'i ozon qatlamining emirilishiga ta'sir ko'rsatardi. Shu bois yuqoridagi loyiha asosida zavod qaytadan zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi. Bu ishlab chiqarish jarayonida ekologik bezarar bo'lgan sovutuvchi moddalardan foydalanishga imkon beradi. Ushbu loyiha «Sino» korxonasiga ulkan imkoniyatlar berdi. Loyiha asosida olib kelingan asbob-uskunalar o'rnatilishini ko'zdan kechirgan BMT taraqqiyot dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Richard Konroy Jon boshchiligidagi mutaxassislar bajarilgan yumushlarni ijobiy baholadi. Tomonlar loyiha to'liq yakunlanganligi xususidagi hujjatlarni imzoladi.

*Taqdimot*

# СИНОВДАН ЎТСАГИНА АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ҚИЛИНАДИ

Мамлакатимизда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини рўёбга чиқаришда умумтаълим мактаблари ўқувчиларининг сифатли дарсликлар билан таъминланиши ҳозирги куннинг долзарб вазифаларидан биридир. Шу мақсадда Халқ таълими вазирлиги Осиё Ривожланиш Банки кредит маблағлари ҳисобидан амалга оширилаётган "Умумтаълим мактаблари учун дарслик ва ўқув адабиётларни нашр этиш тизимини такомиллаштириш"лойиҳаси доирасида дарсликларнинг танлов асосида яратиш тизимини йўлга қўйди. Дарсликларнинг янги авлодини яратиш жараёнида чет эл тажрибаларидан келиб чиқиб, танловда бир нечта муаллифлар гуруҳи ҳамда нашриётлар иштирок этдилар.

Қўлёзмалар янги услубда баҳоланиб, ҳар томонлама сифатли ишланган, фанлар бўйича ДТСлари ва ўқув дастурларига тўлиқ жавоб берадиган, содда ва равон тилда ёзилганлари фан мутахассисларидан иборат холис жамоатчи экспертлар томонидан ажратиб берилди.

2003-2004 ўқув йилида танлов асосида 7-синф "География" (П.Ғуломов, Х.Ваҳобов, П.Баратов, М.Маматқулов, "Ўқитувчи" нашриёти), 8-синф "Одам ва унинг саломатлиги" (Б.Аминов, Т.Тиловов, "Ўқитувчи" нашриёти), 6-синф "Физика" (Н.Турдиев, "Арнапринт" нашриёти), 5-синф "География" (П.Ғуломов, Р.Қурбонниёзов, "Митти юлдуз" нашриёти), 8-синф "География" (П.Мусаев, Ж.Мусаев, "Маърифат-Мададкор" нашриёти), 5-6-синф "Ботаника" (У.Пратов, А.Тўхтаев, Ф.Азимова, "Ўзбекистон" нашриёти), 7-синф "Кимё" (И.Асқаров, К.Ғопиров, Н.Тўхтабоев, "Чаглаян" нашриёти) дарсликлари нашр этилди. Шунингдек, 6-синф "География" (А.Соатов, А.Абулқосимов, Р.Қурбонниёзов, "Ўқитувчи" нашриёти) дарсликлари яратилди.

Мазкур дарслик ва методик қўлланмалар "Умумтаълим мактаблари учун дарслик ва ўқув адабиётларини нашр этиш тизимини такомиллаштириш" лойиҳаси доирасида яратилган бўлиб, дизайн, мазмуни, услубий тузилиши ва материалларнинг берилиш тартиби жиҳатидан илгариги дарсликлардан ажралиб туради.

Шуни ҳам айтиш жоизки, ўтказилган танловларда мазмуни жиҳатидан етарли балл тўплаган айрим дарсликларни муқобил (альтернатив) ҳолда чоп этишга ҳам имкон берилди. Бу дарслик ва методик қўлланмалар қуйидагилардир: 6-синф "Физика" (Н.Шахмаев, Д. Шодиев, А.Облоқулов, Ў.Шодиев "Ўқитувчи" нашриёти); 8-синф "Ўзбекистон иқтисодий ва ижтимоий географияси" (А.Солиев, Р.Қурбониёзов, "Ўқитувчи" нашриёти); 8-синф "Одам ва унинг саломатлиги" (О.Мавлонов, "Адолат" нашриёти).

Бундан ташқари, халқаро танловда ғолиб деб топилган 6-синф — "Физика", "Биология"; 7-синф — "География", "Кимё"; 8-синф — "География", "Одам ва унинг саломатлиги" дарсликларини кенг амалиётга жорий этишдан олдин амалиётдан синаш ишлари ташкил этилмоқда.

Нашрдан чиққан мазкур дарсликларни амалиётда синаш жараёнида умумий ўрта таълим мактаблари ўқитувчилари ҳамда методистларнинг дарслик мазмунини такомиллаштириш юзасидан берган таклиф ва мулоҳазалари эътиборга олинади. Зеро, "Етти ўлчаб бир кес", деб бежиз айтмаган доно халқимиз. Синовдан ўтиб такомиллашган ушбу дарсликлар келгуси ўқув йилидан амалиётга тўлиқ жорий этилади.

Жорий йилнинг 24 октябрь куни Республика Таълим марказида ўтказилган табиий фанлар бўйича яратилган янги дарсликлар тақдимоти ва семинар-тренинг худди шу масалага бағишланди. Ўтказилган тадбирга белгиланган барча синов майдонларининг методика кабинетлари услубчилари ва мутасадди ташкилотлар вакиллари таклиф этилди. Йиғилишда, шунингдек, "Умумтаълим мактаблари учун дарслик ва ўқув адабиётларини нашр этиш тизимини такомиллаштириш" лойиҳаси мутахассислари, дарслик муаллифлари ва нашриёт ходимлари иштирок этди. Қизғин баҳс-мунозаралар асосида ўтган семинар-тренингда соҳага доир кўплаб муаммоларга ечим изланди.

**М.ТИЛЛАБОЕВА,**
**Республика Таълим маркази табиий билимлар бўлими бошлиғи**



**Қалбингда меҳр-муҳаббат туйғусини шакллантирган инсонни ёшинг бир жойга бориб қолганда ҳам асло унута олмайсан. Чунки у сени ҳаётда ўз ўрнингни топишингда асосий сабабчи бўлган.Бу зот — ўқитувчингдир. Ўқитувчи ўз шогирдларига фақат ва фақат тўғри йўлни кўрсатувчи, бошқаларга нисбатан қандай муомалада бўлишни ўргатувчи инсондир. Шайхонтоҳур туманидаги 324-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси Мунира Боситхонова 30 йилдирки ўқувчиларга ҳарф ўргатиб қанчадан-қанча шогирдларни ҳаёт йўлига бошлаган устоздир.2003 йилда ушбу ўқитувчи ҳукуматимиз томонидан «Шуҳрат» медали билан тақдирланди.**

**Суратда:«Шуҳрат» медали соҳибаси М.Боситхонова болаларга навбатдаги дарсни тушунтирмоқда.**

**Б.РИЗОҚУЛОВ олган сурат.**

# МАЖМУА БУНЁД ЭТИЛМОҚДА

Касби тумани Алишер Навоий номидаги ширкат хўжалигидаги оромгоҳда спорт мажмуаси қурилиши жадал суръатларда олиб борилмоқда. Косондаги «Қўриққурилиш» очиқ акциядорлик жамиятига қарашли еттинчи механизациялашган шўъба корхонаси қурувчилари томонидан барпо этилаётган мазкур иншоотда машғулотлар зали, ювиниш, даволаш хоналари, ошхона ёшлар хизматида бўлади.

— Оромгоҳда футбол, баскетбол майдонлари, теннис корти, ёпиқ чўмилиш ҳавзаси қурилиши режалаштирилган, — дейди шўъба корхонаси муҳандиси Зокир Шаропов. — Ҳозиргача 32 миллион сўмлик қурилиш-монтаж ишлари бажарилди. Спорт-соғломлаштириш мажмуасини келгуси йили Наврўз байрамида фойдаланишга топшириш мўлжалланган. 2005 йилгача биргина Касби туманининг ўзида ўнта стадион, олтита спорт зали, иккита сузиш ҳавзаси бунёд этиш режалаштирилган.

**«Туркистон-пресс»**

# ОЧИҚ ДАРСЛАР ТАҲЛИЛ ҚИЛИНДИ

*Seminar*

Бугунги кун таълим соҳасида бошланғич таълим методикаси етакчи ўрин тутади. Боиси, ўқувчининг асосий шаклланиш жараёнига пойдевор бошланғич таълим ўқитувчилари томонидан қўйилади. Шундай экан, бугунги кун ёш педагогларининг маънавий етук бўлиши жуда муҳим саналади. Бошланғич таълимда илғор педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш мақсадида мазкур йилнинг 22 октябрь куни Тошкент шаҳар халқ таълими бош бошқармаси методика маркази ва Сирғали туман халқ таълими бўлими бошланғич синфлар методика бўлими ҳамкорлигида тумандаги 284-мактабда бошланғич синф ўқитувчилари учун "Янги педагогик технологиялардан фойдаланиш усуллари" мавзусида семинар-тренинг ўтказилди. Семинарнинг асосий диққат-марказида турган мавзу сифатида ёш авлоднинг мустақил фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва унинг шахс сифатида камол топишида янги педагогик технологияларнинг ўрни ҳамда ўқитувчининг хизмати таъкидлаб ўтилди. Шунингдек, у ерда Зарофат Шариpraванинг "O'qish kitobi" фанидан, Ф.Ногай, С.Жўраева, Л.Константинова ва Р.Ирисбековаларнинг "Matematika" фанидан ҳамда Н.Шоназарованинг "Ona tili", С.Тимченконинг "Русский язык" фанларидан ўтказган дарслари мисолида янги педагогик технологияни дарс жараёнига сингдириш усуллари муҳокама этилди.

Семинар-тренинг дастуридан ўрин олган тил байрамига бағишланган тадбир 4-синф ўқувчилари иштирокида Ф.Эшбобоеванинг "Tarbiyaviy soat" дарси мисолида муҳокамага қўйилди.

Хуллас, ушбу семинар-тренинг иштирокчилар учун ҳар жиҳатдан фойдали бўлди.

**Умид ЁҚУБОВ,**
**ЎзМУ журналистика факультети 1-курс талабаси**

*Тошкент давлат юридик институтида ташкил қилинган иқтидорли талабалар билан ишлаш бўлимининг фаолияти бир нечта қиррадан иборат. Лидер ёшлар клуби, талабаларнинг матбуот маркази, ҳуқуқий тарғибот ва ташвиқот гуруҳи, таржимонлар гуруҳи, интернет клуби.*

*2003-2004 ўқув йилида иқтидорли талабалар билан ишлаш бўлими қандай фаолият юритади? Яқинда худди ана шу масалага бағишланган йиғилиш ўтказилди. Бўлим ҳар ўқув йилининг бошида ўз вазифаларини йиғилиш орқали аниқ белгилаб олишга одатланган. Бу фақат иқтидорли талабалар томонидан эмас, балки мактаб, ўрта махсус таълим муассасалари, маҳаллалар билан ҳамкорликда ҳам амалга оширилади. Бундан ташқари, талабаларнинг инглиз ва француз тилларини мукаммал эгаллашларига ёрдам бераётган АҚШнинг "Global Soursenet" ташкилоти ходими Жим Честер ва Франциянинг "Agir" ташкилоти ходими Мартин де Прелар ҳам ана шу бўлим билан ҳамкорлик ўрнатган.*

# БЎЛИМ — ЯНГИ ЎҚУВ ЙИЛИДА

*Бўлимнинг расман очилиш маросими институт 4-курс талабаси Ҳ.Турсуновнинг "Америка президентлари" номли китоби тақдимоти билан ниҳоясига етди.*

*Xabarlar*

# ОБИДАЛАР КЕЛАЖАК АВЛОДГА ҲАМ ДАҲЛДОР

*Тошкент архитектура-қурилиш институтида бўлиб ўтган илмий-амалий анжуман "Ўзбекистондаги меъморчилик обидаларини сақлаш муаммолари"га бағишланди.*

*Дарвоқе, юртимизда аждодлар ҳаёти, халқимиз тарихидан сўзловчи меъморчилик намуналари кўп. Улар, албатта, вақт ўтиши, ташқи табиий таъсирлар оқибатида ўзгариши, ўз қиёфаси ва шаклини секин-аста йўқотиши мумкин. Аммо бу иншоотлар вақти-вақти билан таъмирланиши туфайли келажак авлодга ҳам етиб келаяпти.*

*Институтдаги анжуманга йиғилган меъморчилик илми билан шуғулланувчи олимлар бу мавзу доирасида яна бир карра баҳс-мунозара, мулоҳаза юритишди. "Қурилиш механикаси ва иншоотлар зилзилабардошлиги" кафедраси томонидан уюштирилган бу анжуманда, табиийки, ана шундай муаммоларга ечим изланди. Шўъба йиғилишлари бу борада қўл келди.*

**МУХБИРИМИЗ**

# ҲАМКОРЛИККА БАҒИШЛАНДИ

*Seminar*

Фарғона вилояти Тошлоқ туманидаги А.Навоий номидаги 11-умумий ўрта таълим мактаби жамоаси ўтган ҳафтани Америка ҳафтаси деб эълон қилди. Тарихдан биламизки, 1492 йилнинг 12 октябрь куни Христофор Колумб Ҳиндистон мамлакати томон саёҳатга чиқиб, Америка қитъасини кашф этган эди. Бу сана ҳозирги кунга келиб АҚШ Давлатининг миллий байрамларидан бирига айланган.

— Бизнинг мактабимиз шу йилнинг бошида ЮСАИД ва АЙРЕКС ташкилотлари томонидан эълон килинган «Ўзбекистон мактаблари учун компьютерлар» лойиҳасида фаол қатнашиб, август ойида лойиҳа ғолиби бўлиб, 10 дона компьютер билан тақдирландилар, — дейди биз билан суҳбатда мактабнинг касаба уюшма раиси У.Отахонов.

— Ҳозирги кунда ЮСАИД ва АЙРЕКС ташкилотлари ҳомийлигида мактабимизда Компьютер Маркази ташкил этилди. Ва ўқувчиларимизга компьютер сабоқлари берилмоқда. Бу ишларни амалга ошириб бораётган Компьютер марказининг кўнгилли ходимлари бўлган мактабимизнинг инглиз тили ўқитувчиси Р.Бадалов ва информатика устози Ж.Бадаловлар фаолиятлари мақтовга сазовор.

Ҳафта давомида мактабнинг тарих ўқитувчилари Э.Шокиров, Н.Узоқова, инглиз тили ўқитувчилари Р.Бадалов, маънавият фани ўқитувчиси Р.Каримова, ўқитувчилардан М.Ғофурова, Н.Ҳошимова ва Н.Абдуллаевалар мактабда уюштирилган учрашув, суҳбатлар ва кечалар давомида қизиқарли маърузалар қилиб, йиғилганларга Х.Колумб ва унинг ишлари ҳамда АҚШ давлатининг ҳозирги кундаги ривожланиши), Ўзбекистон — Америка ҳамкорлиги ҳақида гапириб бердилар.

Ҳафталик якунида мактабда «Олтин куз неъматлари» кўргазмаси ташкил қилинди. Бу кўргазма давомида ўқувчилар ўзлари етиштирган сабзавот ва меваларадан намуналар намойиш қилдилар ва кўргазмага келган ота-оналар ва меҳмонларни куз неъматларидан татиб кўришга таклиф қилдилар.

**Отабек НАРЗИЕВ,**
**ТДЮИ талабаси**

*Maxsus ta'lim*

# ТИФЛОПЕДАГОГИКАНИ БИЛАСИЗМИ?

***Мамлакатимиз туманларидан бирида тўрт-беш нафар кўзи ожиз мактабгача ёшдаги бола бир ўқитувчига билим олиш истаклари борлигини билдиришди. Лекин ўқитувчи уларга бирор-бир жўяли жавоб айтолмади. Чунки унинг қўлида на бирор услубий қўлланма бор эди, на бирор дастур... У бу ҳақда Республика кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар ҳамда ёшларни реабилитация қилиш бўйича "Panoh shu'lasi" жамғармасига мурожаат қилди.***

### ТАНИШТИРУВ

Хўш, "Panoh shu'lasi" қандай ташкилот ўзи? Унинг мақсад, вазифалари нима?

2000 йилда ташкил топган нодавлат нотижорат бу ташкилотнинг асосий вазифаси қариндошлар никоҳидан туғилган ва туғма ногирон болаларни жамиятдаги ҳаётий фаолиятга янги технологиялар асосида йўналтиришдан иборатдир. Кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болаларнинг ўз вақтида таълим-тарбия олишини таъминлаш ҳам ташкилотнинг асосий мақсадларидан бири саналади. Шунингдек, "Panoh shu'lasi" жамғармаси бундай болаларга тиббий-ижтимоий, педагогик-психологик, ахборот, ҳуқуқий, моддий-маънавий кўмак беришни кўзда тутади.

### МАЪЛУМОТ

Мутахассислар фикрига кўра, боланинг кўриш қобилияти у туғилган захотиёқ пайдо бўлади. Гўдак бир ойлик бўлганидаёқ атрофидаги нарсаларга тикила бошлайди ва уларни синчиклаб кўришга ҳаракат қилади. Биринчи навбатда онаси ва оиладаги яқин одамларни кузата бошлайди. Уч, уч ярим ойлик бола рангларни, шаклларни ажратади ва ўзига яқин турган предметларга синчиклаб қарай бошлайди. Гўдак олти ойлик бўлганида рангларни, турли хил жисмларни бир-биридан яхши фарқ қила оладиган бўлади.

Чақалоқ кўзининг кўриш ёки кўрмаслигини ўз вақтида аниқлаш алоҳида аҳамиятга эга. Ота-оналар буни ўзлари ҳам бир неча усул ёрдамида текширишлари мумкин. Масалан, гўдакнинг кўзи рўпарасига бирор жисм яқинлаштирилади. Агар бола кўзини юмиб-очса, демак у кўради. Кўзи кўрмайдиган чақалоқ эса бу ҳаракатларни бажармайди ҳамда тўғри ва аниқ қарамайди...

Оилада кўзи ожиз фарзанд туғилгани аниқ бўлса, ҳар бир ота-она ўзини йўқотмасдан, ўз устида иш олиб боришга тайёрланиши керак. Кўзи ожиз болани фақат даволатмасдан, унинг ҳар томонлама ривожланиши ва тарбиясига ҳам катта эътибор бериш талаб қилинади. Бунинг учун ота-оналар махсус адабиётлардан фойдаланиб, ўз устиларида мустақил иш олиб боришлари, шифокор ва тифлопедагог (кўзи ожиз болалар ўқитувчилари)лардан мунтазам равишда маслаҳат олиб, фарзандининг ногиронлигини ўзига сездирмасликка ҳаракат қилишлари лозим.

Хўш, бу маълумотлар нега келтирилди ва тифлопедагогика ўзи нима?

### ТАҚДИМОТ

— "Тифлос" грекча сўз бўлиб, кўзи ожиз деган маънони англатади, — дейди "Panoh shu'lasi" жамғармаси раиси ўринбосари Хадича Мирзаева "Кўришда оғир нуқсони бор болаларни тарбиялаш ва мактабга тайёрлаш" услубий қўлланмаси ҳамда "Мактабгача таълим тифлопедагогика дастури" қўлланмаларининг тақдимот маросимида. — Тифлопедагогикага оид бу услубий қўлланма ва дастур мамлакатимиздаги мактабгача ёшдаги кўзи ожиз болалар учун илк қўлланма сифатида ҳам аҳамиятлидир.

Хорижий давлатлар ва мамлакатимиз ҳукумати вакиллари, халқаро ташкилотлар раҳбарлари иштирок этган мазкур тадбирда ЮНЕСКО, ЮНИСЕФ, Республика таълим маркази, "Камалак" болалар ташкилоти, "Panoh shu'lasi", СОРОС жамғармаси вакил ва раҳбарлари тифлопедагогиканинг мактабгача ёшдаги кўзи ожиз болалар ҳаётидаги аҳамияти хусусида батафсил тўхталдилар. Сўзга чиққанлар РТМнинг "Махсус таълим бўлими" қошидаги илмий-услубий кенгаши гуруҳи йиғилишида кўриб чиқилиб, тасдиқланган ва нашрга тавсия этилган ҳамда Ўзбекистон очиқ жамият институтининг СОРОС жамғармаси ва ЮНИСЕФ ваколатхонаси кўмагида чоп этилган услубий қўлланма ҳамда дастурнинг ота-оналар учун керакли манба эканини ҳам таъкидладилар.

### ТАРҒИБОТ

Тақдимот маросимидан сўнг кўзи ожиз ва заиф кўрувчи болалар ҳамда ёшларни реабилитация қилиш бўйича "Panoh shu'lasi" жамғармаси раиси муовини Х.Мирзаевадан жамғарма яна қандай ишларни амалга ошираяпти, деб сўраганимизда ундан қуйидаги жавобни олдик:

— Жамғармамиз октябрь-ноябрь ойларида тифлопедагогика бўйича икки ойлик 72 соатга мўлжалланган курс олиб бораяпти. СОРОС жамғармаси кўмагида олиб борилаётган мазкур курсни ўқитишда олий малакали тифлопедагоглар — Йўлдош Охунбобоев номидаги махсус мактаб-интернат ўқитувчилари фаолият юритишаяпти. Ушбу курс ҳафтада уч марта — душанба, чоршанба, жума кунлари соат 15 дан 18 га қадар олиб борилади.

**Шерали НИШОНОВ,**
**"Ma'rifat" мухбири**

## *Bir soatlik dars*

# «ОНА ТИЛИНГИЗНИ АСРАНГ, ҲАР НЕДАН ОРТИҚ...»

Қайсики синфда она тили ва адабиёти фанидан сабоқ бераётган ўқитувчи ўз соҳасининг билимдони, ўқувчиларнинг қалбида ҳайрат ва илмга ҳақиқий меҳр-муҳаббат уйғота олган, том маънодаги педагогга айлана олса, билингки, шу синфда аълочилар кўпаяди. Шу синфда таҳсил олаётганларнинг кўзларида бошқача, чақноқ нур бўлади. Уларнинг дилларида ўзгача миллий ғурур, ишонч жўшади. Қалбларига қўл солсангиз биз оддийгина одамийлик, инсонийлик деб атагучи, лекин жуда буюк фазилатларнинг гўзал бир кўринишларда шаклланаётганини сезасиз бу ёшларда. Балки, ҳаёт сабоғи — она тили ва адабиётининг кучи ва қудратини ишга сола олган моҳир педагогнинг энг катта ютуғи ҳам аввало, ана шундадир! Хизмат тақозоси билан турли касб эгалари билан суҳбатлашганимда фикрат дунёларига тан бергудек бўлсам беихтиёр "Сизга она тили ва адабиётидан ким сабоқ берган эди" дея сўрагим келади.

Ҳа, адабиёт инсонга дунёни тушунмоқ, идрок этмоқ, қалбларни қалб билан англамоқ, Ватанни севмоқ, она тилининг шарафи, шонини ҳар недан устун қўя билмоқ ҳисларини сингдириб таълим беради, тарбиялайди.

Навоий шаҳридаги 8-умумий ўрта таълим мактаби муаллимаси Ҳожибегим Очилова ҳам ўз фанини ана шундай эзгу қирралари билан ёш авлодга улаша олаётган адабиёт оламининг элчиларидандир. У ўзининг 23 йиллик меҳнат фаолиятини ана шу хайрли ишга бахшида этди. Изланишлар, ўқувчилар ва китоблар ичида ўтган бу йилларда ўзининг маҳорат мактабини ярата олди. У "Йил ўқитувчиси — 2001" кўрик-танловининг республика босқичида фахрли иккинчи ўринни, ўша йили Республика маънавият ва маърифат марказининг Навоий вилоят бўлими томонидан ташкил этилган "Навоий асарларининг билимдони" мавзусидаги воизлар танловида биринчи ўринни эгаллади. Республика миқёсида ўтказиладиган ўқитувчиларнинг турли анжуманларининг фаол иштирокчиси.

Биз маҳоратли муаллиманинг бир соатлик дарсини кузатдик. Синф томон юрарканмиз, Ҳожибегим она тили дарсларида аввало, нималарга эътибор қаратишини қайд этди, биз эса қирқ-беш дақиқа давомида муаллимнинг қуйидагиларга эриша олганига гувоҳ бўлдик. Бу ўқитувчи маҳорат мактабининг айрим қирралари эди холос:

I. Саводхонлик:

а) тўғри талаффуз;

б) расмлар асосида фикр юритиш;

в) ўз фикрини нутқ шароитига мос равишда турли шаклларда ифодалай олиш.

2. Оғзаки нутқ.

3. Ёзма нутқ.

4. Ривоят, тасвир, муҳокама тарзидаги матнларни яратиш.

5. Мустақил фикрлаш.

6. Ифодали ўқиш.

7. Луғатлардан фойдалана олиш.

8. Назарий билим /малака ва кўникма/.

9. Кузатиш.

10. Изланиш.

11. Шарҳлаш.

12. Қиёслаш.

13. Тасниф этиш.

14. Хулоса чиқариш...

... 5 "Б"-синфда бошланган она тили дарси шунчалар оддий ва самимият билан бордики, ўқувчиларнинг ўзларини эркин, хотиржам айни пайтда фаол тутишлари ўқитувчига ҳам илҳом, завқ берарди гўё. Синф гўзал бир гулзорга айланганки, болалар ундан иштиёқ билан "гул чечаклар" терарди... Қирқ икки ўқувчининг руҳлари тетик, фикрлари жамланган... Уларнинг ҳар бири ўқитувчи билан якка-якка ишлаётгандек машғул. Ҳеч ким муаллиманинг эътиборидан четда эмас!

**Мавзу:** Содда ёйиқ гап

**Дарснинг мақсади:** Ихчам гап ва содда йиғиқ гаплар юзасидан ўқувчиларнинг билим ва малакаларини мустаҳкамлаш. Содда ёйиқ гап ҳақида билим ва кўникма ҳосил қилиш.

Ўқувчилар онгида она тилимизга ҳурмат, муҳаббат туйғуларини шакллантириш.

Ўқувчиларнинг фикрлаш қобилиятларини ўстириш, миллий ўзликни англаш руҳини ўқувчилар онгига сингдириш, уларни юртимиз мустақиллигини қадрлаш, улуғлашга ўргатиш, уларда ўзи танлаган касбга меҳр уйғотиш.

**Дарснинг жиҳози:** Давлат рамзлари акс этган плакатлар, ихчам гап, содда йиғиқ гап ва содда ёйиқ гапларга доир кўргазмали жадваллар, "Ўзбек тилининг изоҳли луғати" /икки томдан иборат/. Суратли лавҳалар, кодоскопга туширилган тест саволлари, дераза ортидаги табиат манзараси...

**Ўқувчилар:** Ассалому алайкум!

**Ўқитувчи:** Ваалайкум ассалом, кайфиятларингиз қандай? Дам олиш кунларингиз яхши ўтдими? Мен сизларни соғиниб қолдим.

**Ўқувчилар:** (хушнуд кайфиятда) Биз ҳам сизни соғиндик.

**Ўқитувчи:** Она тили фанини-чи?

**Ўқувчилар:** Она тилини ҳам соғиндик.

**Ўқитувчи:** Унда ана шу аъло кайфият — соғинч билан дарсимизни бошлаймиз.

**Навбатчи:** (Дарс бошида ҳар доим навбатчининг Ватан, Истиқлол, Она тили каби мавзуларда шеър айтиши одат тусига кирган)

Минг йилларки, булбул каломи,

Ўзгармайди яхлит ҳамиша

Аммо шўрлик тўтининг ҳоли

Ўзгаларга тақлид ҳамиша.

Она тилим, сен борсан шаксиз

Булбул куйин шеърга соламан

Сен йўқолган куннинг шубҳасиз

Мен ҳам тўти бўлиб қоламан.

**Ўқитувчи:** Баракалла, қизим Гулҳаё, она тилимизни улуғловчи ажойиб шеър ёд олибсиз. Дарвоқе, болажонлар биз октябрь ойида яна қандай байрамни нишонлаймиз?

**Ўқувчилар:** Тил байрамини

**Ўқитувчи:** Нега бу кунни байрам сифатида нишонлаймиз?

**Ўқувчи:** Чунки, 1989 йилнинг 21-октябрида ўзбек тилига Давлат тили мақоми берилди. Тилимиз қадр топди. Давлат идораларида ҳужжатлар ўз тилимизда юритила бошланди. Бу эса тилимизнинг бойлиги имкониятларининг ифодасидир.

**Ўқитувчи:** Жуда яхши. Инсон ўз тилини аввало, қадрлаши, унинг софлиги, бойиши учун ҳисса қўшиш керак экан, шундайми?

**Ўқувчилар:** Албатта.

**Ўқитувчи:** Қани болажонлар, тил ҳақида ким ҳикматли сўзлардан айта олади?

**Ўқувчи:** Тил — миллатнинг қалби.

**Ўқитувчи:** Жуда яхши, барчангиз тилимизни шарафловчи шеърлар, ҳикматли сўзлар билишингизга ишонаман. Ватанини, Онасини, Тилини севган киши она тили фанини ҳам меҳр билан мукаммал ўрганиши керак. Бугунги дарсимизда фаол иштирок этишингиз билан сизлар бу фазилатларингизни намоён этишингизга ишонаман. Эътиборингизни дарсликдаги 31-машққа қаратамиз. Машқларни мустақил бажаришингиз давомида ўтган дарсларимизни мустаҳкамлаб, янги мавзунинг моҳиятини англаб борамиз.

(Бир ўқувчи машқ шартини ўқийди. Ўқувчилар топшириқларни ёзма равишда бажаришга киришадилар.)

**Ўқитувчи:** Хўш, менинг билимдонларим, бажарган вазифасини ким изоҳлаб беради. (Аксарият ўқувчилар қўл кўтаради.)

**Ўқитувчи:** Алишербек, сиз улуғ бобомизнинг номини кўтариб юрибсиз, шундайми? Шоир бобокалонимиз тилимизнинг равнақига қандай хизмат қилганларини биламиз. Сиз эса давом эттирмоғингиз керак. Марҳамат.

**Ўқувчи:** Чизаман — ихчам гап, ҳаракатнинг бажарилиши ҳақида хабар беради. Фақат кесимдан иборат гап. Бу ихчам гапга мисол бўлади. Мен чизаман — содда йиғиқ гап. Ҳаракатнинг бажарилиши ва бажарувчиси ҳақида хабар беради. Мен расмни чизаман. Гап кенгаяпти, яъни унда бошқа бўлаклар ҳам иштирок этаяпти. Йиғиқ гапимиз ёйиқ гапга айланди. Эга, кесимдан ташқари тўлдирувчи ҳам иштирок этаяпти...

**Ўқитувчи:** Яшанг ўғлим. Мана сизга ҳам балларингизни ҳисоблаб борувчи карточка. (Дарвоқе, ўқитувчи дарс давомида иштирок этган ҳар бир ўқувчига учбурчак, тўртбурчак, айлана шаклдаги оддий картон қоғозлардан тайёрланган карточкаларни тарқатиб боради). Шу тахлит ўқувчилар машқнинг давомини бир-бир изоҳлаб борадилар.

Машқ бажариб бўлингач, ўқувчиларнинг эътибори ёзув тахтасига илиб қўйилган расмга қаратилади. Расмда ўқитувчи ва ўқувчи суҳбатлашаётган лавҳа акс эттирилган. Стол устида китоблар, гулдонда гул. Ўқувчилар расм асосида ёзма ва оғзаки матн тузишади. Ўқувчи улардан айримларини тинглаб фикр билдиради.

**Ўқувчи:** Мен келажакда ўқитувчи бўлмоқчиман. Суратдаги ўқитувчидек самимий, оддий ва билимдон. Китоблар эса билим манбаидир. Кўп мутолаа қилган кишининг тафаккури бой бўлади. Касблар ичида энг улуғи муаллимлик касбидир.

Ўқувчининг меҳр билан ҳадя этган бир даста гули энг катта эҳтиром рамзидир...

**Ўқитувчи:** Раҳмат, Икромжон. Сиз жуда тўғри таъриф бердингиз. Бундан сўз бойлигингиз ошганлиги ҳам кўриниб турибди. Мени ҳам руҳлантириб юбордингиз. Мен ҳам сиздек ўқувчиларим борлигидан фахрланаман. Энди болажонлар ихчам, содда йиғиқ ва содда ёйиқ гаплар асосида ижодий матн яратамиз. Маъмурахон, марҳамат ўқинг-чи.

**Ўқувчи:** Куз. Боғга кирдим. Дарахтларнинг япроқлари қўнғир сариқ рангга кирган. Далаларда кузги юмушлар амалга оширилаяпти...

**Ўқитувчи:** Яшанг қизим. Нодирбек, менинг ёнимга келиб деразадан атрофни кузатиб, матн тузинг-чи.

**Ўқувчи:** Мактабимизнинг ҳовлиси кенг. Атрофида турли-туман манзарали дарахтлар бор. Ранго-ранг гуллар кўзингизни қувнатади. Табиат кузда ўзгача бўлади. Тонглари салқин. Тушга яқин ҳаво исий бошлайди. Мен табиатни жуда севаман.

**Ўқитувчи:** Яшанг ўғлим. Кўрдингизми болажонлар ўзбек тили нақадар бой, жозибали тилимизда турли матнлар яратиш мумкин. Ана шу тилимизга бош Қомусимиз бўлган Конституциямизда ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Шундайми? Қани, бу ҳақда ким гапириб бера олади?

**Ўқувчи:** Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 4-моддасида "Ўзбекистон Республикасининг давлат тили — ўзбек тилидир" дейилган.

**Ўқитувчи:** Ҳа, болажонлар, биз она тилимиз билан ҳақли равишда фахрлансак арзийди. Ҳазрат Навоий айтганларидек, "Кўнгил дарёсининг гавҳари тилдир, тил гавҳардан афзал ва мартабаси баланддир". Энди сўз бойлигимизни янада ошириш мақсадида "Сўздан сўз ясаш" ўйинини бошлаймиз. Бунда парталараро мусобақамиз ҳам давом этади.

Доскага "Саводхон", "Билимдон", "Масъулият" сўзлари ёзиб қўйилиб ўқувчилар мустақил равишда ишга киришиб кетадилар.

... Ўқитувчи бир неча ўқувчи ясаган сўзларини эшитгач, қаноат ҳосил қилиб уларга ташаккурини билдирди. Савол-жавоблар билан мустаҳкамланиб хулосаланди. Сўнгра кодоскопга ёзилган тест саволларига болалар жавоб беришди.

Дарс сўнггида болаларнинг тўплаган карточкалари йиғиб олиниб, ҳар бир ўқувчининг тўплаган умумий баллари ҳисобланди. Шу йўсинда парталараро мусобақа ҳам якун топди. Уйга ихчам, содда йиғиқ ва содда ёйиқ гаплар асосида Истиқлолимизни улуғловчи ижодий матн яратиш вазифа қилиб берилди.

Дарс тугаб, қўнғироқ чалинди-ю ўқувчилар танаффусга ошиқмас, мароқли дарснинг таъсирида руҳлари енгил, гўёки тафаккурларидаги улғайишдан масрур эдилар.

Бир соатлик сабоқ давомида менга таъсир қилгани қизчалар билан бирга йигитчаларнинг ҳам фанга қизиқиши, тиришқоқлиги, илмга чанқоқлиги бўлди. Ўт-олов ёшидаги бу йигитлар анчайин босиқ, мустақил фикрловчи, мулоҳазали болалар. Бу эса сўзсиз она тили ва адабиёти фани муаллимасининг меҳнати маҳсулидир.

— Ёмон ўқувчи бўлмайди, — дейди Ҳожибегим, — ёмон ўқитувчи бўлиши мумкин. Ўқувчини аввало, ҳурмат қилиш, уни ўзига, ўз лаёқатига ишонтира олиш керак. Донишмандларимиз демишларки:

*Сўздадур ҳар яхшиликки, имкони бор.*

*Мундин дебдурларки, нафаснинг жони бор.*

Қайсики, соҳада ишлаётган киши муомаала маданиятини мукаммал эгаллаган бўлса, иши бароридан келаверади. Бунинг учун эса она тили ва адабиёти фанини яхши ўзлаштирмоқ, унинг имкониятларидан фойдалана олмоқ жоиз.

**Дарсни "Ma'rifat"нинг махсус мухбири Ойбуви ОЧИЛОВА кузатди ва ёзиб олди.**



**Суратда: тажрибали педагог Ҳожибегим Очилова.**

# МАКТАБ КУТУБХОНАСИ — МАЪРИФАТ МАРКАЗИ

**(Давоми. Боши 1-бетда)**



— Мен ўтган йили АҚШ ва Буюк Британияда бўлиб, мактаб кутубхоналари фаолияти билан ҳам танишиш имконига эга бўлгандим, — дейди конференция иштирокчиси, Қарши шаҳридаги 29-умумтаълим мактаби математика фани ўқитувчиси Улуғбек Саъдиев. — Мазкур мамлакатлар тажрибасини ўрганган ҳолда айтиш мумкинки, ўқувчиларни кутубхоналарга кенг жалб этиш мақсадида бир неча омилларга эътибор қаратиш зарур. Энг аввало, бугунги кун кутубхоначисининг билими ва малакасини ошириш, уни ахборот манбалари ва уларни тақдим этиш малакаси билан қуроллантириш лозим.

Иккинчидан, мактаб кутубхоналарини қайта таъмирлаш, улар учун кенг, шинам ва ёруғ хоналар барпо қилиш зарур. Шунда ўқувчиларнинг кутубхонада дарсдан бўш вақтларида мустақил фаолият билан шуғулланишлари учун имконият яралади. Шу орқали кутубхонада дарс, семинар машғулотлари ўтказиш, адабий тўгараклар фаолиятини йўлга қўйиш мумкин. Шу ўринда таъкидлаш лозимки, кўпгина ғарб давлатларида ўқувчилар ҳафтада бир соат кутубхонада машғулот ўтказишади. Бундан ташқари, ҳар ойда бир марта баъзи фанлар бўйича машғулотлар кутубхонада ўтилади. Бу тажрибани республикамизда қўллаш ижобий самара беради, деб ўйлайман.



Замонавий кутубхоналарни яратишда маҳаллий ҳомийларнинг кўмаги ҳам зарур, албатта. Бу амалиёт кўпгина ривожланган давлатларда кенг қўлланилиши кўпчилигимизга маълум. Қадимги Римнинг бой аъёнлари ўз халқи учун кутубхоналар барпо қилишни шараф деб билганлар. Ўтган асрнинг оламшумул воқеалари сирасига киритилган бадавлат Эндрю Карнеги бутун мол-мулки ҳисобига АҚШда 1769 та, дунёнинг бошқа мамлакатларида 700 дан ортиқ кутубхона барпо қилгани боис, жаҳон халқлари қалбига абадий муҳрланди. Кўҳна Машриқзаминда ҳам тарихда улкан кутубхоналар эл орасида машҳур бўлиб, уларни бунёд қилишда ва дунёнинг сара дурдона асарлари билан бойитишда халқнинг саховатли, маърифатпарвар кишилари ҳисса қўшганлигини унутмаслигимиз лозим.

Юқоридаги каби тадбирлар ўқувчиларнинг фақат ўқитувчи берган билим ва дарсликлар билан чекланиб қолмай, балки ўз устида ишлашга, керакли маълумотларни қидириб топишга, мустақил ўрганишга, турли хил ижодий ишлар, лойиҳалар устида ишлашга ўргатади.

### АСР КУТУБХОНАСИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҚИЁФАСИ

XXI асрга ахборот ва технологиялар асри дея таъриф берилаётгани бежиз эмас. Бугунги кунда илм-фаннинг юксак тараққиёти натижаси ўлароқ, ҳаётимизнинг ҳар бир жабҳаси, халқ хўжалигининг турли соҳалари ривожини ахборот ва замонавий технологияларсиз тасаввур этиш мушкул бўлиб қолди. Бу жараён, албатта, таълим тизимини ҳам четлаб ўтгани йўқ ва бу масалага мамлакатимиз ҳукумати давлат сиёсати даражасида эътибор қарата бошлади. Ўтган қарийб 10 йиллар давомида республикамизнинг кўпгина таълим муассасалари янги ахборот технологиялари билан жиҳозланди, ўқув дастурларига махсус фанлар киритилди. Айни пайтда мазкур соҳада олиб борилаётган ижобий ишларнинг самараси ўлароқ ёшларимиз орасида замонавий компьютер технологияларига қизиқиш тобора ортиб бормоқда.

## *Xalqaro anjuman*

Ушбу хайрли ишларнинг давоми сифатида халқаро анжуман доирасида Республика илмий педагогика кутубхонасида "Ўқув-ахборот ресурс маркази" иш бошлади. Мазкур марказнинг ташкил қилиниши республикамиз таълим тизимида ўзига хос янгилик бўлиб, у мактаб кутубхоначилигини янги босқичга кўтариш билан бирга, ўқувчи ва педагоглар фаолиятини янада такомиллаштиришга хизмат қилади. Унинг самарали фаолият бошлашига халқаро ташкилотларнинг беғараз ёрдами асқотди.



Марказнинг аталишидан ҳам англаш мумкинки, у ўқувчи ва педагоглар, шунингдек кутубхоначиларни ўқитиш, малакасини ошириш билан бир қаторда, уларни ахборот ресурслари билан таъминлайди. Марказ тақдимот маросимида таъкидланганидек, лойиҳа муаллифлари ўз олдига бир неча мақсадларни белгилаб олган. Чунончи, мактаб кутубхоначилари ва педагогларни шу ернинг ўзида қайта ўқитиш ва малакасини ошириш ишларини йўлга қўйиш, кутубхона ишини фаоллаштирувчи уста-тренерларни семинар-тренинглар ёрдамида тайёрлаш, мактаб кутубхоналарини янги ахборот технологияларини фаол қўллаган ҳолда ислоҳ қилиш каби долзарб масалалар шулар жумласидандир.

Ўқув-ахборот ресурс маркази сўнгги русумдаги замонавий ахборот ва компьютер воситалари билан жиҳозланган бўлиб, у ўқувчи ва педагогларга жаҳонда юз бераётган турли ахборот ва таълим соҳасидаги янгиликлардан, жаҳон кутубхоналаридаги адабиётлардан Интернет ёрдамида фойдаланиш имконини беради. Шунингдек, видеоахборотлар жамланган видеотека, слайдлар, диафильм ва диапозитивлардан иборат фонотека, китоб ва дарсликлар, даврий матбуот нашрлари мавжуд кутубхона фойдаланувчиларга кўпгина қулайликлар яратиши шубҳасиз.

Тадбирда иштирок этган Британия Кенгашининг мамлакатимиздаги ваколатхонаси раҳбари Невилл Макбейн янги ташкил этилган "Ўқув-ахборот ресурс маркази"ни эзгу мақсадлар билан ерга қадалажак уруғга менгзади. Бунда рамзий маъно бор, албатта. Бугун яхши ниятлар билан иш бошлаётган марказ эртага ўз олдидаги мақсадларга эришса, ниҳолдан ширин-шакар мевалар етилиши шубҳасиз. Бу ҳаётимизнинг янада фаровонлашувига, ёшларимизнинг эса билимли, зукко ўғил-қизлар бўлиб камол топиши демакдир.

Орзулар рўёби бўлган "уруғ"ни кўпайтириш ишлари ҳам аллақачон бошлаб юборилган. Келгуси йилда мамлакатимиздаги 70 та умумтаълим мактаби ҳамда 15 та ўқитувчилар малакасини ошириш институтларида замонавий Ўқув-ахборот ресурс марказлари иш бошлайди.

**Ҳусан НИШОНОВ, Муҳаммаджон ИСРОИЛОВ, "Ma'rifat" мухбирлари**



**Суратларда: халқаро анжумандан лавҳалар. Суратларни Сарвар ЎРМОНОВ (ЎзА), Б.РИЗОҚУЛОВ олган**

## *Seminar*

# ТАЪЛИМДА КУТУБХОНАЧИНИНГ ЎРНИ

Бугун ва эртамиз бизга ва бизнинг қанчалик билимга эга бўлишимизга, одоб ва хулқимизу ўзлигимизни англашимизга боғлиқ. Мукаммал билимга эга бўлишимизда эса китобнинг, китобхонликнинг ўрни беқиёс. Куни кеча Яккасарой туманидаги 127-мактабда ўтказилган туман кутубхоначилари семинарида ана шу каби фикрларга алоҳида урғу берилди.

— 2003 — 2004 ўқув йили — умумий ўрта таълим муассасалари кутубхоналари фаолиятини такомиллаштириш ўқув йили, деб эълон қилиниши зиммамизга янада кўпроқ масъулият юклади, — деди Яккасарой тумани ХТБ кутубхоналар бўйича услубчиси М.Усмондиёрова. — Эндиликда китоб ва китобхонлик — ўтмишимиз, бугунимиз, келажагимиз эканлигини ҳар бир муаллим, ҳар бир ота-она, ҳар бир ўқувчининг онгига тўла етказишни кўзлаяпмиз.

Албатта, бу борада туман умумий ўрта таълим муассасаларида ўзини болалар китобхонлигини юксалтиришга бағишлаётган фидойилар ҳам йўқ эмас. Семинарда ўз касбининг фидойилари бўлмиш Мунира Умарова(25-мактаб), Марина Пак(48-мактаб), Светлана Саруханова(72-мактаб), Римма Рахматулина(127-мактаб), Елена Богатирёва(172-мактаб), Инобат Умарова(319-мактаб) сингари кутубхоначилар иш тажрибалари, улар амалга ошираётган ишларнинг ибратли жиҳатлари тилга олинди ва ўзаро фикр алмашилди.

Шунингдек, тадбирга йиғилганлар ўқувчиларни кутубхоналарга жалб этиш, уларни китоб билан ишлашга ўргатиш, синфлараро баҳс-мунозара кечаларини ўтказиш, кутубхона жамғармасини турли усуллар билан бойитиш каби долзарб масалалар юзасидан ҳам фикрлашиб олишди.

Тадбир якунида туман ХТБ услубиёт хонаси мудири Муқаддас Аъзамова илғор кутубхоначиларни халқ таълими бўлими фахрий ёрлиқлари ҳамда бир ойлик маош миқдоридаги пул мукофотлари билан тақдирлади.

**Ҳилола ФАЙЗУЛЛАЕВА**

**Qalandar shunda tilsimot bilan qadimgiday asli odam husniga kelib, boyagi chashma-buloqning oldiga, jo'ralarining qoshiga bordi.**

**Torkiston shunday shahar: buni qorong'ilikda parilar, devlar yasagan. Bu qorong'ilik dunyoga yorug' dunyoning kuni bilan oyining shu'lasi urmas.**



## Xalq og'zaki ijodidan

# MALIKA AYYOR

## DOSTON

*(Davomi. Boshi 83—86 sonlarda.)*

*Boymoqdev: — Xayr, sen o'tirsang o'tir, — deb bunga javob berib yetmish ming ko'kqashqa xizmatkor devlariga qarab aytdi: — Endi bizlar dalaga chiqayik, ov-ovlab kelayik.*

*Bolaning bir o'zi bu yerda qoldi. Shunda suyakning ustida turib qalandarga gapirib bir so'z dedi:*

*Rahm aylamay ko'zdan oqqan yoshima,*
*Hafa falak og'u qo'shdi oshima,*
*Qo'shilolmay men ham tengu to'shima,*
*Malika deb qoldim devning changida!..*

*Shunda qalandar: "Obbo, meni ko'rgan ekan, endi chiqmasam bo'lmaydi", deb suyakning ostidan chiqdi.*

*— Ey bolam, sen odam nasli ekansan, nima qilib bu devlarning changalida yuribsan? — dedi.*

*Bola aytdi: — Ey bova, Zebit shahrining shahzodasi edim. Hovdak ko'lida qush solib, ov ovlab yurgan vaqtimda Malika degan qiz menga yo'liqdi, menga va'da berdi, shu yerni ko'rsatdi. Shunda men ko'p lashkar bilan Malikani izlab shu yerga keldim. Munda kelgan so'ng lashkarlarimni shu devlar yeb qo'ydi, lekin meni o'ldirmadi, oradan yetti yil o'tdi, yetti yildan beri devlarning qo'lida yuribman.*

*— Devlarga kosaguli bo'lsang, bularga xizmat qilib Torkiston shahrini ko'rdingmi, bildingmi? — deb qalandar so'radi.*

*Bola: — Bova, men Hovdakning ko'lida Torkiston shahrini Malikaning o'zidan eshitganman. Yetti yildan beri devlarning qo'lida bandi bo'lib yuribman, — dedi.*

*Qalandar bu so'zni eshitib, bolaga qarab: — Ey bolam, Malikaning shahrini — Torkiston elini shu devlar biladi. Devlar kelganda, sen devlarga inoq ekansan, so'ragin. Boymoqdev Malikaning xizmatkori bo'ladi, hamma ishdan xabari bor, bu ishlarning barini Boymoqdev biladi. Lekin so'raganing bilan devlar senga Torkistonni, malikani aytmas, "Sening nima ishing bor", der. Shunda sen, "o'zimni o'ldiraman", deb jo'rttaga bir pichoqni olib qorningga urmoqchi bo'l. Bu dev seni o'ldirmay olib qolgan ekan, bunda ham bir sir bor chiqar. Senga bir so'zni aytar, Malikaning elidan, Torkiston shahridan, o'zidan xabar berar. Shunga qarab ish qilamiz. Bolam, sen yosh bola ekansan, xafa bo'lma! Men shu devlarning qo'lidan seni qutqararman, ota-enangga, qovmu qarindoshingga omon-eson yetkararman. Sen, bolam, bu yomon devlarning ichida bo'l, men tashqaridan bo'layin, ishqilib ikkovimiz o'lmaslik chorasini ko'rayin, — dedi. Shunda bola aytdi: — Ey bova, sizning so'zingiz menga juda ma'qul bo'ldi. Shunday qiling. Lekin endi, bova, devlarning kelar vaqti bo'ldi, joyingizga kiring, — dedi.*

*Qalandar bu so'zni eshitib, tilsimot bilan yumronning suratida bo'lib, suyaklarning ostiga kirib ketdi. Shunda devlar ham ovdan qaytib kirib keldi. Boymoqdev shosupaga kelib o'tirdi. Ziyofatga qo'yni so'ydi, o'tirish bo'ldi. Bola shu o'tirishda soqiylik qilib, devlarga may quyib berayotir.*

*Shunda bola devlarga qarab: — Ey devlar! Mening sizlarga aytadigan arzim shu: men Malikani olaman deb kelib edim. Yetti yildan beri tentib yuribman. Malikani olaman deb elu xalqimdan ayrildim, g'aribi go'riston bo'ldim. Men endi o'ladigan yerimga yetdim, qanday qilsa Malikani oladi? Menga aytsanglar, mening armonim yuragimda qolmasa edi.*

*Shunda dev bolaning jag'iga bir urdi: — Bachchag'ar! Malika bilan nima ishing bor?! — dedi. Shunda bu bola qo'liga bir pichoqni oldi: — Sizlardan kunda munday ta'na, zulm ko'rib yurgandan, bukun o'zimni o'ldirayin, boshqa vaqtda ham bir o'lim bor-da! — dedi. Shunda devlar kelib, "Unday qilma" deb qo'lini ushladi: "Malika bo'lsa bizlar aytayik", dedi. Malikani aytmoqchi bo'ldi, hamma devlar qo'lini ko'tardi: "Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin", deb duo qildi. "Yetmish besh shaharning xoni izlab keldi, hammasi bizlarning qo'limizda nobud bo'ldi. Ular yerning ustida deb izlab kelar edi, lekin Torkiston shahri, Malika pari yerning ostida, Torkiston shahar shu qorong'ilik yerda, Malika ham shu shaharda. Lekin qanday bo'lsa ham baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin", deb hammalari har gapida duo qiladi. Muni bola bilan Shoqalandar ham eshitib turipti: Devlar yana aytadi: — Bu tog'ni Ko'klamtog' deydi. Bu, tog' emas, bizlar buni tilsimot bilan suratini tog'ning suratiga o'xshatib Torkiston shahrining darvozasining og'ziga ko'ndalang qilib tashlab qo'yibmiz. Bu ishdan xabari bo'lsa, Shoqalandar kelsa, "Yoril!" deb, Ko'klamtoqqa zarb qilsa, tog' yorilib Shoqalandarga yo'l beradi. Torkistonning bo'sag'asini ko'radi. Ostidan bir katta daryo chiqib oqadi. Torkistonning bo'sag'asining o'ng yog'idan bir yaydoq qora tulpar chiqib shu suvdan suvlaydi. Shu tulparni mingan kishi Malikani olib ketadi, agar boshqa kishi, boshqa mol, ot-bedov va boshqa narsalardan mingan kishi bo'lsa, bandargohda yotgan qirq ming ajdarhoning damida yo'q bo'lib ketadi. Bu tulparni mingan kishi o'lmay, qutilib, Malikani olib ketadi. Baloning qadami yetsa-yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin! — deb devlar gurullab duo qildi.*

*Boymoqdev xizmatkor devlaridan Shoqalandarni munday tilga olib turganini ko'rib aytdi: — Bu ishdan xabari bo'lsa, Shoqalandarday na'rasher kelsa. "Yoril" deb Ko'klamtoqqa zarb qilsa. Ko'klamtog' yorilib yo'l bersa, Malika parini olsa, qaytib yana Ko'klamtoqqa kelar, bu yerda necha vaqtlar savash bo'lar, suvsizlikdan jabr o'tar, tillari tanglayda qotar, "Suv bo'lsa ichar edim" deb hasrat tortar. Shunda men bir mesh suv bo'lib yotaman. Meni suv deb ichib ko'rar, zahar bo'lib ichiga ketib o'ldirib, Malikani obqolaman. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, harkim bu sirni birovga aytsa, tosh bo'lib qolsin! Bu zahardan omon o'tsa, sarhovuzning oldiga yetsa, qo'nib mehmon bo'lib yotsa, bir tup qizil gul bo'lib turaman, gul deb iskab ko'rar, zahar bo'lib dimog'iga joylanib olaman. Bunda o'ldirolmasam, unda o'ldiraman. Baloning qadami yetsa-yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, har kim bu so'zni aytsa tosh bo'lib qolsin! Undan o'tar, O'rtacho'lga yetar. Bir tilsimot bilan olov bo'lib yonib dunyoning hammasini o'rab olaman. Munda o'lmasa unda o'lar. Shunda qalandar: "Tiriklay jahannamga ketdim", deb bezor bo'lib, Malikani tashlab ketar. Baloning qadami yetsa yetsin, Shoqalandarning qadami yetmasin, harkim aytsa tosh bo'lib qolsin! Unda ham o'lmasa Malikani tashlab ketsa ham olmaymiz, Malika Shoqalandarga osh bo'lsin! Devlar osmonga ko'tarilib, uchib ketdi. Devlarning ko'tarilib ketganini Shoqalandar bilib, chiqib qarasa, devlardan hech kim qolmapti, bolani ham olib ketipti.*

*Qalandar shunda tilsimot bilan qadimgiday asli odam husniga kelib, boyagi chashma-buloqning oldiga, jo'ralarining qoshiga bordi. Jo'ralari "Malikani ko'rdingizmi, Torkiston shahrini bildingizmi?" deb so'radi. Shunda Shoqalandar jo'ralariga qarab bir so'z dedi:*

*Harqaysingiz bir mamlakat polvoni,*
*Yer ostida ekan yorning makoni.*
*Xabarin bergandir bizlarga devlar,*
*Malikani izlab kelganmiz bizlar.*
*Bormoqni ixtiyor qildi qalandar,*
*Bizman birga borasizmi, yigitlar...*

*Hijolatda turib edi Avazjon,*
*Ketgandayin bo'ldi qayg'uli tuman,*
*Sachrab o'rnidan turdi, Avazjon*
*Shodu xurram bo'lib endi bu zamon:*
*— Borar bo'lsang men ham hamroh Bovajon!*
*— Izlaganim mening gulyuzli dilbar, —*
*Dediyu, o'rnidan turdi Shozargar.*
*Yo'l boshladi Shoqalandar shu zamon,*
*Xafa bo'lib ergashgandir merganlar.*

*Ana shunda Shozargar bilan Avazxon polvon, Asad, Shodmon hammalari Shoqalandarga hamroh bo'lib, yo'lga tushib jo'nay berdilar. Shu tog'da, bir yerda bir murvat qora tosh bor edi. Shu tog'ning ostidagi Torkiston shahar darvozasining bo'sag'asi shul murvat bilan ochilar edi. Shoqalandar murvatning oldiga borib, qo'liga so'tasini olib urmoqchi bo'lib, bir so'z deb turipti:*

*Injilma, yo'l bergin tog'lar, jodugar,*
*O'zga emasman-ku, bil — Shoqalandar!..*

*Ayriliq o'tiga bag'rimni dog'lab,*
*Yor ishqida jabr ko'rdim, qon yig'lab,*
*Keldim munda Malika deb so'rog'lab,*
*Injilma, yo'l bergin tog'lar, jodugar!..*

*Ko'klamtog'ni so'ta bilan uradi,*
*Ko'klamtog'i qoq yorilib boradi,*
*Torkistonning bo'sag'asin ko'radi.*
*Biror katta daryo oqib jo'nadi.*

*Daryodan suvladi ul Qoratulpar,*
*Yugurib borib mindi Shoqalandar,*
*Min! — dedi, mingashdi kelib Shozargar,*
*Min! — dedi, mingashdi Avazday qo'chqor.*
*Uchovlari bir tulparga mingashar,*
*Qoldik, deb yig'laydi shunday merganlar.*

*Quloq soling merganlarning tiliga:*
*— Uchoving mingashding tulpar beliga,*
*Bizlar hamroh erdik uzoq yo'liga,*
*Ketar bo'lding Torkistonning eliga,*
*Bizni tashlab ketding devning mo'liga,*
*Bir kelar mo'ljaling bizlar so'rayik,*
*Necha kungachayin munda turayik?..*

*Shodmonning so'zin eshitib Avazjon,*
*Bul so'zlarni aytaberdi shu zamon:*
*— Anglab olgin bu so'zlarimni, Shodmonjon,*
*Nasib etsa, qirq kundan so'ng kelaman.*
*Toyrilmasin boshda toju davlatim*
*Sizlarga omonat qoldi G'irotim,*
*Qirq kun bo'ldi mening kelar muhlatim,*
*Yo'lim xatar, qirq kungacha qaragin.*

*Jahonni sayr etib o'ynab-kulmasam,*
*Nor kesar olmosni belga cholmasam,*
*Qirq kunda ham Torkistondan kelmasam,*
*Yakka mozor bo'lib, shunda qoldi de,*
*Izlab topsang Chambildayin shaharni,*
*Albatta, otama bergin xabarni,*
*Qirq kun bo'ldi mening kelar muhlatim.*

*Bu so'zlarni aytdi Avaz zo'ravor,*
*"Omin-ollo", — dedi endi merganlar,*
*G'orga boshqarildi ul Qoratulpar,*
*Qarab turib endi shunda merganlar,*
*Ko'zdan g'oyib bo'lib ketdi u tulpar.*
*Yashindayin oqib boradi tulpar.*

*Necha vaqt yurganin bular bilmadi,*
*Qorong'idir, kunning ko'zin ko'rmadi,*
*Bir manzilga yetganday bo'b qaradi,*
*Qorong'i g'uborda ketib boradi.*

*Bandargoh ustida qirq ming ajdahar*
*Ajdahar ustiga yetishdi bular,*
*Yashindayin oqadi bu Qoratulpar,*
*Ishqirib damiga tortdi ajdahar.*
*Buni ko'rib Avaz hayron bo'ladi,*
*Bilolmydi, nima iloj qiladi,*
*Qorong'i g'uborda ketib boradi.*
*"Avazjon" qo'rqmasin, deydi Qalandar,*
*Avazjonga tasalli berib boradi*

*— Ushbu damdir, o'zga damni dam dema,*
*Boshing eson, bu davlatni kam dema,*
*Ajdaharni ko'rib, Avaz, g'am yema!*
*Bu so'zni aytib borar Shoqalandar,*
*Yashindayin oqib boradi tulpar,*
*Ajdahardan o'tib ketdi muqarrar.*

*Shoqalandar Avaz bilan Shozargar,*
*Necha kunlar yurganini bilmadi,*
*Qalandarlar kun yuzini ko'rmadi,*
*Qaerlarga borarini bilmadi.*

*Oshiqning fahmidir qorong'i kecha,*
*Yig'lasa holiga yig'lar birnecha,*
*Bandargohda yotgan qirq ming sherbachcha.*
*Sher ustiga yetib bordi qalandar.*

*Ul sherlar chobinib yo'lni oladi,*
*Shoqalandar, Avaz, Zargar keladi,*
*Necha sherni so'ta bilan soladi,*
*Ko'p sherlarni yerga yakson qiladi.*

*Mast bo'lib boradi bu Shoqalandar,*
*Yo'lga chiqib nobud o'lgandir sherlar,*
*Dushman sherlar o'z holidan xabardor*
*Bir zo'r qalandarga bo'lgandir duchor.*

*Ko'p sherlarni yerga yakson qiladi,*
*Sher murdasi bog'day qiyrab qoladi,*
*Ajallisi shunda o'lib boradi,*
*Bu sherlardan endi o'tib boradi.*
*Ot chopsa, gumbirlar tog'ning darasi,*
*Botirni ingratar nayza yarasi,*
*Qarar edi Chin-Mochinning to'rasi,*
*Ko'rindi ul Torkistonning qorasi,*
*Yarqillab ko'rindi yorning shahari.*

*Shunda Shoqalandar tulparning tumshug'idan ushlab, zo'rlik bilan to'xtatib oldi. Uchovi tulpardan tushdi. Shoqalandar aytdi: — "Piyoda qo'noq — yaxshi qo'noq" degan so'z bor. Birovning otini minib borganimizdan yayov yurganimiz yaxshi. Mana ko'ringan shaharga yaqin qoldi, piyoda bo'lsa yetib olamiz, — deb maslahat bilan tulparni qo'yib yubordi.*

*Bu ot Malikaning yaxshi ko'rgan tulpari edi. Shunda tulpar to'ppa-to'g'ri Torkistonga Malikaning ko'shkiga qarab chopib bordi. Malikaning xizmatkorlari: "Tulparingiz kelib qoldi", deb Malikaga xabar berdi. Malika, ushlatib ko'shkining oldiga boylatib qo'ydi. Tulparni qalandarlar, minib kelganini Malika bilgani yo'q edi. Malikalar o'z kayfi-safosi bilan turaberdi.*

*Bu uchchovi ham qalandar bo'lib, yo'lga tushib jo'nayberdi. Torkiston shaharini Avazxon ko'rib, hayron qolab borayotir edi. Shoqalandar Avazga qarab bir so'z dedi:*

*Jahonni sayr etib, bolam, yurasan,*
*O'lmasang bir kuni Chambil borasan.*
*Ko'rganingni sen hikoya qilasan,*
*Ajoyib yurtlarni ko'rgin, Avazjon...*

*Bu so'zlarni Shoqalandar aytib, Torkiston shahrini oralab boraberdi. Torkiston shunday shahar: buni qorong'ilikda parilar, devlar yasagan. Bu qorong'ilik dunyoga yorug' dunyoning kuni bilan oyining shu'lasi urmas, "Bu oy bilan oftobga muhtoj bo'lmayik" deb yaxshi oloslardan, dur, gavharlardan, oy, oftob qilib, qimmatbaho toshlardan yulduzlar qilib qo'ygan: Torkistonning shahri shunday yorug', yarqillab turgan. Gullar ochilgan, chamanlar yashnagan, suvlar oqqan, guliston-bo'ston, bulbullar sayrab mast bo'lib qolgan ko'rmaganlar armonda, ko'rganlar darmonda.*

*Tamosho qilib borayotib qarasalar, oldidan bir ko'shk chiqdi. Shoqalandar Avaz bilan Shozargarga aytdi: — Bu ko'ringan ko'shk Malikaning ko'shki.*

*Shunda ko'shkni ko'rib, yaqinlab, aylanib borib qarasalar, Malika shu ko'shkning ustida bir sherni o'rtaga olib,ko'p parizodlar bilan o'ynatib o'tiripti. O'ynab turgan sher bularni ko'rib, Shoqalandarning yoqasidan olaketdi. Malikaning sherini Shoqalandar ko'tarib olib osmonga otdi.*

*Buni ko'rib Malika otasiga arza xat qilib jo'natdi. "Mening otam podsho bo'lsa, mening oldimdagi o'ynatib yurgan sherimni uch qalandar kelib bukun o'ldirdi. Shulardan sherimning xunini olib bersin", dedi.*

*Arzani xizmatkorlar olib borib, Qosimshohga tutdi. Qosimshoh o'qib ko'rib, har tarafga ot choptirib, qalandarlarni oldirib borib, sherning xununi so'rab turipti:*

*Sen eshitgin Qosimshohning so'zini,*
*Shohning Malikaday sarvinozini,*
*Ko'nglin naza qilding shohning qizini,*
*O'ldirarman gunohkorning o'zini.*

*Manmanlikdan haddan oshib yuribsan,*
*Malikaning sherin nobud qilibsan,*
*Qalandarlar gunohkor bo'b qolibsan...*

*Bu shohlik shavkatim, gado ko'rasan,*
*Holing bilmay gunohkor bo'b qolasan,*
*Sher xuniga javob aytgin, qalandar,*
*Qahr aylasam armon bilan o'lasan!*

*Bu so'zni Shoqalandar eshitib, Qosimshohga qarab, "Sher xuniga javob shu" deb turipti:*

*G'amli kunda tortar edim ohu voh,*
*Yo'l yurganda har kim berar bir panoh,*
*Bu kuningdan o'lsang bo'ymi[1] , Qosimshoh!..*

*Har shaharda yurgan gado, qalandar,*
*Kuchukni o'ldirib, bo'ldik gunohkor,*
*So'raganing bo'lsa kuchukning xuni.*
*Senga muncha sha'nu shavkat na darkor?!*

*Jafolar solarman tandagi jonga,*
*Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga,*
*Podshoh! Hazillashma menday o'g'longa,*
*Taxtu baxting otayinmi osmonga!*

*Sag'al ishga gunohkor qib turasan,*
*Bizni nochor, juda nochor bilasan,*
*Sherning xunin balki bersam olasan,*
*Qahr aylasam, ey Qosimshoh, o'lasan!*

*Bu so'zni Qosimshoh eshitib, atrofidagi amaldorlariga qarab kulib yubordi.*

*— Bizlar xo'p odamlarga da'vo qilibmiz. Bular bir yurgan majnun qalandar ekan. Shulardan oladigan sherning xunidan o'tmak kerak.*

*Shunda qoshida turgan amaldorlar aytdi: — Ey podshoyi olam, sultoni bokaram! Shunchalik sha'nu shavkatga beadablik qilib munchalik so'zni gapiradi, bular o'zlarining so'zlari bilan o'zlari gunohkor bo'ldi, bularning o'lmagiga o'z so'zlari guvoh bo'ldi, bularga o'lim lozim bo'ldi! — dedi.*

*Qosimshoh: "Rost aytasizlar", deb jallod chaqirib turipti:*

*Qalandarlar o'z tilidan gunohkor,*
*Keling munda, mirg'azablar-jallodlar!*
*Gunohkorni dorga haydab boringlar!*
*Ko'rmagan kunlarni unga solinglar!*
*Harna deb amr etsam, ani qilinglar!*
*Qalandarlar bo'lib turur gunohkor,*
*Kesing endi qalandarlar boshini,*
*Boshin kesib, dorga torting loshini!*
*O'z tilidan bular bo'ldi gunohkor,*
*Olib boring, bilsin shohning ishini!*

*Jallodlar qalandarlarni o'ldirmakka choqlandi. Shoqalandarning qahri kelib, har tarafga g'azab bilan nazar soldi, uch yuz kishi tosh qotib qoldi. Jallodlar bu sirni ko'rdi, Qosimshohga aytmoqchi bo'lib, bir nechasi yugurib chopib ketdi. Qosimshohning oldiga borib, bu so'zlarni bayon berib: — Uch qalandar gunohkor bo'ldi, bir qaragani bilan uch yuz kishi tosh qotib qoldi. Bizlar bu ishlarni qalandardan bilamiz, bu qanday ish bo'ldi deb xabarga keldik, — dedi.*

*Shunda Qosimshoh bu so'zni eshitib: — Unday bo'lsa, qalandarlarni munda olib kelinglar, men gap so'rayin, — dedi.Jallodlar borib, uch qalandarni olib keldi. Shunda Qosimshoh qalandarlarga qarab, "Qaysi shahardan keldinglar?" deb so'rab so'z qotib, bir so'z dedi:*

*Senga so'z berdimi Malika Ayyor?*
*Qay shahardan munda kelding, qalandar?*
*Odammisan, yo bilmayman, jodugar?*
*Qay shahardan munda kelding, qalandar?*
*Asli nasling xabar bergin, mehmonlar,*
*Ne ish uchun munda mehmon keldinglar?..*

*Shoqalandar aytdi: "Endi biz ham odam qatori bo'ldik, bizdan shoh javob so'radi, bunga men ham bir javob aytmasam bo'lmadi" deb Qosimshohga qarab bir so'z dedi:*

*So'zimni eshitgin Qosim muqarrar,*
*Otim Yo'lchi, o'zim yurgan qalandar,*
*Tarki dunyo qildim, dunyo nadarkor,*
*Qahr aylasam vayron bo'lar shaharlar!*

*Valiyilloh nom ko'tarib yuraman,*
*Sendayin shohlarning qo'lin olaman,*
*Har kimiki, hox manmanlik qilsa,*
*Alarning shahrini vayron qilaman.*

*Qalandar surati zohir muqarrar,*
*Malikaday qizing qildi gunohkor,*
*Beadablik sendan o'tdi bayakbor,*
*Bo'lma, Qosim, yana bizdan bexabar!*

*Nima bo'lsa o'ylab qilgin ishingni,*
*So'zima quloq sol, ko'tar boshingni!*
*Bu so'zimni hazil bilma, Qosimshoh!*
*O'ylab qil-da, mundan keyin ishingni!*

*Bu so'zni eshitib Qosimshoh aytdi: — Bular tarki dunyo qilgan qalandarlar ekan, lekin bizdan ko'tohlik o'tgan ekan, bizdan ziyon yetgan ekan, — deb o'rnidan turib, qalandarlarga yo'l berib, yoshu qarisi qo'l berib, nazru niyoz mo'l berib, siylab turganida bu xabar Malikaga yetdi. Malika yana arza qilib Qosimshohga jo'natdi. Qosimshoh arzani o'qib ko'rsa, Malika shunday deb yozipti: "Ota! Siz so'rayolmadingiz, endi bir kunlik podsholigingizni menga bering, men o'zim taxtning ustiga o'tirib, sherimning xunini qalandarlardan talab qilib olayin". Qosimshoh qiziga javob berolmay, hech nima deyolmay, qalandarlarga ham gap qotolmay, indamay qarab qoldi.*

*Shohning fikrda qolganini bilib, "Menga endi navbat keldi, bunga bir so'z qotayin", — deb Shozargar o'rnidar turib, Qosimshohga qarab bir so'z dedi:*

*Ayo Qosim, senga deyin so'zimni,*
*Iloji osondir, bilgin arzimni,*
*Muning uchun xafa bo'lma, Qosimshoh...*

*Eshit menday g'arib, gado tilini,*
*Bizdan ko'rgin karomatning mo'lini,*
*Yasab beray Malikaning sherini...*

*Qosimshoh dimog'i chog' bo'lib kuldi. Zargarning so'zini aytib, "Sheringni bu qalandar qirq kunda tilladan yasab berar ekan, asli sherning o'ziday bo'lar ekan", — deb qizining xatiga javob berib, "qirq kunda tilladan yasalgan, jon endirgan sherdan xabar olinglar", deb qiziga yubordi. — Unday bo'lsa, sher yasasalaringiz, nima kerak bo'ladi? Kerakliklaringizni olingizlar! — dedi. Unda Shozargar: "Shoqalandar aytsa ozroq aytib qo'yadi, men ko'proq aytayin", deb, — "qirq botmon tilla bering, qirq botmon guruch bilan qirqta yaxshi katta qo'y, birqancha qand bilan choy, shahringizning yaxshi yeridan — saroydan joy bering", — dedi.*

*Qosimshoh bularning aytganini darrov hozirlatdi. Qalandarlarga yaxshi joylar tayin qildi, harna istaganlaricha berdi. Qalandarlar vaqti xush bo'lib, dimog'i chog' bo'lib, podshohning bergan narsalarini olib, sher bilan ishlari yo'q, Torkistonni aylanib, tamosha qilmoqdan boshqani bilmadalar. Shu orada birkam qirq kun o'tdi, bir qo'y bilan bir botmon guruch, kundan bir kun qoldi.*

*Shunda Avazjon aytdi: — Tamosho bilan bir kam qirq kun o'tdi, erta podsho chaqirsa, sherni so'rasa, nima javob berasizlar?*

*Shozargar aytdi: — Ey Avazjon! Qozonni os, tillani erit, senga sher yasab berayin.*

*Shoqalandarga aytdi: — Sen qo'yni so'y, oshni damla, yeyayik, bu suhbatni oxir qilayik.*

*Avazjon qozonni osib, tillani eritib turdi. Shoqalandar qo'yni so'yib, oshni damlab, bu ham tayyorlab qo'ydi. Shunda Shozargar sher yasamoqqa ish boshladi, Avazning ko'nglini xushladi.*

*Shozargar sherni shunday sozladi, ichidan murvat bilan ochadigan qilib boplab yasadi. Ot jasadli; jinqarcha, musicha, murotalibachcha, to'ti, qumri, mayna, bulbul — shunday qushlarning suratini sherning jasadiga qo'shib, juda choqlab, hechkim ko'rmagan sher qilib qo'ydi. Uchovlari oshni yeb, Avazjonning dimog'ini chog'lab Shozargar aytdi: — Ey Avazjon! Senga shunday so'zni aytayin, sen xabardor bo'l: bu sherning ichiga seni solib qo'yaman. Qattiq burasang, u yo'rg'alaydi, asta burasang yuradi, o'rta burasang jebalaydi — deb o'rgatdi. Avazjon o'rganib oldi.*

*Qirq kun muxlati tamom to'ldi. Malika otasidan sherini so'radi. Qosimshoh xizmatkorlariga buyurdi. Kelib ko'rsa, qalandarlar sherni yasab, sozlab, o'xshatib qo'yipti. Xizmatkorlar borib podshoga xabar berdi. "Sherni yasab qo'yipti", dedi. Qosimshohning dimog'i chog' bo'lib, qizi Malikaga xabar yubordi. Malika shod-xurram bo'lib, "U sherni bir ko'rmak lozim bo'lipti", deb o'zining xizmatkorlaridan qirqta qizini, "Olib kelinglar", deb sherga buyurdi. Xizmatkor qizlar jo'nab, Shoqalandar bilan Shozargar qo'ngan saroyga qarab kelaberdilar.*

*Bularning kelayotganini Shoqalandar ko'rib, Shozargarga qarab aytdi: — Bu ayollar erkaklaridan shumroq bo'ladi. "Kecha ko'rganimizda uchov edingizlar, bugun nimaga ikov bo'lib qolipsizlar?" desa javob berolmay qolmayik; birovimizni yo'qotganday yig'lashib turayik, bularga bir hiyla qilayik, — dedi.*

*Qirqin qizlar yetishib kelib qoldi. Ilgari ko'rganda bu qalandarlar uchov edi, bugungi kunda ikov bo'lib qolipti. Ikki qalandar dod deb yig'lashib turipti. Qizlar aytdi: "Bular harqanday vali bo'lsalar ham birovi o'lipti; ajali yetsa o'ladi-da. Har nima bo'lsa bo'lipti, ajali yetgani o'lipti. Sherni ko'rayik, tamosha qilayik", deyishib bular sherni ko'rmoqqa boshladilar. Shoqalandar, Shozargar o'z qayg'ularida qolib turdi.*

*Qirq qiz sherning oldiga kelib qarasa, qumri, bulbullar sayrab turganday, to'tilar gapirayotganday, parilarga tiklab qarab turganday bir yaxshi ajoyib sherni yasapti, aytgan bilan ta'rifga to'g'ri kelmaydi. Qirq qiz sherni bunday o'xshatib yasaganiga hayron qolib, bir-biridan sherni qizg'anib, yugurishib, talashib qirqin qizlarning kattarog'i — mahmadona chapsanrog'i sherning oldiga kelib, "minib ko'rayin", deb mindi. Buning minganini Avazjon bilib murvatini asta buradi, yurdi; undan qattiqroq buradi, sher yo'rg'aladi. Qirqin qizlar juda hayron qolib: "Bu turgan qalandarlar juda usta ekan. Bulardan birnarsani olgan olib qoladi, qolgan bulardan hech nimani ololmaydi", deyishib, qalandarlarga so'z qotmasdan sherni o'rtalariga olib, kulib, nechovlari sherga talashib, sher goh jebalab, goh yo'rg'alab yo'lga kirib, nechovlari sherni minib o'ynab-kulib zargarning qilgani qirqin qizning aqlin olib Malikaning ko'shkiga yaqinlab bordi. Malika shunday qarasa, sher goh yo'rg'alab, goh jebalab kelayapti.*

*Malika pari ham ko'shkdan besh yuz parilar bilan pastga tushib, qalandarlarning qilgan ishiga hayron qoldi. Aytdi: — Ey qirqin qiz parilarim! Tilladan sher qilib yurgizgan odamzodni ko'rmak tugil, eshitganimiz ham yo'q. Bu, qiziq, — izi topilmaydigan qalandarlar ekan. Bizlar shohlikda yuramiz, bizlarga bunday kishilar juda kerak. Bu qalandarlar bizlarga hamma vaqt darkor kishilar ekan. Bularni olib kelib vaqtini xushlab dimog'ini chog'lab, ostiga polos tashlab, shu qalandarlar uchun pastki ko'shkining ostidan joy-yotoq bermog'imiz yaxshi. Bunday yaxshi sharofatli odamlar izlaganda topilmaydi, — dedi.*

*Unda sherga borgan qizlar Malika parizodga aytdi: — Ilgari ko'rganimizda qalandarlar uchov edi,hali borib qarasak,birovi o'lipti,ikovi yig'lashib qolipti, xafa bo'lishib turipti.*

*Malika aytdi: — Sizlardan o'lganini so'raganim yo'q. O'lgan bo'lsa, o'ligini olib kelinglar deganim yo'q! Qolgan ikki qalandarni borib, ergashtirib kelinglar! — deb o'nta qizni buyurdi.*

*Bu o'n qiz Malikaning xizmatini o'ringa keltirib, qalandarlarning oldiga kelib, bir so'z deb turipti:*

*Yana bahor bo'lsa ochilar gullar,*
*Gulni ko'rsa, mast bo'b sayrar bulbullar.*
*Biz bo'lamiz parizodga xizmatkor,*
*Kelsin deb chorlaydi Malika Ayyor.*

*Ustiga kiygani gulgun qirmizi,*
*Aqlingizni olar jodugar ko'zi,*
*Biz bo'lamiz Malikaning kanizi,*
*Kelsin deb chorlaydi buvishim sizni.*

*G'amdan ozod bo'ling endi, qalandar,*
*Yuring sher yasagan, ustai zargar,*
*Qarab turgan yo'lingizga nechovlar,*
*Sizga xizmat qilar necha gajakdor...*

*Shoqalandar bilan Shozargar qizlardan bu so'zni eshitib, "Bu yaxshi bo'ldi. Endi bu qizlar bilan birga borayik, har nima bo'lsa ko'rayik; bizlarning ishimiz Malika bilan bo'ladi", — deb ikkovlari bir-birlari bilan maslahatlashib, qirqin qizlar bilan birga jo'nayberdilar.*

*Malikaning qoshiga etdi. Malikaday dilbar ularga navozish etdi.*

*Necha qizlar o'ynab-kulib,*
*Ko'p yugurib xizmat qilib,*
*Pastki ko'shkidan joy berib,*
*Pari, hurlar saf-saf turar,*
*Tol chiviqdayin irg'alib...*

*Qalandarlar aqlin oldi,*
*Oldiga dasturxon soldi.*
*Qalandarlar ko'ngli xushdir,*
*Parilarman o'tirishdi,*
*Pista, rusta ham qandolat*
*Usti-ustiga aralashdi,*
*Olib kelayotir qizlar,*
*Boz ustiga qovurma go'shtni,*
*Izzat bilan Malika Ayyor,*
*Qalandarlarman ko'rishdi,*
*Bir-biridan hol so'rashdi...*

*Qalandarlarning vaqtini xushladi, ziyofat ustiga ziyofat, qand ustiga sharbat quydirdi, ko'p in'omlar berib, yaxshi joylar tayinlab, Malika Ayyor qalandarlarga qarab aytdi: — Ey mehmonlar! Sizlar endi shu pastki ko'shkdan chiqmay o'tiraberingizlar, shaharni tamosho qilmoqchi bo'lsalaringiz, tamoshoni qilib — yana qaytib kelib, shu yerda yuraberingizlar. Sizlarga hechkimning bu yerda ishi yo'q. Bizlar gohida uyoqqa-buyoqqa sayr bog'larga chiqib, tamosholar bilan, bizlar-sizlar bilan, — deb Shoqalandar bilan Shozargarga ko'p yaxshi qaradi. Qalandarlarning dimog'i chog' bo'lib qoldi. Malika aytdi: — Sizlar esa bu yerda o'tiraberingizlar, bizlar bugun bir sayr qilib kelayik.*

***(Davomi bor)***

**Ruhshunoslarning kuzatishicha, bir suhbat davomida kimki 7 martagacha "men" desa, bunday odamning suhbatidan eshituvchilar qochishga harakat qilar ekan.**

**Jurnalistika — talabalarimiz tasavvuridagi chiroyli ko'rinish, mikrofon tutish, so'zamollik, tanqid qilishni bilish bilan cheklanmaydi. Uning orqasida tinimsiz, mashaqqatli mehnat yotadi.**

*Teran tomirlar*

# МЎЪТАЗАЛИЙЛАРНИ ИНКОР ЭТГАН АЛЛОМА

Ўзбекистон мустақилликка эришгач, ўз давлатчилигимиз тарихига оид манбалар ва йирик алломаларнинг бой маънавий меросини ўрганишга, тадқиқ этишга алоҳида эътибор берилмоқда. Бу борада Президентимиз: "Миллий тарихимиз ва умумбашарий тараққиёт ривожига унутилмас ҳисса қўшган олиму фузалоларнинг мафкура ва унинг жамият ҳаётидаги аҳамияти ҳақида қолдирган илмий мероси, фалсафий қарашларини ўрганиш даркор", — деб таъкидлаган эди. Ҳақиқатдан ҳам Маҳмуд аз-Замахшарий, Бурҳониддин Марғиноний, Абу Али ибн Сино, Имом Мотурудий, Имом ал-Бухорий каби кўплаб алломаларимизнинг фиқҳ, калом илмидаги буюк хизматлари дунё маънавиятида муносиб ўрин эгаллайди. Бундай бой маънавий меросимизни ўрганиш биз ёшлар учун жуда аҳамиятлидир. Бу аввало Шарқ маданияти, ахлоқшунослиги, фалсафаси, диншунослигининг ижобий томонларини замонавий талқинда англаш муҳим аҳамият касб этади демакдир. Айниқса Мусулмон уйғониш даври (ренессанси) деб аталган IX-XII асрларда яшаб ижод этган аждодларимизнинг маънавий мероси ўзининг мазмуни ва моҳиятига кўра қимматлидир. Айнан шу даврларда Ўрта Осиёда фиқҳ, ҳадисшунослик, калом илми ва тафсир илмлари ривожланган. Ана шундай даврда Мовароуннаҳрда Ҳанафийлик мазҳабининг ёйилиши ҳамда қарор топишида Абу Мансур ал-Мотурудийнинг хизматлари катта бўлган. Имом Мотурудий асос солган ақоид илми тарихи ҳақида сўз юритар эканмиз, энг аввало, калом илми ҳақида гапириб ўтиш жоиз. Калом-сўз, нутқ дегани бўлиб, ўз асосида ислом фалсафасини акс эттирган, ўрта асрларда вужудга келган диний фалсафий таълимотдир. Бу илмий оқимнинг олимларини "мутакаллим" деб атайдилар.

Илми калом VIII асрда вужудга келган. Бу даврга келиб, ислом дини кенг ёйилиб кўпгина халқлар ислом динига кира бошладилар. Табиийки, шу жараёнга ҳамоҳанг тарзда кўпдан-кўп фирқалар, мазҳаблар пайдо бўла бошлади. Ана шундай бир вазиятда, бир-бирига зид бўлган ҳар хил бидъат мазҳабларидан "аҳли суннат вал — жамоат"нинг ақидаю эътиқодларини омон сақлаш мақсадида калом илми вужудга келди. Таниқли олим Зуҳриддин Ҳусниддинов ўзининг "Ислом: йўналишлар, мазҳаблар, оқимлар" номли китобида таъкидлашича, суннийлик йўналиши 4 та фиқҳий, ҳанафий, шофеъий, моликий, ҳанбалий ва 2 та ақидавий: ашъарий ва Мотурудий мазҳабларидан иборат бўлган. Бугунги кунда дунёдаги 1,3 миллиард мусулмонларнинг тахминан 92,5 фоизини суннийлар ташкил этиб, мазҳаблар бўйича қуйидаги нисбатда бўлинганлар: ҳанафийлар — 47 фоиз, шофиъийлар — 27 фоиз, моликийлар — 17 фоиз, ҳанбалийлар — 1,5 фоиз.

Манбаларнинг далолат беришича, Мотурудий, Имом Аъзам (Ҳанафия) мазҳаби занжиридаги энг юқори турган алломалардан таҳсил олган.

Имом Мотурудий ўша вақтларда асосий диний таълимот бўлган мўътазалиянинг барча ақидаларни бобма-боб инкор этди ҳамда уларнинг бешта усулини қусурли деб топди. Мотурудий мўътазалийлардан бўлган ва улар томонидан "бутун дунё имоми" номи берилган Каъбийни (бу шахс Мотурудийнинг замондоши бўлган) кузатди ва унинг ҳамма асарларини қусурли топиб, уларни йўққа чиқарди.

Мотурудий мўътазалия мазҳаби илгари сурган фикр-мулоҳазаларга жавоб тариқасида "Байёни вахмил-мўътазила", "Раддил — усули хамса ли Абу Муҳамад ал-Бохилил" асарларини ёзган эди.

Каъбийнинг фикрларини инкор этиш учун эса "Радди усулил — адилла лил Каъбий", "Родди таҳзибул — жадал лил — Каъбий", "Радди байтул — фусоқ лил — Каъбий" асарларини ёзди.

Бундан ташқари рофизий ва қарматийларнинг фикр-мулоҳазаларини рад этиб "Ар-раддл ала усулил — қарматия", "Радди китобул — Имоми ли Алибаъзи рафавиз" асарларини ёзган.

Фиқҳ усули борасидаги "Маҳозу уш-шариъа", "Китобул — жадал", шу билан бирга, Ҳазрати Имом Мотурудий тафсир ва калом илмлари соҳасида ҳам аҳли суннат усули ила асарлар ёзган.

У тафсир ҳақидаги китобига "Таъвилоту аҳли сунна" ёки "Ат-таъвилотул — Мотурудия фи байёни усули аҳли суннат ва усули тавҳид" деб ном берган.

Ушбу китоб ҳақида Ҳожа Ҳалифа номли машҳур олим шундай деган эди: "Бу тенгсиз бир китобдир. Ҳатто илми каломда бундан олдин ёзилган китобларнинг ҳеч бири тенг кела олмайди. Бу китоб бошқа китобларга нисбатан жуда осон тушунилади ва истифода этилади".

Мотурудийнинг "Ат-таъвилот" китоби, унинг "Ат-тавҳид" китобига қараганда, яна ҳам ойдинроқ, ояту тафсирларнинг янада қулайроқ ёзилганлигини, муаллифнинг бу илмларни чуқур ўрганганлигидан дарак беришини қатор тадқиқотчилар таъкидлаб ўтганлар.

Бугунги кунда шарқшунослар, файласуфлар, ҳуқуқшунослар, сиёсатшунослар томонидан Мотурудия таълимотини ўрганиш катта аҳамият касб этади.

**Камола СУЛАЙМОНОВА,**
**Тошкент давлат шарқшунослик институти 3-курс талабаси**

*Fikr*

# ЖУРНАЛИСТ БЎЛИШ ОСОНМИ?

*Олийгоҳ остонасига қадам қўйган ҳар бир ёшнинг, йигит-қизнинг орзулари осмон баробар бўлади. Ана шу орзулар ушалиб, талаба бўлиш бахти насиб этганлар эса бир зумда ҳаёт билан хаёл ўртасида муаллақ қоладилар. Ҳамиша "олтин давр" деб таърифланадиган талабалик ҳам шунгача бўлган ҳаётининг бир бўлаги сифатида ундан кўп ҳам фарқ қилмаслигининг гувоҳи бўлади ва дастлаб унинг хаёлини ўғирлаган нарса ҳафсаласини пир қилади. У одатийликдан ноодатий нарсаларни қидира бошлайди. Кечагина талаба бўлганлар, бир зумда ўзларини танлаган соҳаларининг "даҳо"лари сифатида кўриб, мўъжизалар яратишга интиладилар. Бу интилиш инкор қилиш, танқиддан бошланади. Айниқса, журналистикада шундай. Биринчи курсга бешта-олтита, ёзилган ва "ёздирилган" мақолаларини қўлтиқлаб келган ана шу "даҳо"лар ҳали бу соҳанинг сир-асрорини яхши билмай туриб, "бўлмайди", "арзимайди" деган инкорлар билан ўзбек журналистикасини танқид қилишга тушадилар. Бу жараён то билим даргоҳини битиргунча давом этади. Аслида ана шу инкорларнинг, танқидларнинг бўлгани яхши-да. Соҳа ривожланади. Улар томонидан қайси кўрсатувларнинг кўришга арзимаслиги, қайси газеталар яхшию, қайсинисининг савияси пастлиги, қайси журналистнинг қалами ўткирлигию, қайсиниси ёзишни билмаслигини эшитганларнинг "Ҳа, келажакдаги ўзбек журналистикасининг ҳақиқий жонкуярлари шулар бўлса керак-да", деган фикрга боришлари табиий. Аммо бу фикр хулоса дегани эмас, балки дастлабки таассурот холос. Ҳақиқий фикр, бир мунча вақт ўтгандан сўнг, бир-икки йилдан кейин пайдо бўлади. Шу вақт оралиғида кимнинг нимага қодирлиги, иқтидори, ёза олиш қобилияти, билими, савияси, фикрлаши, дунёқараши, воқеликни идрок этиши кўриниб қолади. Ёза оладиганлар ёки ёзишга қизиққанлар ўқиш жараёнида шаклланадилар. Ўзларининг йўналишларини, мавзуларини аниқлаштириб борадилар. Бундайлар бир курсда саноқлигина бўлиши мумкин. Қолганлар эса ёза олмасликдан қийналадилар. Қийналади, десак тўғри келмас-у, ёзишга интилмайдилар. Бунинг ўрнига бошқаларни, аниқроғи, оммавий ахборот воситаларини, журналистларнинг савияси ўзлариникига тўғри келмаслигини рўкач қилишади. Агар улар билан суҳбатлашиб "нега ёзмайсизлар", "матбуотда қатнашмайсизлар" деб сўрасангиз, халақит бераётган нарса газеталар улар ёзган мақолаларни (кўпроқ танқидий мақолаларни) босмаслигини, бир қолипдаги нашрларда қатнашиш қизиқ эмаслигини айтишади. Ёки бу соҳада етарлича билим берилмаслигини, таълимда, ўқув дастурларида кераксиз фанларнинг кўплигини сабаб қилиб кўрсатишади. Хўш, талабаларнинг бундай даъволари асослими? Умуман, талаба — ҳақиқий журналист бўлиши учун нима қилиш керак? Қандай қилиб унда ёзиш кўникмасини шакллантириш мумкин? Бу соҳа таълимида асосий эътиборни назарий билимларга қаратиш керакми ёки амалиётгами? Бу муаммога ойдинлик киритишни иккинчи саволдан бошласак.*

*Журналистика соҳасида таълим олувчилар учун ҳамиша шу муаммо кўндаланг бўлади, яъни журналистика учун назария муҳимми ёки амалиёт? Илгари назария бирламчи эди. Эндиликда амалиёт муҳим ҳисобланяпти. Аммо бу дегани назарий билимларни инкор қилиш керак дегани эмас, албатта. Ҳозирда Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети халқаро журналистика факультетида мутахассислик фанлари бўйича кичик гуруҳларда амалий машғулот олиб бориляпти. Бутун эътибор талабаларни ёзишга ўргатишга қаратилган. Бу борада ривожланган демократик мамлакатлардаги тажрибалар ҳам қўлланиляпти. Хусусан, биргина АҚШда журналистика таълими тизимини оладиган бўлсак, уларда бу соҳанинг ўқитилишида амалиёт биринчи ўринда туради. Шу билан бирга талабалар ўқув дастурларидаги назарий билимларни берилган вазифалар асосида индивидуал топширадилар. Бу ўзига хос мураккаб жараён. Ўқитувчи фақат йўналиш бериш ва натижаларни баҳолаш билан кифояланади. Бизда эса ўзгача. Ҳали ҳам назарий билимлар керагидан ортиқроқ. Шу нуқтаи назардан талабаларнинг эътирозларига асос бор. Ортиқча фанларни камайтириш, мутахассислик фанларини ривожлантириш керак. Айтайлик, мактаб дастурларида мавжуд бўлган тарих, адабиёт, одобнома, эстетика фанлари муҳим бўлмаслиги мумкин. Бироқ, журналистикада ихтисослашув бугунги кунда муҳим масала сифатида кун тартибига чиқаётган пайтда, агар журналист сиёсатни тушунмаса, иқтисодни тасаввур қилмаса, мантиқий фикрлай олмаса ундан ҳақиқий журналист чиқиши мумкинми?*

*Баъзан талабалар ортиқча фанлар қаторига "Ўзбек тили" фанини ҳам қўшадилар. Оддий бир мисол: бу фанни инкор қиладилару, аммо ёзган мақолаларида ғиж-ғиж хато. Гап қурилиши, иборалар, жумлалар тузишдан олдин, кўп талабалар сўзларни тўғри ёзолмайдилар. "Х" ва "ҳ" ҳарфини ажратолмаслик деярли ҳар бир талабанинг камчилиги. Устоз Бойбўта Дўстқораев бундан ҳамиша куюнадилар. "Коридорларга, аудиторияларга шу ҳарфлар иштирок этган сўзларни ёздириб осиб қўйиш керак", дейдилар. "Янгилик ёзиш", "Репортёрлик санъати", "Таҳлилий журналистика" фани каби амалий машғулотларимиздаги вақтнинг ярми хато тузатиш билан ўтиб кетади. Ваҳоланки, бу дарсларда биз талабаларни ёзишга ўргатишимиз керак. Хатога эътибор бермай, мазмунни муҳим ҳисобласак, эртага улар таҳририятларга чаласавод бўлиб борадиларку? Шу нуқтаи назардан журналистика соҳасини ўрганишда бошқа фанларнинг қисман бўлса ҳам ўрни бор.*

*Кўпинча таҳририят ходимлари, амалиётга борган талабаларда мустақил фикрнинг йўқлиги, нимани ёзишни билмай, боши қотиб ўтиришлари, мавзу тополмасликлари, топганда ҳам қандай йўналишда ёзишни, нимадан бошлаш кераклиги англолмасликларидан шикоят қилишади. Уларнинг гапларида жон бор. Агар талабада фикрнинг ўзи бўлмаса қандай қилиб ёзади? Фикр эса фақат таассурот билан пайдо бўлмайди. Таассуротни таҳлил қилишга қодир билим ҳам керак. Ёки аксинча билим, фикр бору ёзолмайди. Фикрни қоғозга тушириш, ривожлантиришда оқсайдилар. Тўғрироғи журналистиканинг "қора меҳнати"дан қочадилар. Қайта-қайта ёзишга эринадилар. Ваҳоланки, журналист бўлишни мақсад қилган ҳар бир талаба ёзишдан чарчамаслиги, тинмай ўз устида ишлаши керак. Чунки ижоднинг натижаси фақат машаққатли меҳнатда кўринади. Факультетда талабаларни тезроқ ёзишга ўргатиш учун таниқли журналистлар, муҳаррирлар амалий машғулотларга жалб қилинган. Шунга қарамай кўп ҳолларда талабалар бу фанларга ҳам совуққонлик билан муносабатда бўладилар. Амалиётчи ўқитувчи сифатида айтишим мумкинки, талабаларда ёзиш кўникмасини шакллантириш жараёни ҳам кўнгилдагидай эмас. Амалий машғулотда берилган топшириқни бажарган талабанинг ишини сабоқдошлари билан муҳокама қилиб, таклифлар билан қайта ишлаб келишни буюрсангиз, эринишади. Ҳар хил баҳоналарни рўкач қиладилар. Ёки фақат баҳо олиш учун интернетдан, хориж матбуотидан кўчириб келишади.*

*Талабаларимиз биринчи курсда таҳририятларга танишув амалиётига борадилар. Қолган курсларда ишлаб чиқариш амалиётини ўтайдилар. Яқинда Фарғона водийси вилоятларидаги туманларда амалиёт ўтаётган талабаларнинг иш жараёнлари билан танишдим. Айрим талабаларни иш устида учратдим. Улар ҳақидаги илиқ фикрлардан хурсанд бўлиб, кўнглим тоғдай кўтарилди. Айримлари эса шу ерда ҳам "йўли"ни қилиб амалиёт ўтаяптилар. Сабаб — ўзлари ёзолмайдилар. Ёки ёзишга ҳали улгураман, диплом олиб ишга тушганда барибир ёзишни ўрганаман, деган ёлғончи ишонч билан юрадилар. Дастлабки мақолалар аудитория орқали матбуот юзини кўриши зарур. Бунинг учун эса факультетимизда ижодий муҳит мавжуд. Ўз устида ишлаган, изланган талабалар шу муҳитда шаклланадилар. Фикрлар хилма-хиллиги, дарсларда воқеа-ҳодисаларнинг муҳокамаси, ҳар ким ўз фикрини айта олиши имкониятининг мавжудлиги ҳам шу соҳага чин дилдан меҳр қўйган талабаларнинг билимини янада оширади. Айниқса, бизнинг талабаларимиз хорижий тилни билганлиги боис мунтазам жаҳон матбуотидан бохабар бўлиб борадилар.*

*Бу йил халқаро журналистика факультети ўзининг дастлабки битирувчиларини мустақил ҳаётга кузатди. Битирувчилар орасида Динора Дўлтаева, Шаҳноза Матназарова, Шерзод Аҳматов, Фарҳод Ўтанов, Баҳодир Элибоевдай ўз сўзи, ўз овозига эга бўлган журналистларнинг етишиб чиққанлиги бизни қувонтиради. Бу, албатта, бизнинг ютуғимиз. Шу билан бирга уларнинг сафлари яна ҳам кенгайиши керак. Уларнинг билим ва маҳоратлари мамлакатимиз сарҳадлари оша хорижий давлатларда эътироф этилиши зарур.*

*Журналистика — талабаларимиз тасаввуридаги чиройли кўриниш, микрофон тутиш, сўзамоллик, танқид қилишни билиш билан чекланмайди. Унинг орқасида тинимсиз, машаққатли меҳнат ётади. Ёки ўқишга кирган талаба, албатта, журналист бўлиб етишиб чиқади, деган фикр билан яшамаслиги керак. Бу соҳанинг ҳақиқий мутахассиси бўлишни унинг қизиқиши ва шу йўлдаги интилиши ҳал қилади. Қолаверса, бу соҳа ҳамиша изланишни, ўқиб-ўрганишни ва албатта, фидоийликни талаб этади. Талабалик эса шу йўлдаги муҳим имконият.*

**Назира ҚУРБОН қизи,**
**ЎзДЖТУ халқаро журналистика факультети ўқитувчиси**

*Muloqot san'ati sirlari*

# ЛАЗЗАТЛАР ИЧИДА ЭНГ ШИРИНИ – СУҲБАТ

## 2-мақола

**(Давоми. Боши газетанинг 22 октябрь сонида.)**

### СУҲБАТДА ЭЪТИБОР МАСАЛАСИ

Кўриниб турибдики, хулқий ҳолат онгга, онг эса хулқий ҳолатга бевосита таъсир қилади.

Демак, суҳбатда хулқнинг таъсирчанлигини ошириш, объектнинг биринчи ўринда хулқий ҳолатига ва шу орқали унинг онгига таъсир ўтказиш лозим.



Суҳбатдош таъсирланувчи объектнинг ҳис-ҳаяжон, қўрқув, жаҳл ёки безовта ҳолатини сезса, унга таъсир ўтказиш қийин бўлишини билиши керак.

Оддий сўз билан айтганда, субъект таъсир объектини ҳаяжондан тушириб, меъёрий ҳолатга келтиргандан кейин асосий таъсирни бошлаши керак.

Бу ўринда айтиш керакки, таъсирчи субъектнинг объект эътиборини жалб қилиш маҳорати унинг билими билан бевосита боғлиқ эмас экан. Бу деган сўз, бировнинг эътиборини жалб қилиш учун, дейлик, бевосита бирор фандан чуқур билим талаб қилинмайди. Шунинг учун ҳам баъзи суҳбатларда чуқур билимли киши четда қолиб, мажлис аҳли сўзамол ёки умуман валақи бир кишига қулоқ тутиб ўтиришади.

Мажлис аҳлининг эътиборини жалб қилиш бўйича яхши тавсияларни ҳар ким ўз тажрибасида қўллаб зарур натижаларга эришади.

Бир томондан бу тўғри ҳам, чунки бир хил тавсияни икки киши икки ҳолатда ишлатса, икки хил ёки ундан ҳам ортиқ натижаларга эришиши аниқ. Шундан келиб чиқиб айтишимиз лозимки — нима қилишни ўргатиш учун маслаҳат бериш мумкин, аммо суҳбат жараёни таъсирчанлигини оширишда кўп ҳолларда қандай қилишни ўргатиб бўлмайди, чунки бу ҳамманинг ўзининг лаёқати, иштиёқи ва бошқа омиллар билан боғлиқ жараёндир.

Оддий мисол, руҳшунослар одатда хонадаги, синфдаги кишиларнинг диққат, эътиборини жалб қилиш учун ҳаммага тааллуқли бўлган сўз ёки ҳаракатдан бошлашни тавсия қилишади. Аммо бу ишни ҳар ким ҳар хил бажаради. Биров микрофонни тақиллатса, бошқа биров минбарга чиққанлигини таъкидлаб йўталиб олади. Қарабсизки, эътиборни жалб қилишда ҳар ким ҳар хил ҳаракат қилмоқда.

Суҳбатда ҳам субъект объектнинг эътиборини жалб қилишда ҳам ҳар хил усулларни қўллаши мумкин. Албатта, объектнинг ички таъсирчанлигини бир жойга тўплаш, П.Я.-Гольперин, С.Л.Кабыльницкая айтганидай, бу бирламчи назоратнинг ўрнатилиши диққат-эътиборга айланади, деган гап эмас.

Бу деган сўз, субъект ўз таъсири билан объектни бир қадар ички руҳий йиғимга, таъсирга тайёрлайди, диққатини бироз бўлса ҳам ўзига қаратади. Бу бирмунча вақт давом этадиган жараён. Қачон кутилган натижага эришгандан кейин субъект асосий мақсадига ўтса фойдалироқ бўлади. Бу фикрни аудиторияда танаффусдан кейин шовқинли суҳбат қилаётган талабалар ҳолати ва ўқитувчининг кириб "тинчланинг", "дарсга тайёрланинг" деб ўз иши билан машғул бўлиши билан таққосласа бўлади.

Ўқитувчининг бу сўзлари талабаларнинг диққатини бир қадар ўзига қаратди, аммо уларнинг эътиборини тўлиқ жалб қила олган эмас.

Икки кишининг ўзаро суҳбат бошлашида ҳам худди шундай ҳолатни кузатса бўлади. Айтайлик, таъсир ўтказмоқчи бўлган киши, субъект хонага кириб келди, объект, хона соҳиби телефонда гаплашмоқда, унинг олдида ёзиб ўтирган қоғозлари, яъни фикри бир томондан телефонда бўлаётган суҳбатда бўлса, иккинчи томондан қоғозга тушираётган мавзу билан банд. Қарабсизки, кириб келган кишининг суҳбати мавзусига кириши учун бу одам қанча чалғитувчи факторлардан қутулиб олмоғи лозим.

Субъект объектнинг телефон гўшагини жойига қўйишидан фойдаланиб ўз гапини бошласа, бу пайтда объектнинг фикри ҳали ёзаётган қоғозларида бўлиши мумкин. Демак, объектнинг диққати субъектнинг хонага кириши билан унга қаратилади, аммо диққат билан уни эшитишга ҳали тайёр эмас. Шунинг учун субъект ўз таъсирини бошламасдан олдин объектнинг эътиборини тўлиқ ўзига жалб қилганлигига ишонган ҳолда ўз таъсирини бошласа, самарали бўлади.

Бу ўринда кўз-кўз билан учрашиши, яъни субъектнинг нигоҳи объект нигоҳи билан учрашиши катта аҳамиятга эга. Агарда объект суҳбатга тайёр бўлмаса у ўз нигоҳини субъектдан олиб қочади. Бу суҳбатни хоҳламасликнинг энг биринчи белгиларидан ҳисобланади. Юқоридаги ҳолда объект ўз нигоҳини қоғозларга бурган бўлиши мумкин. Демак, субъект объектнинг эътиборини ўзига тортиши учун яна қўшимча чоралар кўриши лозим.

Агарда оммавий сўзга чиқишларда маърузачи кўпчиликнинг диққатини ўзига жалб қилиш учун ҳаммага тааллуқли сўз, ибора ва ҳаракатдан бошласа, шахсий мулоқотда субъект объектнинг диққатини ўзига қаратишда бутун эътиборини жалб қилишда нейтрал сўзлардан бошлаб, Д.Карнеги тавсиясига амал қилган ҳолда шахсий аҳамиятлилигини таъкидлаш, уқтиришга олиб келса, суҳбат натижаси таъсирчи учун муваффақиятли чиқиши аниқ.

Бу деган сўз объектнинг диққат-эътиборини субъект суҳбат бошида ўзига жалб қилди ва шу етарли деган тушунча эмас. Бутун суҳбат давомида субъект объектнинг эътиборини суҳбат мавзуси устида ушлаб турмоғи керак.

### СУҲБАТДА ЭЪТИБОРНИ УШЛАБ ТУРИШ — МАҲОРАТ

Эътиборни ушлаб туриш чора-тадбирлари турли хилдир.

Руҳшуносларнинг кузатишларидан маълумки, бошқаларнинг диққат-эътиборини доимий ушлаб туриш жуда қизиқ воқеа-ҳодисалар айтиб турилганда ҳам 15 дақиқадан узоқ чўзилмас экан. Шу муддатдан кейин қисқа танаффусчалар, мавзу ўзгаришлари талаб қилинади.

Агарда сизнинг нутқингизни қийналиб тушунишса, гўёки бошқа бир тилдан "таржима" қилаётгандай, бу ҳолда суҳбатдошингиз, қулоқ солувчи тезда толиқади. Сизнинг чайналиб айтган сўзларингизни, охиригача етмаган жумлангизни ҳар сафар тушунишга ҳаракат қилинса, объект тезда бундай фаолиятдан воз кечади.

Агарда сиз маърузани жуда аниқ сўзлардан, ҳарбий буйруқдай шиддатли, ҳис-ҳаяжонга ўрамай, лўнда "биз қилишимиз шарт", "биз мажбурмиз" дегандай иборалар билан олиб борсангиз бу ҳолда ҳам суҳбатдошингизни, аудиторияни тезда ўзингиздан "қочирасиз", бундай маърузани кишилар узоқ тингламайди.

Аммо сўзингизни биз юқорида айтган 15 дақиқалик руҳий ҳолатдан келиб чиқиб ўта кулгили мавзулар билан "булғаб" турсангиз ҳам яхши натижага эришмайсиз. Мавзу ўзгариши, мавзудан четга чиқмаган ҳолда олиб борилиши лозим. Бу деган сўз мавзунинг асл йўналиши ва унинг исботлари бўлиши керак.



Бироқ, асосий мавзунинг иккинчи даражали томонларига қараб "ўтлаб" кетманг. Бундай ҳолда эшитувчини асосий мавзуга қайтаришингиз қийин кечади. Чунки умумий мақсадни, суҳбат мавзусининг асосий йўналишини тушунувчилардан кўра, унинг қисмларини тушунувчилар кўпроқ бўлади.

Бундай суҳбат давомида ўзингиз тўғрингизда гапирмасликка ҳаракат қилинг, чунки руҳшуносларнинг кузатишича, бир суҳбат давомида кимки 7 мартагача "мен" деса, бундай одамнинг суҳбатидан эшитувчилар қочишга ҳаракат қилар экан.

Шу билан бирга, зарур бўлмаган ҳолда ортиқча рақамлар билан суҳбатдошингизнинг жиғига тегманг. Рақамлар, айниқса улар солиштирма бўлмаса ҳаммага ҳам ёқавермайди.

Юқорида келтирилган суҳбат бандларига амал қилинса, суҳбатдошнинг диққат-эътибори бутун мулоқот давомида сизнинг таъсир доирангизда ушлаб турилади. Бунинг учун сиз нафақат ўз нутқингиз, хатти-ҳаракатингиз ва бошқаларга эътибор беришингиз, иккинчи томондан зийраклик билан суҳбатдошингизнинг хулқ-атвори, кўз-нигоҳи, қад тутиш мароми ва бошқаларни кузатиб боришингиз зарур. Яъни Қобусномада келтирилгандай "ҳар кишига гапирмоқчи бўлсанг, қарагилки, у сенинг сўзларингга харидорми?"

Суҳбатдошнинг эътибори икки хил йўналишда ўзгариши мумкин:

1. Ташқи муҳитдаги нарсалар, шовқин ва бошқалар.

2. Ва ички сабаблар. Яъни объектнинг хоҳламаслиги, унинг учун мавзунинг қизиқарли эмаслиги, субъект, таъсирчининг камчиликлари: бузуқ нутқ, мақсадни айтолмаслик, шунга ўхшашлар ва шахслараро алоқанинг ёмонлиги.

Суҳбатдошлар бир-бирини суҳбат мавзусига қизиқтирган тақдирда ҳам, ҳали кўринмас тўсиқлар бутунлай бартараф бўлмайди. Айтайлик, таъсирчи, яъни субъект сўзини, фикрини ниҳоятда зерикарли, ширасиз чалачулпа ва бир оҳангда олиб бормоқда дейлик. Бу ҳолда суҳбатдош эшитувчи ўз ўйхаёллари билан банд бўла бошлайди, яъни таъсирчининг гапиришдан тўхташини ва шу пайтда ўзи гапира бошлашини, саволлар беришни мўлжаллай бошлайди. Қарабсизки, субъект суҳбатнинг биринчи сусайган жойидан объектга айланади.

Шундай бўлмаслиги учун субъект мулоқот давомида объектнинг эътиборини ўзида ушлаб туриши учун биринчи ўринда мавзунинг аҳамиятига қараб мақсадга эришса, қўшимча восита сифатида оҳанг, яъни мавзуни объектга етказиш воситасини ўзгартириш орқали, товушини бир кўтариб, бир пасайтириши, оҳанг ширасини, ҳиссиётни орттириш билан ҳам қўшимча ютуққа эришиши мумкин. Булар ҳам объект эътиборини ушлаб туриш воситалари сифатида яхши натижа бериши илмий жиҳатдан тасдиқланган.

Яна бир гуруҳ эътиборни ушлаб туриш усуллари — бу объектнинг диққатини тез-тез "қитиқлаб" мавзунинг асосий томонларига қайтиш. Бу ўринда "эътибор беринг", "атайлаб таъкидламоқчиман" каби сўзлар яхши натижа беради.

Айтиш керакки, суҳбат давомида суҳбатдошнинг фикрини, диққат-эътиборини ташкил қилиб туриш, уни зарур йўналишда "етаклаш" бу ҳам алоҳида санъат бўлиб суҳбатдошларнинг иккала томонига ҳам зарур. Шунинг учун бу санъатни, айниқса, таъсирчанликни эгаллаш ўта зарур. Биз бу маҳоратни қанча яхши эгаллар эканмиз, суҳбат давомида ўз мақсадимизга шунчалик енгил эришамиз.

**(Давоми бор.)**

**Маҳмуд ЙЎЛДОШЕВ,**
**психология фанлари номзоди**

## ЁШЛАРНИНГ ТАЯНЧИ

*Сурхондарё вилояти «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати кенгаши томонидан вилоят ёшларини бирлаштириш, замонавий билимларни ўзлаштиришда уларга ҳар томонлама ёрдамлашишга қаратилган кўпгина тадбир ва семинар машғулотлари ўтказилмоқда.*

*Мамлакатимизда ёш авлодни жисмонан ва маънавий жиҳатдан баркамол бўлиб вояга етишини таъминлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Зеро, улар эртанги кун яратувчилари. Тараққиётга эришишда ёшлар фаолияти муҳим аҳамият касб этади. Шундай экан, уларни тарбиялашда ёшлар ташкилоти зиммасида ҳам масъулиятли вазифалар мавжуд. Шуни тўғри англаган «Камолот» ёшлар ижтимоий ҳаракати, унинг ҳомийлигидаги «Камалак» болалар ташкилоти томонидан вилоятда қатор амалий ишлар бажарилаяпти. Вилоят аҳолисининг қарийб 60 фоизини ёшлар ташкил қилади.*

*«Камалак» болалар ташкилотининг мақсад ва вазифасини рўёбга чиқаришда бевосита иштирок этувчи сардорлар кенгаши фаолият кўрсатмоқда. Ташкилотнинг мақсад ва интилишларига хайрихоҳ ёшларни аъзоликка қабул қилиш, белгиланган асосий тамойилларни ҳаётга татбиқ этиш каби вазифаларни адо этишда фаоллик кўрсатаётган сардорлар иштирокида ўқув семинари ташкил этилди. Унда ёшлар билан ишлаш, уларнинг бўш вақтларини сермазмун ўтказишларига кўмаклашиш, ёш авлоднинг билим ва салоҳиятини ошириш жараёнида сардорлар зиммасидаги вазифалар муҳокама қилинди.*

## «ФАРЗАНД ТАРБИЯСИ — МАЪНАВИЯТ БЕЛБОҒИ»

*Тошкентдаги Ўзбекистон Миллий боғида «Фарзанд тарбияси — маънавият белбоғи» мавзуида бадиий-мусиқий тадбир ўтказилди.*

*Тадбирда Маданият ишлари вазирлиги, Халқ ижодиёти ва маданий-маърифий ишлар республика илмий-услубий маркази, Тошкент шаҳар оқсоқоллар кенгаши ва «Маҳалла» хайрия жамғармаси, республика Таълим маркази вакиллари иштирок этишди.*

*Ёшлар тарбияси ҳар бир миллат тарихида даврлар мобайнида авлоддан-авлодга ўтиб келаётган ўзига хос бир анъанадир. Ҳар бир халқ ўз келажак тақдирини ўйласа, фарзандлар тарбиясига эътибор қаратмоғи керак. Чунки, миллат келажаги ёшлар қўлида.*

*Тошкент педагогика коллежи ўқувчилари, яъни бўлажак тарбиячилар мазкур тадбирнинг асосий иштирокчилари бўлишди. Тадбирда бугунги кунда ўзини-ўзи бошқариш органи бўлган маҳаллаларнинг ёшлар тарбиясида тутган ўрни, бу борада жойларда амалга оширилаётган ишлар ҳақида тўхталиб ўтилди.*

**«Туркистон-пресс»**

# МУТАХАССИС ТАЙЁРЛАШ: МУАММОЛАР ЕЧИМ КУТМОҚДА

**(Давоми. Боши 1-бетда)**

Ишчи кучи оқимининг миқдор кўрсаткичларига тааллуқли яна бир муаммо ЎМКҲТ тизими битирувчилари миқдорининг бозордаги ишчи кучига бўлган талабга мос келиш ёки келмаслигидир. Бу муаммо ҳаётда битирувчиларнинг ишга жойлашиш-жойлашмаслиги кўринишида намоён бўлади. Ушбу муаммонинг икки жиҳати бор. Биринчиси — меҳнат бозоридаги ишчи кучига бўлган умумий талабнинг ўзгарувчанлиги ва ўтиш даврида унинг аҳоли сонининг ўсишидан (яъни ишчи кучининг ўсишидан) орқада қолишидир. Бу объектив ҳодиса бўлиб, ЎМКҲТ тизими (ўз навбатида таълим муассасалари) бу жараёнга таъсир қила олмайди. Айниқса, ҳудудларда бу жараён жуда ўзгарувчан бўлади. Масалан, ҳудудда битта йирикроқ корхонанинг очилиши ёки ёпилиши бу ердаги ишчи кучига бўлган талабнинг кескин ортиши ёки камайишига сабаб бўлиши мумкин. Бу эса ўз навбатида, корхона йўналишидаги касблар бўйича ишчи кучи етишмовчилиги ёки ортиқча ишчи кучининг пайдо бўлишига олиб келади. Таълим муассасалари бу ҳодисани, албатта, ҳисобга олиши керак.

Муаммонинг иккинчи жиҳати шундан иборатки, ишчи кучига бўлган умумий талаб турли таркибий қисмлардан ташкил топган. Бу таркибий қисмлар меҳнат бозоридаги айни бир ихтисос бўйича ишчи кучига бўлган алоҳида талаб миқдорини ифодалайди. Яъни, у меҳнат бозорида менежерга талаб қанча, маркетологга ёки металлга ишлов берувчи токарга талаб қанча экани билан ифодаланади. ЎМКҲТ муассасалари ўз фаолиятларини айнан ўша таркибий қисмларга қараб қуришлари керак. Бунинг учун илм масканлари меҳнат бозори конъюнктурасини доимий ўрганиб боришлари, бозордаги алоҳида касб-ҳунарларга амалдаги ва истиқболдаги талаб асосида ўз тайёрлов йўналишларига тегишли ўзгартиришларни киритиб боришлари керак бўлади. Айтмоқчимизки, илм масканлари ҳозиргига нисбатан универсалроқ, кўпқирралироқ бўлиши керак. Бунинг учун эса, фикримизча, таълим муассасаларига тайёрлов йўналишларини асосли равишда ўзгартириб бориш учун тегишли эркинлик берилиши керак.

Бугунги кунда жуда залворли ва мураккаб масалалардан бири таълим тизимининг меҳнат бозоридаги ишчи кучи сифат кўрсаткичларига бўлган талабга жавоб бериш масаласидир. Бу таълим муассасаси тайёрлаган мутахассислар барча талабларга жавоб бериши керак, деганидир. Бунинг учун бир қанча мустақил ва ўзаро боғлиқликдаги масалалар ҳал қилиниши керак.

Энг аввало, таълим муассасаси ўз тайёрлов йўналишлари бўйича етарли моддий-техникавий базага эга бўлмоғи керак.

Сўнгги йилларда кўплаб янги илм масканларининг қурилиши, реконструкция қилиниши ва замонавий асбоб-ускуналар билан таъминланиб борилаётгани ушбу масала республика ҳукуматининг назорати остидалигини кўрсатади. Вақти келиб, бу масала ўз ечимини тўлиқ топади.

Аммо, илм масканларида умумтаълим фанларини ўқитиш, айрим касбларни ўргатиш, масалан, автомобил, транспорт, алоқа, металларга ишлов бериш ва шу кабилар бўйича етарлича моддий-техникавий база яратилгани ҳолда ижтимоий-иқтисодий касбларни ўргатиш бўйича махсус моддий-техникавий база яратиш устида сезиларли ишлар қилинмаяпти.

Бизнинг назаримизда, биринчи галда ҳар бир тайёрлов йўналиши бўйича махсус хоналар қандай бўлиши, улар қандай жиҳозлар билан таъминланиши бўйича меъёрий талаблар ишлаб чиқилиши керак. Масалан, банк иши йўналиши бўйича замонавий ўқув техника воситалари билан жиҳозланган ўқув хонаси, банк операцияларини амалда кўрсатиш учун "банк амалиёти" хонаси бўлиши, замонавий электрон ҳисоблаш машиналари, ташкилий техника воситалари ва дастурий таъминот билан таъминланиши керак. Бу йўналишда мутахассис тайёрловчи илм масканида банкнинг махсус шахобчасини ташкил этиш ҳам мутахассис тайёрлаш сифатига ижобий таъсир кўрсатади. Яқиндагина пойтахтимизда Тошкент банк коллежининг ишга туширилиши ана шу фикрларимиз далилидир.

Иккинчидан, аниқ йўналиш бўйича таълимни амалга оширувчи илмий педагогик салоҳият шакллантирилиши ва тинимсиз ривожлантириб борилиши зарур. Бу борада таълим муассасаларида бир қатор муаммолар мавжуд:

Энг аввало, шуни алоҳида таъкидлаб ўтиш жоизки, ЎМКҲТ учун ўқитувчилар ва муҳандис-педагоглар тайёрлашда жиддий муаммолар бор. Жамиятда ўқитувчи, мураббийлар мавқеини кўтариш масаласига жиддий эътибор қаратиш керак. Педагогика ва муҳандислик-педагогика олий ўқув юртлари фаолиятини кузатар эканмиз, қуйидаги манзарани кўришимиз мумкин: бу ўқув юртларига кириш баллари масалан, ҳуқуқшунослик, иқтисодиёт соҳаларига кириш балларидан сезиларли даражада паст, яъни бу соҳада олий таълим нисбатан паст билимга эга бўлган ёшларни қабул қилиб, таъбир жоиз бўлса "ўртамиёна" педагог ва муҳандис-педагог тайёрлаяпти. Бу ходимлар эса келажакда таълим тизимида ёш авлод таълим-тарбияси билан шуғулланади. Ҳаёт шуни кўрсатмоқдаки, кўп ҳолларда олий ўқув юртини битириб келган ёш мутахассислар мактаб, лицей ёки коллеждаги таълим-тарбия ишига тайёр эмас. Шунинг учун ЎМКҲТ муассасаларида стажёр-ўқитувчи лавозимини ташкил этиш ҳамда ёш мутахассисларни тарбия ишига ушбу лавозим орқали тайёрлашни йўлга қўйиш керак, деб ўйлаймиз. Бу масалада ОЎМТ вазирлиги ва молиявий муассасалар амалий ёрдам беришлари зарур. Чунки, илм маскани имкониятлари даражасида амалга оширилаётган тадбир — ёш мутахассисни юқори малакага эга бўлган мураббийларга бириктириш тажрибаси бугунги кунда етарли даражада ижобий натижалар бермаяпти.

Ҳозирги пайтда кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш масаласига ҳам жиддий эътибор бериш зарур. Ўқитувчи етишмаётган соҳаларга бошқа соҳада ишлаётган ҳамда етарлича лаёқати бўлган кадрларни қайта тайёрлаш нисбатан осонроқ, камхаржроқ тадбирдир. ОЎМТ вазирлигининг амалиётчи-психологлар тайёрлаш тажрибаси бунга яққол мисол бўла олади. Бошқа ихтисосликлар бўйича ҳам бу тажрибани қўллаш мумкин.

Ўқитувчи-мураббийлар малакасини ошириш масаласи сўнгги йилларда жиддий кўтарилмоқда. Тан олиш керак, жойларда малака ошириш даврига қўшимча меҳнат таътили сифатида муносабатда бўлиш ҳоллари ҳам мавжуд. Бу борада йўл қўйилаётган камчилик малака ошириш жараёнининг марказлашган ҳолда ҳудудий бошқармалар томонидан директив равишда бошқарилаётганлигидандир. Бу масала бевосита илм маскани томонидан режалаштирилиши ва амалга оширилиши керак. Кўп ҳолларда эндигина олий ўқув юртини битириб келган, бошқа ишдан янгидан ўтган ёки малака ошириш муддати келмаган ўқитувчиларни малака оширишга юбориш тўғрисида ҳудудий бошқарма буйруқларини оламиз. Педагогик фаолиятга янгидан киришган ёш мутахассисларга малака ошириш эмас, балки стажировкадан ўтиш муҳимроқ. Чунки, ёш мутахассисга ҳали йўқ малакани ошириш масаласини қўйиш, бизнинг назаримизда, нотўғри бўлади. Шу боис педагогик фао-лиятини янгидан бошлаган кадрларни стажировкадан ўтказиш масаласини кўриб чиқиш керак. Амалдаги малака ошириш дастурлари эса стажировка учун мос келмайди.

Яна бир муаммо: ЎМКҲТ муассасаларида илмий даражага эга бўлган кадрлар сони кам. Соҳага янги кириб келаётган ёшларнинг кўпчилиги бакалавр даражасига эга. Малака ошириш соҳа бўйича маълум тажрибага эга бўлганлар учун мўлжалланади ва махсус курсларда ҳамда белгиланган ўқув юртларида амалга оширилади. Стажировкани эса, махсус режа асосида илм масканининг ўзида ёки йўналиши мос келадиган исталган олий ва ўрта махсус таълим муассасаларида амалга ошириш мумкин. Бу даража эса илм масканида дарс бериш учун етарли бўлса-да, илмий даража ёки юқори малака тоифасини олиш учун етарли эмас. Шунинг учун ЎМКҲТ муассасаларида фан магистрлари, фан номзодлари ва докторлар тайёрлашга эътиборни кучайтириш керак. Бунинг учун ОЎМТ вазирлиги касб-ҳунар коллежларида ишлаётган ва илмий-тадқиқот ишларига лаёқати ҳамда хоҳиши бўлган шахслар учун ОЎЮ магистратураси ва аспирантурасига имтиёзли ўринлар ажратиши айни муддао бўларди.

ЎМКҲТ муассасаларининг ўзлари илмий-тадқиқот фаолиятини йўлга қўйиши ва бу фаолиятнинг ишлаб чиқариш ва ижтимоий ҳаётнинг долзарб йўналишларига қаратилиши бир томондан ўша муаммоларнинг қайсидир даражада ҳал қилинишига олиб келса, иккинчи томондан, ўқитувчиларнинг илм масканида ишлаб чиқаришдан ажралмаган ҳолда илмий иш билан шуғулланиши ва илмий даража олишига сабаб бўлади. Шунинг учун ЎМКҲТ муассасаларида худди олий ўқув юртларидаги каби илмий бўлимларни ташкил қилиш ва илмий-тадқиқот ишларини йўлга қўйиш долзарб масалалардан бири, деб айтишимиз мумкин.

Учинчидан, ўқув жараёнининг ахборот таъминотини яхшилаш масаласига алоҳида эътибор қаратилиши керак. Бу ўз навбатида қуйидаги масалаларни ўз ичига олади:

1. Ўқувчиларни фанлар бўйича дарсликлар, ўқув қўлланмалари, ўқув ва компьютер дастурлари билан таъминлашни кучайтириш.

Бу муаммо ҳозирги кунда анчагина жиддий аҳамият касб этмоқда. Чунки

*Taklif va mulohazalar*

ўтиш давридаги молиявий қийинчиликлар сабаб айрим ота-оналар фарзандларини зарур адабиётлар билан таъминлаб беролмаяптилар. ЎМКҲТ тизими эса ўқувчиларнинг 15 фоизини адабиёт билан таъминлаш мажбуриятини олган. Бу борадаги етишмовчиликни ҳал қилишнинг қуйидаги йўлларини амалга ошириш мумкин:

— Илм маскани молиявий имкониятлари ва хомийлар ёрдамида кутубхона фондини кўпайтириб бориш.

— Адабиётларнинг компьютер версияларини яратиш ва амалдаги компьютер залларини улар билан таъминлаш.

— Ўқитувчилар томонидан дарсликлар, ўқув қўлланмалари ва маъруза матнлари тайёрлашни кучайтириш ва кутубхона ҳамда ўқув залларини улар билан таъминлаш.

— Ҳомийлар ва ота-оналар маблағлари ҳисобига адабиётларни умумий ўрта таълим мактаблари каби ижара усулида ёки гуруҳ-гуруҳ бўлиб сотиб олишни йўлга қўйиш (масалан 5 кишига 1 китоб) ва бошқалар.

2. Ўқув залларини вақтли матбуот ва ихтисос йўналишидаги махсус газета ва журналлар билан таъминлашни кучайтириш зарур. Бу ўқувчиларнинг ижтимоий-фойдали меҳнат, қишлоқ хўжалик ишларига жалб қилишда ишлаб топган маблағлари, ҳомийлик маблағлари ҳисобига обуна қилиш йўли билан амалга оширилиши мумкин.

3. Илм масканида Интернет клублари ташкил қилиш ва ундан умумий фойдаланиш имкониятларини яратиш. Бунинг учун, албатта, ОЎМТ вазирлиги ёки донор ташкилотлар ёрдамида ёки таълим муассасаси молиявий имкониятлари доирасида компьютерлар сотиб олиш ва халқаро ахборот тизимига уланиш керак бўлади.

4. Таълим муассасасида ўқувчиларнинг билим олишини рағбатлантириш масаласига жиддий эътибор берилиши керак. Чунки, индивид сифатида ҳар бир ўқувчи алоҳида эътиборга молик. Унинг ҳар бир хатти-ҳаракати ўқитувчи-мураббийлар томонидан ўз баҳосини олиши ва у доимо таълим берувчиларнинг диққат-эътибори марказида турганлигини ҳис қилиб туриши керак. Бу йўналишда қуйидаги механизмларни ишга солиш мумкин:

Аъло ўқиши, жамоатчилик ишларидаги иштироки ёки намунали хулқи билан ажралиб турган ўқувчиларга тантанали йиғилишларда раҳматномалар эълон қилиш, мақтов ёрлиқлари топшириш, ўқувчиларнинг ота-оналарига, яшаш жойи — маҳалла фуқаролар йиғинларига, ўқиган мактабига ташаккурномалар юбориш, ўқувчиларнинг алоҳида ютуқлари тўғрисида илм маскани газетасида, маҳаллий ва марказий матбуотда, телевидение ва радиода чиқишлар уюштириш, илм масканининг бюджетдан ташқари маблағлари, ҳомий ташкилотлар, фуқаролар ажратмалари асосида махсус стипендиялар ташкил қилиш ва бошқалар.

Албатта, юқорида ЎМКҲТ тизимидаги айрим муаммоларгина тилга олинди ва уларни ҳал қилиш таклифлари айтилди, холос. Шундай бўлса-да, республикамизнинг ёркин келажаги учун бўлғуси кадрларни тайёрлаш жараёни нақадар катта аҳамиятга эга эканини ҳисобга олсак, бу борадаги кичик бўлса-да олға силжиш халқимизнинг порлоқ келажаги сари қўйилган залворли қадам сифатида баҳоланиши мумкин.

**Олимжон САРИМСОҚОВ,**
**Учқўрғон иқтисодиёт коллежи директори,**
**техника фанлари номзоди, доцент**




**1-расм.**
**Ўзбекистон Республикаси узлуксиз таълим тизими чизмаси.**

# САНЪАТКОРГА ИСТЕЪДОД КЕРАК

*Milliy dastur amalda*

***«Истеъдод ҳамма соҳада ҳам керак», дея эътироз билдиришингиз мумкин ва бу эътирозни тўғри қабул қилиш лозим. Истеъдод эгаси бўлмаган мутахассис ҳам масъул вазифани уддалай олар, бироқ фарқли томони шундаки, санъат соҳаси ижодкордан ўз касбига доимий ижодий ёндашишдан ташқари, Оллоҳ томонидан ато этилган истеъдодни ҳам талаб этади. Етук санъаткорларни етказиб бераётган даргоҳлардан бири, Маннон Уйғур номидаги Тошкент давлат санъат институти ректори, «Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими» Бахтиёр Сайфуллаев билан мулоқотимизда истеъдодни кашф этишнинг машаққатларини акс эттиришга интилдик.***

— Истеъдод деганда бирор соҳадаги зўр қобилият, юксак даражадаги лаёқат назарда тутилади. Институтимизда ўқишга эса истеъдодли ва ҳар томонлама қобилиятли талабалар сараланиши лозим. Ҳар йили ўтказиладиган қабул синовлари олдидан биринчи галда кирувчиларнинг истеъдодларига эътибор қаратилади, истеъдодни эса бирданига аниқлаб бўлмайди. Шунинг учун ижодий имтиҳон давомида профессор-ўқитувчилар, таниқли актёр ва режиссёрлар абитуриентни ҳар томонлама ўрганишга ҳаракат қиладилар. Айниқса, абитуриентнинг ролга киришиш лаёқати, тасаввурининг кенглиги, фикрлаш қобилияти синчиклаб текширилади. Талабаликка даъвогарлар ижодий имтиҳонлардан икки ҳафта илгари бошланадиган консультацияларда ўз истеъдодларини намойиш этиш учун пухта тайёргарлик кўришади. Ижодий имтиҳонлар ошкора равишда ўтказилиб, хоналарга камералар ўрнатилади, институт ҳовлисига жойлаштирилган мониторлар орқали эса ижро этилаётган шеър, монолог ва масалларни навбатда турган абитуриентлар ва ота-оналар кузатиб борадилар. Абитуриент ижодий имтиҳондан энг юқори—111 балл тўпласа, анъанавий тест имтиҳонидан 2 та фан йўналиши бўйича тўплаган балида бу натижа қўшиб ҳисобланади. Бундан келиб чиқадики, фақат билим туфайлигина санъаткор бўлиш мушкул, абитуриент ўзидаги истеъдод ва қобилиятни ҳам шакллантира олган бўлиши зарур.

Илк синовларда учқунлаган истеъдодни ривожлантириш эса талабанинг институтдаги саъй-ҳаракатлари билан боғланиб кетади. Муҳими, инсон ўзидаги истеъдодни намоён эта олиши лозим. Ўқитувчи талабадаги истеъдодни ривожлантиради, у ҳеч қачон талабанинг ўзида бўлмаган иқтидорни шакллантира олмайди. Талабаларнинг ижодий фикрлаш қобилиятини, эстетик ҳис-туйғуларини ривожлантириш керак. Актёрларни оладиган бўлсак, ижро этаётган қаҳрамони образини кўз олдига келтира олиши ва худди ёш бола сингари ўзи ўйнаётган ролга ишониши керак. Акс ҳолда у томошабинларни асло ишонтира олмайди. Кўпинча бошловчи санъаткорлар ижодиёт соҳасидаги илк қадамларини ёқтирган машҳур актёрига тақлид қилишдан бошлашини кузатамиз. Хусусан, ўзбек театри тарихида чуқур из қолдирган Аброр Ҳидоятов, Шукур Бурҳонов, Сора Эшонтўраева, Наби Раҳимов каби машҳур актёрлар яратиб кетган ажойиб образлар шулар жумласидандир.

Қобилиятнинг шаклланиши таълим-тарбия билан чамбарчас боғлиқ. Истеъдод қўшимча мукаммал таълим билан уйғунлашгандагина самарали натижа беради. Институтда ташкиллаштирилган ихтисослик дарслари, аввало, талабанинг ички сезиш қобилиятини ривожлантириш, тасаввурини фаоллаштириш, кузатувчанлик ва зийраклигини шакллантиришни кўзда тутади. Чунки маҳорат, жумладан, актёрлик маҳорати, режиссёрлик маҳорати шу асосда вужудга келади. Институт талабалари Шуҳрат Аббосов, Хайрулла Саъдиев, Лола Хўжаева, Арсен Исмоилов, Мунаввар Абдуллаева каби бир қатор етук мутахассислардан маҳорат ва саҳна ҳаракати сирларини ўрганадилар. Биринчи босқич талабаларининг ихтисослик дарслари тўғри талаффуз қилишдан, саҳнада ўзини эркин тутишга кўниктиришдан бошланади. Шунинг учун улар турли табуюмсиз машқлар ва этюдлар (тугалланган кичик саҳна кўриниши) билан машғул бўладилар. Фақат иккинчи курсдагина пьесалардан парчалар танланиб, спектакллардан кўринишлар тайёрланади. Бу жараёнларда бўлажак актёрларнинг образга кириш қобилияти аниқланади. Юқори курс талабалари эса имкониятларига қараб спектакллар саҳналаштиришади. Уларнинг кўпчилиги пойтахт театрларида фаолият юритиб, олган билимларини мустаҳкамлайдилар. Шу билан бирга саҳнада тажрибали, таниқли актёрлар билан ёнма-ён ишлайдилар, улардан сабоқ олишади. Талабаларнинг тўрт йиллик ўқиш муддати диплом спектакли билан якунланади. Давлат аттестация комиссияси ушбу спектаклларни таҳлил қиладилар ҳамда битирувчилар шунга монанд баҳоланади. Кино операторлари ва режиссёрлар гуруҳи талабалари эса ҳужжатли ва қисқа метражли фильмлар тайёрлашлари керак. Юқори кўрсаткичга эга бўлган саҳна асарлари республикамизнинг етакчи театрларида намойиш этилади.

Ижодий истеъдод ўз имкониятларини амалга ошириш учун шарт-шароитлар яратиб берилишини талаб қилади. Шунинг учун институтда ижод қилиш учун зарурий имкониятлар яратишга ҳаракат қилинмоқда. Жумладан, турли маҳорат дарслари ўтилиши учун ижодхоналар яратилган. Ўқув театри мавжуд бўлиб, институт биноси, талабалар уйи қайта таъмирланган. Талабалар орасида ва институтлараро ўтказиладиган кўрик-танловлар ҳам истеъдодни шакллантиришда, ўзаро фикр алмашиб, ўрганганларини татбиқ этишда муҳим аҳамиятга эга. «Талаба ёшлар ижодиёти IV кўрик фестивали»да ҳам бир йиллик ишлар сарҳисоб қилиниб, энг яхши асарлар танланди ва 14 номинация бўйича ғолиблар аниқланди. Ушбу фестивалда «Йилнинг энг яхши спектакли» номинациясига Шермат Ҳайитбоев режиссёрлигидаги Т.Муҳаммаднинг «Аждарҳо» спектакли муносиб топилди. Шулар орасидан «Йилнинг энг яхши эркак роли»га Софоклнинг «Шоҳ Эдип» асаридаги Эдип образини яратгани учун 4-курс талабаси Авазхўжа Қодиров, «Йилнинг энг яхши аёл роли»га эса Иокаста образи учун Камола Умархўжаевалар ғолиб деб эълон қилинди. «Драматургия соҳасидаги самарали изланишлари учун» номинациясига «Чавандоз» саҳна асари учун «Драматургия» бўлими талабаси Нилуфар Эргашева ғолибликни қўлга киритди. Телевидение режиссёрлиги бўлимини тамомлаган Ботир Маматиллаев шу йиллар орасидаги ижодий изланишлари билан бошқалардан ажралиб туради. У Олмаота шаҳрида ўтказилган халқаро талаба-ёшлар кинофестивали совриндори бўлди.

Институт жамоаси орасида турли авлод вакиллари фаолият юритаётир ва ўз ўрнида уларнинг тажрибасини ўрганишга алоҳида эътибор берилмоқда. Жумладан, театршунос талабалар катта устозларга биркитилиб, уларнинг актёрлик, режиссёрлик маҳорати, дарс олиб бориш услубини ўрганиш ва ёзиб олиш вазифаси топширилмоқда. Устозлар учун тажрибаларини тўплаб, китоб ҳолида чиқаришлари учун имконият яратилиб, кичик босмахона ташкил этилган. Қисқа муддатда таниқли актёр ва режиссёр Турғун Азизовнинг «Менинг режиссёрлик ишларим», Маҳкам Исроиловнинг «Монолог устида ишлаш», Марям Ашурованинг «Қўғирчоқ театри санъати» каби бир қатор китоблари чоп этилди. Институтимизнинг илмий-ижодий салоҳияти ниҳоятда катта бўлиб, ўндан зиёд фан доктори, йигирмадан ортиқ фан номзодлари, кўплаб йирик санъат арбоблари, таниқли режиссёр, актёр ва бошқа мутахассислар ишлаб келмоқдалар. Институтдаги ўқиш жараёнига театр, кино, телевидение соҳасидаги етакчи олим ва мутахассислар жалб қилинган.

Талабаларнинг ижодий фикрлашини ривожлантириш, ҳар бир нарса-ҳодисага ижодий кўз билан қарашга ўргатиш, ҳаётдаги воқеага теран кўз билан қараш, уларнинг маҳоратини шакллантириш асосий таълим мезонидир. Чунки улар долзарб ва одамларни қизиқтира оладиган мавзуларни танлай билиши, ифода қилиш воситалари устида ишлай олиши керак. Аудиторияга саҳна асарини тезкорлик билан эмас, моҳирона ижро билан етказиб бериш учун курашмоқ даркор. Дарҳақиқат, санъат — мўъжиза. У инсоннинг маънавий дунёсини бойитади, юракларга гоҳ ижобий, гоҳ салбий туйғу уларни олиб киради. Институт педагогик жамоасининг саъй-ҳаракатлари самараси ўлароқ, келажакда санъат оламида янги юлдузлар порлай бошласа ажаб эмас.

**Азиз НОРҚУЛОВ**
**суҳбатлашди.**

# "ТИЛ ИЛМИНИНГ ШОИРИ"

*Ta'lim fidoyilari*

Олий ўқув юртларида шундай муаллимлар борки, улар дарсга кирганида санъаткорга айланади: ташқарида мулойим, оддий, камгап кўринган бу ўқитувчини чуқур илмий фикрларни шижоат билан моҳирона услубда, ҳаётий мисоллар орқали тушунтираётганини кўриб танимай қоласиз. Хаёлингизда аудитория бир кемага айланадию, капитан уни равон бошқариб, манзилга томон элтмоқда. "Бир дарс — бир тугал асарга тенг" деган фикрга тўлиқ ишонасиз: дарснинг мазмунини тўлиқ ўзлаштириб, қониқиб, янги фикрий эҳтирослар билан чиқасиз... Олий мактаб ўқитувчисининг қадр-қимматини, ҳурматини оширадиган белгиларга дарснинг етуклигидан ташқари, илмий маҳсулининг қиммати ва мураббийлик хислатлари ҳам киради. Одатда, бақувват илмий маҳсулли олимгина моҳир ўқитувчи бўла олади, бундай педагог ажойиб мураббийлик қобилиятига ҳам эга бўлади. Шундайлардан бири Тошкент давлат юридик институтининг кафедра мудири, профессор Карим Назаровдир.

Карим Назаровнинг ҳаёт йўли халқ таълими ва олий таълим билан узвий боғлиқдир. У ТошДУнинг филология факультетини тугатгач, 1955 йилда Сурхондарё вилоятининг Узун туманидаги 1-мактабда тил ва адабиёт фанидан дарс бергандан сўнг шу тумандаги 4-мактабга директор этиб тайинланган. 1958-1961 йилларда ТошДУнинг ўзбек тилшунослиги кафедрасида профессор Аюб Ғуломов раҳбарлигида "Ўзбек шеваларида эгалик қўшимчалари" мавзусида илмий тадқиқот ишини олиб борди ва муваффақиятли ҳимоя қилди. ТошДУ филология факультети ўзбек тилшунослиги кафедрасида ўқитувчи, катта ўқитувчи, доцент ва декан ўринбосари вазифаларида ишлаган, шу кафедранинг мудири бўлган. Унинг ўзбек тилшунослиги масалаларига, мактаб таълимини такомиллаштиришга оид мақолалари илм аҳлларининг, радио ва телевидение орқали чиқишлари эса ўз мазмундорлиги билан томошабинлар ва тингловчиларнинг эътиборини тортиб келмоқда. Ўзбек тилшунослиги фанини тадқиқ этишга талабалик йилларидаёқ киришган заҳматкаш олим ўтган давр мобайнида 140 дан ортиқ номда 100 босма табоқ ҳажмда илмий асарлар эълон қилди. Улар орасида учта монография, иккита дарслик, 9 та ўқув қўлланмаси, 5 та дастур ва бир қанча илмий-назарий ва илмий-методик мақолалар бор.

Карим Назаров кейинги йилларда "Ўзбек ёзма адабий тили муаммолари" мавзусида кўпгина ишларни амалга оширди, газета ва журналларда, илмий-амалий анжуманларда "Давлат тили тўғрисида"ги қонуннинг амалиёти ва она тили таълими муаммолари ҳақида кўпгина чиқишлар қилди ва амалий таклифлар ҳамда тавсиялар берди.

Олим ўз меҳнат фаолияти давомида кўплаб шогирдлар етиштирди. Унинг раҳбарлигида 13 киши номзодлик диссертацияларини ёқлади.

Ҳозир домла Тошкент давлат юридик институтида янги алифбо, оммавий ахборот воситалари тили, адабий тил жозибалари ва ўзбек тилида иш юритиш усуллари ҳақида талабаларга сабоқ бериб, "Ўзбек тили ва адабиёти" кафедрасини бошқариб келмоқдалар.

Карим Назаровнинг камтаринлиги, одамохунлиги, жамоат ишларидаги фаолияти ҳақида самимий фикрларни эшитиш мумкин. Жумладан, Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти ўқитувчиси Ориф Жумаев шундай дейди: "Мен университетда домланинг сабоқларини, аудиториялардаги қизиқарли маърузаларини эшитишга муяссар бўлган талабалардан бириман. Домла дарсларга доимо яхши кайфият ва катта тайёргарлик билан кириб келардилар. У кишининг дарсларини ҳаммамиз берилиб, қониқиш билан тинглардик.

Ишхона — пирхона дейилишида маъно кўп. Узоқ йиллар К.Назаров билан бирга ишлаган Ўзбекистонда хизмат кўрсатган фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Умарали Норматов домла ҳақида шундай дейди: "Каримжон билан деярли тенгдошмиз, қирқ йиллик қадрдонмиз... Ота-она, ёру биродарлар ҳурматини жойига қўйиш, катта оилага бош бўлиш, иш юритиш ва рўзғор тебратиш, умуман, ўзбекчилик, одамохунлик, тадбиркорлик бобида ҳам Каримжондан кўп нарса ўрганиш мумкин. Нотиқлик санъати бобида эса Каримжонга тенг келадиган тилшунослар бармоқ билан санарли. Ҳатто устоз Аюб ака унга тан бериб: "Карим — тил илмининг шоири", деганлари эсимда".

Устоз Карим Назаров барчанинг кўнглини топиб гаплаша оладиган, камтар, самимий, бағри кенг, меҳри дарё инсондир.

**Муҳаббат ҚУРБОНОВА,**
**Муҳаммаджон ҚОДИРОВ,**
**Толиб ЭНАЗАРОВ,**
**ЎзМУ Ўзбек тилшунослиги кафедраси ўқитувчилари**

## ЮКОСНИНГ РАҲБАРИ ҚАМОҚҚА ОЛИНДИ

**Россиянинг энг йирик, нефтни ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш борасида иш юритувчи компаниянинг раиси Михаил Ходорковский вақтинча қамоққа олинди. Россия прокуратурасининг санкциясига биноан, ЮКОСнинг раиси ўтган ҳафтанинг охирида Новосибирск аэропортида ушланди. Прокуратуранинг бундай ҳаракатлари Россия қимматли қоғозлар бозорига катта таъсир кўрсатди. Шахсан ЮКОС нефть компаниясининг акциялари 20 фоизга тушиб кетди ва ушбу компаниянинг ўзи 6 млрд доллар зарар кўрди. Жумладан, Россиянинг бошқа нефть компаниялари ҳам катта зарар кўришмоқда. Масалан, ЛУКОИЛ компаниясининг акциялари 11 фоизга, РАО ЕЭС компаниясининг акциялари 11 фоизга тушиб кетди.**



**Қимматли қоғозлар бозоридаги энг нуфузли компаниялар акцияларининг бу қадар тушиб кетиши мамлакат иқтисодиётига салбий таъсир кўрсатиши мумкин, деб таъкидламоқда соҳа мутахассислари.**

**Россия прокуратураси Михаил Ходорковскийни солиқларни тўлалигича тўламаганликда ва катта миқдордаги фирибгарликларда айбламоқда.**

## КАЛИФОРНИЯДА КУЧЛИ ЁНҒИНЛАР

**АҚШнинг Калифорния штатидаги кучли ёнғинлар натижасида 13 киши ҳаётдан кўз юмди ва 850 га яқин иншоотларга кучли шикаст етди. Охирги ахборотларга қараганда, аланга 277 гектар майдонга тарқалиб бормоқда.**

**Ёнғин ҳозирда 2 минг хонадонга хавф соляпти. Аҳоли тезлик билан ёнғин яқинлашиб келаётган жойлардан эвакуация қилинмоқда. Аланга билан Калифорния штатининг 7 минг ўт ўчирувчилари курашмоқда. Ёнғиннинг катта тезликда тарқалиши АҚШнинг Калифорния штатидаги ҳарбий базаларига таҳдид солиб турибди. Ҳарбий база ичида жойлашган диспетчерлик маркази ишчилари тезлик билан ўз жойларидан олиб чиқилмоқда.**




**Бундай ҳолат Калифорния штати самолётлари парвозига жиддий муаммолар туғдиряпти. Кучли тутун натижасида South West Airlines авиакомпанияси 152 рейсни тўхтатишга мажбур бўлди, деб хабар беради NBC News ахборот агентлиги.**

## БАҒДОДДА ЯНА ПОРТЛАШЛАР

**Ироқнинг пойтахти Бағдодда шу ҳафта кучли портлашлар содир этилди. Душанба кунининг ўзида шаҳарнинг турли жойларида 6 та портлаш кузатилди. Биринчи портлаш Бағдодда жойлашган "Халқаро қизил хоч" жамияти олдида содир этилди. Натижада 18 киши ҳалок бўлди ва 22 киши оғир тан жароҳати олишди.**

**Ироқ полиция маҳкамасининг хабар беришича, камикадзе эркак "тез ёрдам" машинасини портлатиб юборган. Бир неча сониядан сўнг соғлиқни сақлаш вазирлиги олдида, сўнгра эса Ироқ ишлаб чиқариш вазирлиги ёнида портлашлар уюштирилган. Яна бир неча сониялардан сўнг, Бағдоднинг икки полиция маҳкамаси олдида террористик хуружлар амалга оширилди. Ушбу портлашлар натижасида 11 киши ҳаётдан кўз юмган, дея хабар беради РИА "Новости".**




**АҚШ ҳарбийларининг ичида ҳам талофот кўрганлар бор.**

**Ироқнинг ички ишлар вазири ўринбосари Аҳмад Иброҳимнинг айтишича, портлашларни Саддам Ҳусайн уюштирган, деб хабар беради "Reuters" ахборот агентлиги.**

**Шаҳарда фавқулодда вазият эълон қилинган. Бундан бир кун аввал эса, Бағдоддаги "Ал-Рашид" меҳмонхонасига қарата ракеталар отилган. Шу пайтда меҳмонхонада АҚШнинг мудофаа вазири ўринбосари Пол Вульфовец бўлган. Натижада 17 киши ҳар хил даражадаги тан жароҳати олган. Пол Вульфовец жароҳатланмаган, деб хабар беради Бағдод полиция маҳкамаси.**

**Интернет хабарлари асосида**
**Сарвар ФАЙЗУЛЛАЕВ тайёрлади.**

*Talqin*

# ТИЛ ВА МАДАНИЯТ

Тил ҳар қандай маданиятнинг шакли ва муайян халқ тараққиётининг кўзгусидир. Тил ва маданият аслида икки хил ҳодиса бўлса-да, уларнинг бирини иккинчисидан ажратиб изоҳлаб бўлмайди.

Ўзбекистонда "Давлат тили тўғрисида"ги Қонун амалда бўлиб, юртимизда унинг мақоми юқори. Шунингдек, рус тили, инглиз, француз, испан, корейс ва бошқа ўнлаб тилларни ўрганиш имкониятлари юзага келди.

Биргина Ўзбекистон давлат Жаҳон тиллари университетида 22 та тил ўргатилади. Бундан ташқари, Республика миқёсида юзга яқин турли миллатлар истиқомат қилади. Уларнинг тил ва маданиятлари сақланиши ҳамда тараққиёти учун шароитлар яратилган.

Одатда турли миллат вакиллари бир-бири билан яқиндан танишиб алоқада бўлсалар, тил ва маданиятда умумий ва ибрат бўладиган томонлар тезда кўринади. Бир тилдан иккинчи тилга сўзлар ўтади. Бир маданият иккинчи маданият ҳисобига бойиб боради. Бошқа тиллардан сўз олиш ҳар қандай тилнинг бойиш воситасидир. Турли даврларда тиллар бир-бирига таъсир кўрсатиб келган. Хусусан, бизнес, спонсор, менежмент, маркетинг, консорциум, брокер, холдинг, консалтинг, компьютер, факс, дисплей (комльтер), сиди-плейер, файл каби сўзлар бозор иқтисодиёти шароитида нутқимизга кириб келиб, ўзбек тилини бойитди.

Маълумки, олий ўқув юртларининг филология факультетларида ўқув дастурига кўра, "Тилшуносликка кириш", "Умумий тилшунослик" фанлари ўқитилади. Бу фанлар она тили ва бошқа хорижий тилларни ўрганувчилар учун ҳам асосий фан сифатида ўргатилади. Сабаби, бу фаннинг мундарижасига диққат қиладиган бўлсак, ўтиладиган мавзуларнинг ҳар бири алоҳида ўрганиладиган тиллар билангина боғлиқ бўлмасдан, балки ер юзида мавжуд бўлган барча тилларнинг бажарадиган вазифалари, ўрни, аҳамияти, истиқболлари, бошқа тилларга таъсири ва ривожланиш омилларини ҳам қамраб олади. Шундай мавзулардан бири "Тил ва тафаккур", "Тил ва жамият", "Тил ва маданият"дир. Ҳозирги кунда социолингвистика деган алоҳида фан ҳам бўлиб, унда, асосан, юқорида номланган мавзулар чуқур таҳлил қилинади.

Тиллар типология тузилиши нуқтаи назардан катта ва кичик, кучли ва кучсиз, бой ва камбағал, деб ажратилмайди. Улар қурилишига кўра, ранг-барангliги, тил воситаларининг ўзига хослиги билан фарқланади, холос. Уларнинг тақдири, социал тарихи ва истиқболлари эса кескин фарқ қилади. Қанчалик аччиқ бўлмасин, тан олиш лозимки, тиллар орасидаги тенглик (социал жиҳатдан) мавжуд эмас. Америка тадқиқотчиларидан бири шундай деган эди: "Тиллар фақатгина Худо ва лингвист олдида тенглар". Мисол сифатида инглиз тили ва ўлиб бораётган хинду қабила тили қиёс қилинади.

Тиллар тузилиши жиҳатидан фарқланишини кишилар орасидаги антропологик-психологик фарқланишига кўра таққослаб кўриш мумкин. Унинг социолингвистик жиҳатдан фарқланиши эса гаплашувчиларнинг социал жиҳатдан келиб чиқиши ва мақоми, таълим мазмуни, турмуш тарзи, касби ва обрў-эътибори (жамиятдаги) каби белгилар билан боғлиқдир.

Социолингвистик маълумотларга таяниб, тилнинг алоқа салмоғи (ранг); ёзуви ва ёзма анъаналари; адабий тил нормаларининг даражаси ва уларнинг ифода этиш кодлари, тилнинг ҳуқуқий мақомга эга эканлиги; аҳоли томонидан тан олинган мақомга эга бўлиши; ўқув-педагогик мақомга ҳам эга бўлиши керак.

Жаҳонда энг кўп тарқалган тиллар рўйхатида хитой тили (975); инглиз тили (478), ҳинд тили (437), испан тили (392), рус тили (284), араб тили (225), бенгал (Индия, Бангладеш) тили (200), португал тили (184), малайзия-индонезия тили (160,1), япон тили (126), француз тили (125), немис тили (123), урду тили (122), панжоб тили (95), корейс тили (75), итальян тили (63), усмоний турк тили (Туркия)да (60 млн. ҳисобида) аҳоли сўзлашади.

Инглиз тили коммуникация ҳажмига кўра, турли мамлакатларда кенгроқ қўлланиб келмоқда. Бинобарин, унинг потенциал имкониятлари ҳам кучайган. Бу тил орқали жаҳоннинг 47 мамлакатида алоқа қилинади.

Башарият ўзаро алоқа боғлашда конкрет тиллардан фойдаланади ва улар хилма-хилдир. Буларга айтилган, эшитилган, ёзилган, нашр қилинган, ўқилган, телевизор ва киноэкран орқали талаффуз қилинган ва тингланган, радио, черков, саҳна орқали, мактаб синфларида, олий ўқув юрти аудиторияларида, эстрада саҳналарида, газета ва журналларнинг, китобларнинг тиражларида, кассета, диск, дискетлар, электрон почта ва компьютер тармоқларидаги матнлар киради.

Социолингвистикада давлатларнинг ўзаро алоқа боғлашида асосий вазифаларни бажаришига кўра тиллар "пирамида"сининг чўққисида 6 та жаҳон тиллари ўз ўрнига эга. БМТнинг расмий ва ишчи тиллари мақомига инглиз, араб, испан, хитой, рус, француз тиллари киради. Жаҳон тилларининг "клуби" таркиби ўзгарувчан бўлиб, Европа, Ўрта Ер денгизи, Яқин Шарқда биринчи жаҳон тили Юнон (грек) тили бўлган. Эллинизм даврида юнон тили Кичик Осиё ва Шимолий Африкага ҳам тарқалган.

"Тил ва маданият " тушунчаларига изоҳ берадиган бўлсак, маданият сўзи ҳам жамият тушунчаси билан бевосита боғлиқ ҳолда изоҳланади. Кишилик жамияти шаклланган даврдан бошлаб, маданият мазмуни ҳам ўз шакли ва мазмунига эга бўлган. Ҳозирги жамиятнинг тараққиёти маданиятнинг тараққиёт даражасини акс эттиради. Истеъдодли ёзувчи Ч.Айтматовнинг сўзи билан айтганда, ҳақиқий маданият ҳамиша ривожланиш жараёнида бўлади. У асрлардан асрларга узлуксиз давом этади. Фақат шунинг учун ҳам маданият тарихи мавжуддир. Антик давр олимлари эса маданият тушунчаси ҳақида юзлаб ва ҳаттоки минглларча изоҳлар беришган. Маданият сўзи кенг қамровли сўз бўлиб, тил ва маданият муносабатларининг нақадар кўп қиррали эканлигини тасаввур қилиш лозим.

Европа Кенгаши арман, озарбойжон, беларус тилларидан таржима қилиш учун маблағ топишини яқин кунларда ҳал эта олмайдиган кўринади. Шунинг учун МДҲ мамлакатлари билан бўладиган алоқаларда рус тилидан ишчи тил сифатида фойдаланилмоқда.

Америка ва Европанинг деярли кўпгина университетлари МДҲ тилларини ўрганмоқдалар. МДҲ давлатларининг қарорига кўра, Москва давлат лингвистик университети Ҳамдўстлик мамлакатларининг тил ва маданиятини ўрганувчи марказ базаси деб тан олинган. Ҳозир бу университетда литва, беларус, украин, арман тиллари ўқитилмоқда.

Ҳамдўстликка кирувчи уч давлатдагина рус тили давлат ва расмий мақомга эга бўлди. Беларуссияда давлат тили, Қирғизистон, Қозоғистон Республикаларида эса расмий тил сифатида қабул қилиниб, Конституцияда мустаҳкамланди.

Украина, Арманистон, Грузия, Молдова республикаларида рус тилига нисбатан кичик миллатлар алоқа тили сифатида қаралиб келинмоқда. Украинада эса бирорта олий ўқув юртида рус тилида билим берилмайди. Телевизор, радио орқали бериладиган кўрсатувлар асосан украин тилида олиб борилади. 2001 йил феврал ойидан бошлаб, Туркманистонда олий ўқув юртларида таълим фақат туркман тилида олиб борилмоқда. Озарбойжонда 493 та оммавий ахборот воситаси рўйхатга олинган, шулардан бор-йўғи 50 таси рус тилида чиқади. Грузияда ОРТ, РТР ва бошқа Россия каналлари хусусий каналлар орқали кўрсатилади.

Япон халқида шундай бир ҳикматли ибора бор. Ҳар қандай ислоҳотнинг отаси ҳам, онаси ҳам таълимдир. Демак, таълим муассасаларида тил ва маданият даражасида тарғиб қилиш, ўрганиш ва ўргатишга катта аҳамият берилиши керак, деб ҳисоблаймиз.

**Ш.ШОАЗИЗОВ,**
**ЎзДЖТУ "Умумий тилшунослик" кафедраси доценти**

# БОЛАЛАРИМИЗ ҲАЁТИГА БЕПАРВО БЎЛМАЙЛИК!

*Ogohlik*

Инсоният ҳаётига кириб келган автомобиллар бугунги кунимизнинг ажралмас таркибий қисмига айланган.

Узоғимизни яқин, оғиримизни енгил қилаётган транспорт воситасисиз ҳаётимизни тасаввур қилиш жуда қийин. Шундай бўлса ҳам, автомобилларнинг сони ўсаётганлиги бир қатор муаммоларни келтириб чиқармоқда.

Маълумотларга қараганда, ҳар куни йўл-транспорт ҳодисалари туфайли кўплаб инсонлар ҳалок бўлмоқда ва турли кўринишдаги тан жароҳати олиб бир умрга мажруҳ бўлиб қолмоқдалар. Бундай ҳодисаларнинг болалар орасида ҳам кўплаб учраши ташвишли ҳол.

Ўзбекистон Республикаси халқ таълими вазирлигининг йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш комиссияси томонидан 1999-2002 йилларда республикада болалар билан боғлиқ содир этилган йўл транспорт ҳодисалари таҳлил этилганида шуни кузатиш мумкинки, 1999 йилда Республика бўйича жами 2804 та, 2000 йилда 2742 та 2001 йилда 2679 та, 2002 йилда эса 2489 та ҳодиса содир бўлган. Шундан, болалар айби билан 1999 йилда 1193 та, 2000 йилда 1095 та, 2001 йилда 1026 та ва 2002 йил 853 та ҳодиса содир этилган бўлиб, йўл транспорт ҳодисалари йилдан-йилга камайиб бораётганлиги кузатилмоқда.

1999-2002 йилларнинг таҳлиллари бўйича болалар айби билан содир этилган йўл-транспорт ҳодисалари Тошкент шаҳри, Самарқанд, Сирдарё, Фарғона, Тошкент вилоятларида камайгани ҳолда Жиззах, Андижон, Наманган вилоятларида йилдан-йилга ошаётгани ачинарли ҳолдир.

2003 йилдан бошлаб, вазирликнинг йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш комиссияси томонидан Қорақалпоғистон Республикаси ХТВ, вилоятлар ва Тошкент шаҳар халқ таълими бошқармаларидан болалар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари ҳақидаги маълумот ҳар ойнинг 5-санасида олинмоқда. Олинаётган маълумотларда болалар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаси қайси туманда содир бўлганлиги, йўл-транспорт ҳодисасига учраган боланинг исми, фамилияси, таълим муассасаси, ҳодиса тафсилоти, ҳодиса содир этган ойи, куни ва вақти, ҳодиса тафсилотлари, кимнинг айби билан содир этилганлиги ҳамда жароҳатланганлиги ёки вафот этганлиги акс эттирилади.

Вазирликка асосан болалар билан боғлиқ ҳолда содир этилаётган йўл-транспорт ҳодисасидаги хатоликларга аниқлик киритиш ва келгусида бундай ҳолатни такрорланмаслиги учун чора-тадбирлар белгилаш ниятида маълумотлар тақдим этилмоқда.

Масалан, 2003 йилнинг 8 ойи давомида Навоий ва Фарғона вилоятларида болалар велосипед бошқаришда йўл-транспорт ҳодисасига риоя қилмаганлиги оқибатида тан жароҳатлари олганлиги кўпроқ аниқланди.

Шунингдек, 2001-2003 йиллар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, болалар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаси кўпроқ июн-август ойларида кўпайиши, болаларнинг тан жароҳати олиши кескин ошиб бораётганлиги кузатилмоқда.

Навоий вилоятида болалар учун савобли иш бошланган. Навоий шаҳар ҳокимлиги ва шаҳар халқ таълими бўлимининг саъй-ҳаракатлари билан шаҳарда автошаҳарча қурилишига киришилган.

Бу автошаҳарча учун 20 миллионлик смета лойиҳаси тузилган.

Халқ таълими вазирлигининг йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш комиссияси Жиззах ва Самарқанд вилоятларида болалар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисасининг олдини олиш бўйича олиб борилаётган ишлар аҳволини ўрганганда, жойларда бу борада ишлар етарли даражада ташкил этилмаганлиги аён бўлди. Жиззах вилояти халқ таълими бошқармаси қошидаги йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш комиссиясининг йиллик иш режаси бўлса-да, режага киритилган масалалар турли сабабларга кўра ўз вақтида бажарилмаган.

Айбдорларга нисбатан вазирлик томонидан интизомий чоралар қўлланилмоқда.

Туман ХТБ ва Йўл ҳаракати хавфсизлиги патруль хизмати ходимлари фақатгина ёш автомобиль назоратчиларининг туман слётларини ўтказиш билан чекланиб қолаётганлиги текширув жараёнида аён бўлди. Йил якунида болалар билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаларини таҳлил қилиб, вазирлик хузуридаги йиғилишда муҳокама этиш режалаштирилган.

Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикасида болалар билан боғлиқ бўлган йўл транспорт ҳодисаларининг олдини олиш бўйича 2001-2005 йилларга мўлжалланган дастур"ида вилоят ва туман ҳокимликларига автошаҳарчалар қурилиши топширилган бўлса-да, бироқ бу иш бўйича вилоят халқ таълими бошқармалари томонидан сезиларли ишлар амалга оширилмаяпти. Жойлардан олинган тезкор маълумотларга кўра, республика бўйича бугун 5189 (53,5%) та мактабдагина автомайдончалар ташкил этилган, холос.

Вазирлар Маҳкамасининг "Ўзбекистон Республикасида болалар билан боғлиқ йўл транспорт ҳодисаларининг олдини олиш бўйича 2001-2005 йилларга мўлжалланган дастур"ида бир қатор вазирликлар, жамғармалар, Мудофаага кўмаклашувчи "Ватанпарвар" ташкилотлари ва Давлат Матбуот ва ахборот агентлиги олдига 2001-2005 йилларда қилиниши лозим бўлган вазифалар юклатилган. Ушбу ишга масъулият билан ёндашмаслик ёки бепарволик оқибатида ушбу вазифалар секинлик билан бажарилмоқда. Биргина мисол, Давлат алоқа ва ахборот агентлигига ўқувчиларнинг кундалик дафтарлари устига "Йўл ҳаракати қоидалари"ни, йўл ҳаракати хавфсизлигини тарғиб қилувчи календарлар ва расмларни ёки йўл ҳаракати хавфсизлигининг олдини олувчи тасвирларни чоп этиш топширилган. Бироқ ҳеч бир дафтар устида ушбу расмларни кўрмаяпмиз. Болаларимизни йўл-транспорт ҳодисаларидан сақлашга эътибор бериб боришимиз зарур.

Тўғри, ҳозирги кунда умумтаълим мактабларида йўл ҳаракати қоидаларига оид адабиётларнинг камлиги, махсус ҳайдовчилик гувоҳномасига эга бўлмаган ўқитувчиларнинг дарс беришлари, кўргазмали қуролларнинг йўқлиги каби камчиликлар мавжуд. Вазирлик томонидан ўқувчиларга йўл ҳаракати қоидалари курсини ўқитишда ички ресурслардан фойдаланган ҳолда иш олиб бориши бўйича тегишли топшириқлар берилган.

Топшириққа кўра, барча мактабларда янги автомайдончаларнинг бўлишини таъминлаш, бундан асосий мақсад ўқувчиларга назарий билим билан бирга автомайдончаларда амалий машғулотларни ташкил этиш кўзда тутилган. Шунингдек, "Йўл ҳаракати қоидалари" курсини 1-4-синф ўқитувчиларининг 17 соат, 5-8-синфлар ўқитувчиларининг 36 соатдан ўтишларини ҳар бир мактабда "Йўл ҳаракати қоидалари"ни мукаммал ўргатиш учун синф хоналари бўлишини таъминлаш, шу билан бирга барча мактабларда "Йўл ҳаракати қоидалари" бурчагини ташкил этиш айтилган.

Бундан ташқари, барча мактабларда ўқувчилар йўл ҳаракати қоидаларини яхши ўзлаштиришлари ва риоя қилишлари учун "Уй ва мактаб, мактаб ва уй" деб номланган схемаларни чиздириш керак бўлади. Бунда ўқувчилар уйларидан мактабга, мактабдан уйга қатнайдиган йўлларнинг чизмаларини чизадилар. Шу йўналишда улар автомобиль ва пиёдалар қатнайдиган йўлларни, чорраҳаларни ифода этадилар. Ўқувчиларнинг қўли билан кўргазмали қуроллар, плакатлар тайёрлашни йўлга қўйиш (Йўл ҳаракати қоидалари ва меҳнат дарсларидан фойдаланган ҳолда), ўқитувчиларнинг "Йўл ҳаракати қоидалари"ни ўқитиш бўйича очиқ дарс ва тажрибалари бўйича ўқув қўлланмалар тайёрлаш ҳам муҳимдир.

Мақсадимиз ягона, у ҳам бўлса болажонларимизнинг ҳаётига бепарво бўлмасликдир.

**Ҳикматилла ҒУЛОМОВ,**
**Халқ таълими вазирлиги Умумий ўрта таълим Бош бошқармаси бош назоратчи-методисти**

# РИНГДА ЎСМИРЛАР

**Ўтган ҳафтада Марказий ҳарбий спорт клубида ўсмирлар ўртасида Ўзбекистон "Ёшлик" КСЖ Марказий кенгаши биринчилиги учун бокс мусобақалари бўлиб ўтди.**

**1988 — 89 йилларда туғилган ўсмирлар беллашуви иштирокчилари 18 та вазн тоифасида ғолиблик учун беш кун давомида қизғин кураш олиб боришди.**

**Мусобақа бош ҳакамi, миллий тоифадаги ҳакам Обид Зокиров "Бу йилги мусобақа ёшлар ўртасида республикамиз чарм қўлқоп усталарининг муносиб ўринбосарлари етишиб чиқаётганлигини кўрсатди", деб таъкидлади.**

**Муросасиз курашлардан сўнг мусобақа ғолиблари ва совриндорлар аниқланди. Қорақалпоғистонлик Отабек Жонибеков (36 кг), Пўлат Кудеков (46 кг), андижонлик Муҳаммадбобир Исоқов (38 кг), Бобир Ҳабибуллаев (54 кг), наманганлик Улуғбек Раҳимов (44 кг), Муҳаммаджон Ғаниев (70 кг), Тошкент шаҳридан Козим Ашуров (40 кг), Азим Қаюмов (42 кг), Илҳом Ризаев (50 кг), Даврон Аликеев (57 кг), Руслан Сон (60 кг), Ойбек Турдиқулов (63 кг), Ойбек Мирзаев (66 кг), Жамол Тилаболдиев (79 кг), жиззахлик Жавоҳир Жўрақулов (74 кг), Тошкент вилоятидан Элдор Исманов (48 кг), Алибек Нурматов (52 кг), Фарҳод Мансуров мусобақа ғолиби бўлди.**

**Ғ.МАННОПОВ**

# «ЯРАШУВ ИНСТИТУТИ»

## жиноий жазоларни либераллаштиришнинг асоси

Ҳаётимиз йилдан-йилга ўзгаришларга бой, такомиллашиб келмоқда. Ҳар бир фуқаро ўз ҳуқуқларини билибгина қолмай, уни татбиқ этиш, кези келганда талаб қилишни ўрганаётганлиги таҳсинга сазовор. Демак, жамиятимизда ҳуқуқий билимларни билиш, ўрганиш ўзининг самарасини бераяпти. Жамиятимизда ҳуқуқ соҳасида яна бир олдинга қўйилган қадам олий суд пленумининг 2002 йил 14 июндаги "Жиноий жазоларни либераллаштириш муносабати билан Жиноят, Жиноят-процессуал кодекслари ва Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексга ўзгартиришлар ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги қарори"га асосан ҳуқуқ соҳасида алоҳида институт — "Ярашув институти" ташкил топди ва амалда қўлланиб келмоқда. Бу институтнинг афзаллик жиҳатлари кўп.

Биринчидан, жабрланувчи ва айбланувчи ўртасидаги низо тинч йўл билан ҳал қилинади, ярашилса, яраштирилади, яъни жабрланувчи ёки уни қонуний вакили айбланувчи, гумонланувчи ёки судланувчини кечириб, ярашиш учун ариза тақдим қилади.

Иккинчидан, кўп йиллардан бери суд амалиётида ҳам ечилиши муаммо бўлиб келаётган моддий зарарнинг тўла қопланиши (Агар ёдингизда бўлса моддий зарар судланувчидан оймаой арзимаган баҳода ундирилар эди).

Айбланувчи, гумонланувчи ёки судланувчининг шахсига босиладиган "қора тамға"нинг, яъни судланган деган иборанинг бўлмаслиги ҳамда жиноий жавобгарликдан тўла озод қилиниши бунинг яққол мисолидир. Масалан, 2003 йил 12 апрель куни соат тахминан 17.00 ларда М.Абдуллаев Шайхонтоҳур тумани, Тинчлик, 3-тор кўчаси, 13-уйда ўзи билан бирга яшовчи амакиси К.Абдуллаев билан ўзаро келишмовчилик натижасида жанжаллашиб темир парда илгич ва қўллари билан юз қисмига уради. Суд тиббий экспертизасининг хулосасига кўра ўртача оғирликдаги тан жароҳати етказган М.Абдуллаев Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 105-моддаси 1-қисми билан айбланган. Жабрланувчи К.Абдуллаев судга ярашув тўғрисидаги ариза билан мурожаат қилиб, судланувчи жияни эканлигини, кечирганлигини, ҳозирда унга нисбатан ҳеч қанақа даъвоси йўқлигини, ҳеч ким тазйиқ ўтказмаганлигини, унга нисбатан қўзғатилган жиноят ишини ҳаракатдан тўхтатишни сўрайди.

Жиноят ишлари бўйича Тошкент шаҳар Шайхонтоҳур тумани суди судьяси Ж.Сайдалиев раислигида мазкур жиноят иши мазмунан ҳал қилиниб, 20 август 2003 йилги ажримига асосан М.Абдуллаевга Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 66-1 моддаси, Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодексининг 84-моддаси 4-қисми, 582-, 583-, 584-, 585-, 586-моддалари қўлланилиб, жиноий жазодан озод қилинган, жиноят иши бўйича иш юритиш тугатилган.

Суд амалиётида ижобий ҳал қилинаётган жиноят ишлари жуда кўп. Бу денгиздан бир қатра, холос. Қонунларимизнинг одиллик, инсонпарварлик принциплари амалда кенг қўлланилаётганлиги диққатга сазовордир. Қонунларимизнинг бу каби енгилликлар берилишини кенг жамоатчилик ҳам қўллаб-қувватлаши, шубҳасиздир.

**Нилуфар ШАПСАНОВА,**
**адвокат**

Тошкент шаҳар муниципал биржа маркази 2003 йил 28 ноябрь, 5,12,19,26 декабрь кунлари соат 11-00да Давлат мулк қўмитасининг Тошкент шаҳар бошқармаси биносида кимошди савдолари ўтказади.

Савдоларга Тошкент шаҳар, Яккасарой тумани, Ракатбоши кўчасида жойлашган якка тартибда уй-жой қуриш учун мерос қилиб қолдириладиган майдони 0,03 га бўлган ер участкасига эгалик ҳуқуқи қўйилади. Бошланғич нархи 1353000 сўм.

Ер участкалари бўйича аризалар қабул қилиш савдо кунидан 3 кун олдин тўхтатилади. Савдода қатнашиш учун харидорлар ер участкалари бошланғич нархининг 10 фоизи миқдорида гаров пули тўлашлари шарт.

*Савдода қатнашиш тартиби ва шарт-шароитлари билан боғлиқ барча масалалар юзасидан қўйидаги манзилга мурожаат қилишингиз мумкин: Тошкент шаҳри, Миробод тумани, Мовароуннахр кўчаси, 16 а-уй, 402-хона.*
*Телефонлар: 133-20-74, 132-25-51.*

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ректорати, касаба уюшма қўмитаси ҳамда фалсафа факультети жамоаси фалсафа кафедраси собиқ профессори

***Жалол БОБОЕВ**нинг*

вафот этганлиги муносабати билан унинг оила аъзоларига таъзия изҳор этади.

Ҳурматли инглиз тили мухлислари! 31 августдан эътиборан Ўзтелерадиокомпаниянинг Халқаро телеканалида "Инглиз тили курси" намойиш этилади. Ушбу кўрсатув American Councils, Америка Қўшма Штатлари Элчихонаси ҳамда UzPAK билан ҳамкорликда тайёрланган. Дастур 20 та кўрсатувдан иборат бўлиб, унда Ўзбекистоннинг турли вилоятларидан (Урганч, Бухоро, Фарғона, Тошкент) АҚШда таҳсил олиб келган инглиз тили муаллимлари янги методикани қўллаб, дарс олиб борадилар. Талабалар ролида АҚШда ўқувчилар дастури бўйича ўқиб келган тошкентлик йигит-қизлар иштирок этишган. Курс якунида, 2004 йилнинг 11 январь куни энг фаол талабалар АҚШ элчихонаси томонидан махсус сертификатлар билан тақдирланадилар.

Курс саволлари "Маърифат" газетасида ҳамда www.dl.uz интернет сайтида ҳар ҳафта эълон қилиб борилади. Марҳамат, тўққизинчи дарс саволларини ёзиб олинг:

1. Where can you find information about a job?
2. What do you know about applicationc and interviews?

**Жавобларингизни Тошкент 700011, Навоий 69, ТВ-4 "Инглиз тили курси" дастурида ёки uztv-4@uzpak.uz манзилига юборишингиз мумкин.**

— Xalifa al-Ma'mun Musoni Marvga chaqiribdi. U poytaxtdan dunyoning eng bilimdon kishilarini yig'ayotgan emish.

”Kichkina to‘rtoyoqli ukalar” shu tariqa nafaqat o‘ziga, balki egasiga ham pul ishlamoqda. Afsuslanarlisi shundaki, katta daromad keltirayotganidan ”asar muallifi” bexabar.



# ҚЎНҒИРОҚ ЧАЛИНГУНЧА

Дам олиш саҳифаси



Бурҳон РИЗО олган сурат-лавҳа.

Ko'ngil bitiklari

## ОЛТИН КУЗ

Олтин кузнинг хархашалари,
Инжиқ ўғил қилиғи дейсиз.
Гоҳида нам оху кўзлари,
Гоҳи чақнар офтобдай сўзсиз.
Мафтун қилар мунчоқ шудринглар,
Муҳаббатин қилгандек изҳор.
Шивирлайди ғунча интизор,
Ҳарир кийган келинчак мисол.
Ғўзапоя усти жиққа ёш,
Гўё йиғлаб қўмсаган висол.
Тангри гўё халоскор қуёш,
Тунни атар ҳижронли азоб.
Тонг саҳарлаб чорлар ўзига,
Гул булбулни чорлаган мисол.
Энтикади ошиқдай деҳқон,
Маъшуқаси дала бепоён.
Қиш келгунча худо берган кун,
Шу зайлда созин чалар тун.

**Раушаной ҚАСБОЕВА,**
**Элликқалъа туманидаги 8-мактаб ўқитувчиси**

## ҚАРИМАГИН МУҲАББАТ

Оҳ муҳаббат дардингдан, дарбадар бўлганлар кўп,
Сумбул сочли ёрининг васлига етганлар кўп,
Минг турли йўлларингда, телба бўб кетганлар кўп,
Жанда дунё қариди, қаримадинг муҳаббат —
Одамлар юрагидан аримадинг муҳаббат.

Бу дунёда яшашни билгандан билмаган кўп,
Қизғалдоқ бағри қизил, қон бағрин тиғлаган кўп,
Қайс каби Лайлисига, етмайин йиғлаган кўп,
Жанда дунё қариди, қаримадинг муҳаббат —
Одамлар юрагидан аримадинг муҳаббат.

Тун қўйнида тўлин ой, сирларидан сўзлайди,
Ҳатто минг йиллик чинор, бир кун келиб бўзлайди.
Шафқатсиз ҳаёт мени, асо тутиб излайди,
Мен қарисам қарийин, қаримагин муҳаббат —
Одамлар юрагидан аримагин муҳаббат.

**Аҳмад ЖАББОРОВ,**
**Чироқчи тумани**

## МЕҲР-МУРУВВАТ ОЙИ

***Рамазон. Бу муборак ойда ислом оламида барча имон-эътиқодли мусулмонларнинг қалблари равшан, диллари хушнуд, нигоҳлари Муқаддас Каъбага қаратилган бўлади. Улар Яратганнинг фазлу карамидан умидвордирлар. Бу ойда бирор сабабга кўра аразлашган, гина- кудуратли инсонлар ҳам бир-бирларига қучоқ очадилар, ўзаро узр сўрайдилар... Муборак Рамазон ойи арафасида мухбиримиз Ўзбекистон мусулмонлари идораси раисининг ўринбосари Ҳожи Абдураззоқ ЮНУС билан суҳбатда бўлди.***

**— Рўза ва унинг фазилатлари ҳақида гапириб берсангиз.**

— Мунаввар кунларга етказгани учун Аллоҳга ҳар қанча шукроналар қилсак арзийди. Буларнинг барчаси Аллоҳнинг берган беадад неъматларидан бўлмиш Истиқлол шарофатидандир. Чунки, бизга эътиқодий ҳурриятни берди. Диёримизда истиқомат қилувчи мусулмонлар ҳақиқий эркинликни ҳис эта бошладилар.

Кишиларни ҳидоят сари бошловчи, инсониятга бахт-саодат йўлларини кўрсатган Қуръони каримни Аллоҳ таоло Рамазони шариф ойида нозил қилган. Шунинг учун у нозил бўлган кунларни тоат-ибодатни янада зиёда қилиш ва рўза тутиш билан нишонлаймиз. Диёримиз мусулмонлари бу кунларга тинч, осойишта етиб келдилар. Маълумки, бу ой тоат-ибодат, қут-барака, бахт-саодат ойидир. Шу билан бирга, бу ойда гуноҳлар ювилажак, тавба-тазаррулар чин ихлос ва эътиқод ила қилинадиган дуолар мустажоб бўлиб, қалблар таскин топадиган ойдир. Мўмин-мусулмонлар фақат шу Рамазон ойидагина эмас, балки йил давомида бир-бирларига муомалаю муносабатларини яхши қилмоқликлари керак. Саҳоватпеша кишиларимиз муҳтож одамларга, мискину фақирларга ёрдам қўлларини чўзмоқликлари даркор. Бу раҳмат ва мағфират, меҳр-мурувват, саховат, олийҳимматлилик кўпроқ қилинадиган ойдир. Рўзадор бўлган киши фақатгина оч, ташна бўлиб қолиши билан Аллоҳ таолога тақво қилган бўлмайди. Балки ҳар бир ишда рўзадор ўта ҳушёр, бошқалар билан муомалада мулойим бўлишлик, ўз нафсининг хоҳишига қул бўлишдан қутулиб, унинг руҳи жасадга ҳоким бўлади. Яна муҳтожларга, етим-есирларга, бева-бечораларга, беморларга ўзининг қалб қўри, меҳр тафти ила қараши даркор. Рўзадорнинг рўзаси мукаммал бўлмоғи учун унинг ёлғон сўзлаши, бировларни иғво ва бўҳтон қилиши, нолойиқ сўзлар ила ўзгалар дилини оғритиши асло мумкин эмас. Муборак ойда кундузлари соим, кечалари қоим бўлишлик барчамизга насиб этсин.

**— Рўза тутишлик барчага жоизми?**

— Рўза ақли расо, саломатлиги яхши балоғат ёшига етган ҳар бир мўмин ва мусулмонларга Яратган парвардигор тарафидан фарз қилингандир. Агар бир киши касаллигининг кучайиши ёки тузалишининг кечикишидан қўрқса, сафарда бўлса, ҳомиладор ёки эмизикли аёл ўзи ё гўдакка зиён етишидан хавф қилса ёки табаррук ёшга етган бўлиб, ҳолдан тойса рўза тутмаслиги жоиз. Бу тоифадаги кишилардан рўза тутишга монеъ бўлган сабаблар кетгандан кейин улар қолдирган кунларининг қазосини тутиб берадилар. Табаррук ёшдаги кексалар рўза тута олмасалар, ҳар кунги рўза учун бир мискиннинг бир кунлик таоми миқдорида фидя берадилар.

**— Муборак Рамазон ойида истакларингиз.**

— Рамазон ойининг файзу — барокати қалбларимизни ва хонадонларимизни мунаввар айласин. Рамазон меҳр-муравват ойи бўлганлиги учун ҳам у айни чоғда юртдошларимизни бир-бирларига бўлган ҳурмат ва эътиборини янада зиёда қилсин. Хайрли ишлар бу кунларда ҳар бир эзгу ниятли кишиларнинг қалб эҳтиёжига айлансин.

**Муҳаммаджон ИСРОИЛОВ суҳбатлашди.**

*Ким рамазон рўзасини имон-ишонч билан ва савоб умид қилган ҳолда тутса, унинг олдинги гуноҳлари кечирилади.*

**Ҳадис**

### РЎЗА ТУТИШ (ОҒИЗ ЁПИШ) ДУОСИ

**Навайту ан асума совма шаҳри рамазона минал фажри илал мағриби, холисан лиллаҳи таъала. Аллоҳу акбар.**

***Маъноси:*** *Рамазон ойининг рўзасини кун ботгунча тутмоқни ният қилдим. Холис Аллоҳ учун. Аллоҳу акбар.*

| Рамазон | Октябрь Ноябрь | Ҳафта кунлари | Саҳарлик | Ифторлик | Қайд учун |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | 26 | Якшанба | 5:04 | 17:29 | |
| 2 | 27 | Душанба | 5:05 | 17:28 | |
| 3 | 28 | Сешанба | 5:07 | 17:26 | |
| 4 | 29 | Чоршанба | 5:08 | 17:25 | |
| 5 | 30 | Пайшанба | 5:09 | 17:24 | |
| 6 | 31 | Жума | 5:10 | 17:22 | |
| 7 | 1 | Шанба | 5:11 | 17:21 | |
| 8 | 2 | Якшанба | 5:13 | 17:20 | |
| 9 | 3 | Душанба | 5:14 | 17:19 | |
| 10 | 4 | Сешанба | 5:15 | 17:17 | |
| 11 | 5 | Чоршанба | 5:16 | 17:16 | |
| 12 | 6 | Пайшанба | 5:17 | 17:15 | |
| 13 | 7 | Жума | 5:19 | 17:14 | |
| 14 | 8 | Шанба | 5:20 | 17:13 | |
| 15 | 9 | Якшанба | 5:21 | 17:12 | |

**Тошкент вақти билан тафовут (дақиқа ҳисобига):**
**Аввал:** Андижон — 12, Чимкент — 1, Наманган — 10, Фарғона — 10, Хўжанд — 6, Қўқон — 7, Ўш — ,14,
**Кейин:** Бухоро +11, Гулистон +1, Жиззах +6, Навоий +19, Нурота +14, Самарқанд +9, Хива +35, Туркистон +4, Шаҳрисабз +10, Қарши +11.

### ИФТОРЛИК (ОҒИЗ ОЧИШ) ДУОСИ

**Аллоҳумма лака сумту ва бика аманту ва ъалайка таваккалту ва ъала ризқиқа афторту, фағфирли йа Ғоффару ма қоддамту ва ма аххорту.**

| Рамазон | Октябрь Ноябрь | Ҳафта кунлари | Саҳарлик | Ифторлик | Қайд учун |
|---|---|---|---|---|---|
| 16 | 10 | Душанба | 5:22 | 17:11 | |
| 17 | 11 | Сешанба | 5:23 | 17:10 | |
| 18 | 12 | Чоршанба | 5:25 | 17:09 | |
| 19 | 13 | Пайшанба | 5:26 | 17:08 | |
| 20 | 14 | Жума | 5:27 | 17:07 | |
| 21 | 15 | Шанба | 5:28 | 17:06 | |
| 22 | 16 | Якшанба | 5:29 | 17:05 | |
| 23 | 17 | Душанба | 5:31 | 17:04 | |
| 24 | 18 | Сешанба | 5:32 | 17:04 | |
| 25 | 19 | Чоршанба | 5:33 | 17:03 | |
| 26 | 20 | Пайшанба | 5:34 | 17:02 | |
| 27 | 21 | Жума | 5:35 | 17:01 | |
| 28 | 22 | Шанба | 5:37 | 17:01 | |
| 29 | 23 | Якшанба | 5:38 | 17:00 | |
| 30 | 24 | Душанба | 5:39 | 17:00 | |

*Маъноси: Эй Аллоҳ, ушбу рўзамни фақат Сенинг учун тутдим ва Сенга имон келтирдим ва Сенга таваккал қилдим ва берган ризқинг билан ифтор қилдим. Эй гуноҳларни афв қилувчи Зот, менинг авалги ва кейинги гуноҳларимни мағфират қилгин.*

## Xullas...

### ШАХСИЙ ИТНИНГ МЕМУАРИ

Американинг собиқ президенти Жорж Буш (катта) машҳур Милли лақабли итига бағишланган мемуар асар орқасидан катта даромад ола бошладики, ҳали бирорта ёзувчи ҳам у сингари қалам ҳақи олмаган.

Гап шундаки, асар бошдан-оёқ Миллига бағишланган ва “Миллининг китоби” номини олган. ”Таржимаи ҳол” бўлимининг ўзи 400 минг нусхада чоп қилинган. Аслида президентнинг рафиқаси Барбара Буш томонидан ёзилган асар итнинг номидан шунчалик чиройли ифodаланганки, Милли ”стол тагидан туриб, Бушнинг оиласида рўй берган воқеаларни кўрган”лигини ҳар бир жумлада таъкидлайди.

”Миллининг китоби” ҳозирча 900 минг доллар миқдорида даромад келтирди. ”Кичкина тўртоёқли укалар” шу тариқа нафақат ўзига, балки эгасига ҳам пул ишламоқда. Афсусланарлиси шундаки, катта даромад келтираётганидан ”асар муаллифи” бехабар.

### ГАПИРСА ОЗ, ГАПИРМАСА УЗОҚ ЯШАРКАН...

Йошкар-Олада яшовчи бир кампир неварасига зоомагазиндан тўтиқуш сотиб олиб берди. Улар кетиши билан сотувчи илжайиб қўйди, чунки қуш деярли гапирмасди, яхшиямки, харидори чиқди, қутулганига шукр. Мабодо қайтиб келса, сотилган мол қайтариб олинмаслигини айтади.

Неварасини хурсанд қилишни дилига туккан кампирнинг қувончи кўпга чўзилмади. Тўтиқуш ”миқ” этмай тураверди. Унинг сўзлашига муштоқ бўлиб турган невараси эса ер тепиб йиғлай бошлади.

Шаҳар савдо идорасига мурожаат қилганларида, қушни бошқасига алмаштириш мумкинлигини айтдилар. Аммо сайрамайдиган ана шу қуш сайрайдиган шерикларига нисбатан узоқ яшаши ҳам мумкин экан.

Неварага сайрайдиган тўтиқуш бўлса бас. Бувиси эса узоқ умр кўрувчи тўтиқушни хоҳларди. Кампир масалани қандай ҳал қилишга ҳайрон. Сайрайдиган қуш афзалми, узоқ яшайдигани?

### ДАСТХАТ ИШҚИБОЗИ

Ҳар кимнинг ўз “хобби”си бор. Кимдир китоб йиғади, кимдир марка, яна кимдир сурат.

Чехиялик фахрий журналист Антонина Складала эса дастхат ишқибози. У ишлаган кезларида машҳур кишиларга дастхат ёздириб олишни ўзига шон-шараф деб биларди. Михаил Шолохов, Константин Симонов, Агата Кристи каби ёзувчиларнинг ўз китобларига, ”Битлз” ансамбли хонандаси Поль Робсоннинг пластинкага ёзиб берган дастхатларини Антонина хоним бир умр авайлаб сақламоқда. Фазога кўтарилган қаҳрамонлар, италян саёҳатчиси ва конструктори Умерий Нобил, француз киноюлдузи Брижит Бордо, бразилиялик футболчи Пеле... Сиёсатчилар ва давлат арбобларининг имзолари... Мисрнинг сўнгги подшоси Фарук, сиёсат арбоби Патрис Лумумбанинг Антонина хонимга билдирган тилаклари...

Жами имзолар сони 40 мингтадан ошди. Аммо бу кўрсаткич Антонина учун ҳали кам экан.

ana shunaqa gaplar

## МАСЛАҲАТ

### ЁКИ ОТАСИНИНГ РУСТАМЖОНГА НАСИҲАТИ

Qissadan parcha

Рустамжон бахтини топиш учун нимадан бошламоқ кераклиги ҳақида кўп ўйлади. Ёлғиз яшаётган қўшни чолга ҳар куни қарашиб турса, ундан насиҳат олади, ҳаётни ўрганади ёки этикдўз Каримбойга шогирд тушса: тушдан сўнг вақти кўп, бирор касбни ўрганиб қўйса зиён қилмайди, — хуллас, у кўп ўйлади, аммо бир қарорга келолмади ва охири отасидан маслаҳат сўради:

— Дада, нимадан иш бошлашни билмай, бошим қотяпти. Нимадан бошлаганим маъқул?

Отаси бироз ўйланиб тургач:

— Яхшиси, улуғ боболаримизнинг ҳаётларини ўрган. Ҳозирча жуда чуқурлаштириб юборма. Улар болаликда қандай бўлишган, одамларга қандай фойда келтиришган? Нима учун биз уларни шунчалик қадрлаймиз? Шу саволларга жавоб топсанг бас!

Орадан икки кун ўтиб, Рустамжон яна сўраб қолди:

— Кимдан бошлашим керак, дадажон?

Отаси яна ўйлаб туриб жавоб қилди:

— Ҳар ишни бошидан бошламоқ лозим?

Менга қолса, ал-Хоразмийдан бошлай қол.

***

— Дунёда қайси мамлакатда 1 сентябрда дарс бўлмайди?

— Ўзбекистонда!

— Нима учун?

— Чунки Мустақиллик куни байрам қилинади.

— Баракалла, ўғлим!

Рустамжон отасининг мақтовидан эриб кетди. Ҳойнаҳой, кайфиятлари яхши, бирор дам олиш боғига сайрга олиб борсалар керак, деб ўйлади. Аммо...

— Алгебрани ўқидингми? — сўради отаси дабдурустдан.

Рустамжон бўйнини эгди. Отаси китобни кеча келтириб берганди. Ўқи, деган эди. Китобни қўлига ҳам олгани йўқ. Жуда уят бўлди-да!

Отаси ўрнидан тураркан, тайинлади:

— Алгебра нима degani? Ал-Хоразмийни ўқимадингми?

Рустамжон бўйнини эгди. Ўйин билан бўлиб, икки кунни беҳуда ўтказиб юборди. «Энди бундай бўлмайди», дея такрорлади у ва боши билан ишга шўнғиди.

**МУСО**

— Мусо?

— Лаббай, отажон?

— Ҳисоб-китобни тўғрилаб қўйдингми?

— Тўғрилаб қўйдим, лекин варақ етмади. Рақамлар кўпайиб кетди. Сонларнинг ихчам шаклини ўйлаб топишса бўлмайдими?!

— Қанийди топишса! — деди отаси ҳушёр тортгандек. — Ким топади? Рим рақамлари савдо-сотиқ, солиқ ундиришда, хазина ҳисоб-китобида қийинчилик туғдиряпти. Эллик ёзмоқчи бўлсанг бешта «ххххх» чизишинг керак. Биз ҳам қийналиб кетдик.

Мусо ўзига-ўзи сўз берди: «Катта бўлсам, албатта сонларнинг ихчам йўлини топаман!»

**819 йил.**

— Ўғлингизнинг қобилиятига тан бермасдан илож йўқ. Риёзиёт илмида ҳеч ким у билан бўйлашолмайди.

— Янгиликни эшитдингизми?

— Йўқ, ҳожам! Қанақа янгилик экан?

— Халифа ал-Маъмун Мусони Марвга чақирибди. У пойтахтдан дунёнинг энг билимдон кишиларини йиғаётган эмиш.

— Яратганга шукрлар бўлсин! Мени хурсанд этдингиз, ҳожам! Бошдан-оёқ сарупо биздан!

**828 йил.**

Бағдоднинг аш-Шаммосия маҳалласи.

Мусо ал-Хоразмий ал-Фарғонийга қараб жилмайди.

— Аҳмад оға, биринчи расадхонамиз ер юзи кўксига қуёшдек порлаб юз очди, худо хоҳласа, Касаюн тоғида бундан ҳашаматли яна битта расадхона барпо этурмиз.

Яҳё ибн Абу Мансур:

— Халифа ал-Маъмун ҳазратлари Сизни «Байт ул-ҳикма»нинг бошлиғи этиб тайинламушлар. Марвлик олимлар номидан Сизни бу лавозим билан муборакбод этурмиз.

Абул Аббос ал-Жавҳарий:

— Биз форобликлар илмда фақат Оллоҳ таолло назари тушган истеъдодларни тан олурмиз. Сиздек улуғ олимнинг бизларга бош бўлишингиз кўнглимиз хоҳиши эди.

Ҳабаш ал-Марвозий гапга қўшилди:

— Орамизда баҳорги заҳарли қўзиқориндек сохта олимлар ҳам пайдо бўлмоқда. Сиз Муҳаммадбек, бу тўғрида халифамизни огоҳ этсангиз, касалликнинг олдини тўсган бўлардик.

— Бағоят тўғри таклиф, — деди Холид ибн Абдумалик.

Мусо ал-Хоразмийнинг боши қотди. Ўзи ҳам бу тўғрида ўйлаб юрибди. Аммо халифага қандай айтади, сохта олимлар унинг амакиваччалари!

У «Астурлоб ясаш ҳақида китоб» асарини ёзмоқда эди. Асосан, кечалари ёзарди. Кундуз кунлари Яҳё ибн Абу Мансур Аш-Шаммосия расадхонаси раҳбари билан ҳисоботларни ўрганиб вақт ўтказади. Касиюн расадхонаси қурилишига Холид ибн Абдумалик ал-Марварруддий тайинланган. Бу ишларни ҳам назорат қилади. «Китоб сурат ул-арз»ни ҳаттотга берган эди, уч нусха кўпайтирибди. «Астурлоб ёрдамида азимутни аниқлаш»,«Китоб ар-руҳома», «Яҳудийларнинг тақвими ва байрамларини аниқлаш», «Китоб ат-таърих» асарларини элга маълум қилди. Энди энг катта мақсади — «Алжабр ва ал-муқобала ҳисоби ҳақида» китоб ёзиш учун тайёрланаяпти. Яратган эгаси қўллаб юборса, бир йилда тугатади, фикрини пишитиб юрибди.

Халифанинг қароргоҳи.

Ал-Маъмун тахтдан тушиб, олимни кутиб олди.

— Сиз билан кўришганимдан хурсандман. Муҳаммадбек анча озибсиз. Нимадан қийналаяпсиз?

— Ҳаммаси жойида, аъло ҳазратлари. Бирор қийинроқ илмий ишга қўл урсам, сал озадиган одатим бор.

— Қанақа иш экан у?

— Биласиз, ҳазратим, Рим рақамлари ҳисоб-китобда анча қийинчиликлар туғдиради. Мен уларни соддалаштириш ниятидаман. Бу ишим «Байт-ул-ҳикма», халқ тили билан айтганда «Маъмун ҳазратлари илмлар уйи»нинг энг ажойиб иши бўлади.

— Ғоят таҳсинга сазовор ишни бошлабсиз. Бугундан сизга хазинадан қўшимча маблағ ажратурман! — Халифа унинг кўзларига тикилиб, сўзини давом эттирди. — Мен сизни бу ерга бир нозик масала хусусида чақирган эдим.

— Бош устига, аъло ҳазратлари, — деди Хоразмий.

— Эшитишимча, — деди ал-Маъмун хиёл маҳзунроқ оҳангда, — баъзи сохта олимлар асарлар битиб менга келтирмишлар. Сиз бундан хабардормисиз?

— Мен шу тўғрида сиз билан маслаҳатлашмоқни кўпдан кутиб юргандим. Рост, орамизда бундай олимлар бор.

— Уларни қандай фош этмоқ лозим, дейсиз?

— Олимлар мажлисини чақириб, мулоқот ўтказмоқ лозим. Ана ўшанда кимнинг нимага қодир эканлиги дарҳол билинади.

Бир йилдан сўнг халифа ал-Маъмун иштирокида олимларнинг катта анжумани ўтказилди. Сири фош бўлган сохта олимларга кўчирма китоблари қайтариб берилди.

Бағдод бозори.

Савдогарлар орасида бир хушхабар кезиб юради.

— Мусо ал-Хоразмий ҳисоб-китобда янги рақамларни жорий этибди, — дейди бир савдогар иккинчисига.

— У қанака рақамлар экан?

— Ҳарҳолда бизди оғиримизни енгил қилса керак.

«Байт-ул-ҳикма» кошонаси. Қадам босишга жой йўқ. Ғарбдан Фориш, Шарқдан Самарқанд, Хива, Хонбалиқдан дунёнинг кўзга кўриган олимлари келган.

Мусо хаяжонланди. У бу азиз дақиқаларни кўп кутди, кечани кеча, кундузни кундуз демай ишлади. Отаси бугунги мажлисни кўрганда, беармон кетарди. Афсус, падари бузруквори бир йил бурун оламдан ўтди.

Ал-Маъмун унга «бошланг» дегандек ишора қилди.

— Мен, — деди Мусо, овози бироз титраб чиқди, — аҳли жамоа, сизга арифметиканинг оддий ва мураккаб масалаларини ўз ичига олувчи «Алжабр ва алмуқобала ҳисоби ҳақидаги қисқача китоб»ни таклиф қиламан. Асарда ҳинд рақамлари асосида ўнлик позицион системада сонларнинг ёзилиши батафсил баён қилинади. Мерос тақсим қилишда, васиятнома тузишда, мол тақсимлашда ва адлия ишларида, савдода ва ҳар қандай битимларда ва шунингдек, ер ўлчаш, каналлар ўтказишда (амалий) геометрия ва бошқа шунга ўхшаш турлича ишларда кишилар учун бу зарурдир.

Мусо ўзига тикилиб турган сон-саноқсиз кўзларга бир нигоҳ ташлади, кенг кошонада сукунат ҳукмрон эди, нафас олиши сукунатни бузгандек кўринди, шошиб сўзида давом этди:

— Рисола уч қисмдан иборат: биринчи қисм, унинг охиридаги кичик бўлим савдо муомаласига бағишланади; иккинчиси — геометрик қисм, яъни алгебрик усул қўлланиб, ўлчаш ҳақида; учинчиси васиятлар ҳақидаги қисм, мен уни алоҳида «Васиятлар китоби» деб атадим.

Алгебрада уч хил сон билан иш кўрилади: жизр(илдиз), шай(нарса), мол(квадрат) ва оддий сон ёки дирҳам пул бирлиги. Жизр(илдиз) ўзини-ўзига кўпайтириладиган миқдордир, мол-(квадрат) эса илдизни ўзига кўпайтиришда ҳосил бўлган катталикдир.

Мусо жим қолди.

Ал-Маъмун ўрнидан туриб келиб, уни бағрига босди.

— Эй аҳли жамоа, донишмандлар! — хитоб қилди у. — Бугун инсоният учун энг улуғ ва энг ажойиб мўъжиза яратилди. Энди 1 дан 9 гача бўлган сонлар ортига нол қўйиб, хоҳ давлат ишлари бўлсин, хоҳ деҳқончилик, бари-барида енгил ҳисоб-китоб қилиш услуби яратилди. Бунинг учун Мусо ал-Хоразмийга, давримизнинг буюк алломасига шарафлар бўлсин!

Ўтирганлар ўринларидан туриб Мусони олқишладилар...

Отаси ишдан келган заҳоти сўради:

— Хўш, полвон, Мусо ал-Хоразмий ҳақида ўқидингми?

— Ўқидим.

— Қани, сўзла!

Рустамжон ўқиганларини эринмай айтиб берди.

Отаси жилмайди:

— Бирор нима тушундингми? Ёки битта сўз қолдирмай ёдлаб олдингми?

— Тушундим, дада! Лекин...

— Нима, лекин...

— Қачон туғилган, қачон вафот этганлар? Яна қандай асар ёзганлар? Булар тўғрисида тополмадим.

— Бу ёғини менга қўйиб бер. Адабиётларда у кишининг 783 йилда Хоразмда туғилганлари тилга олинади. 850 йилда, 67 ёшларида Бағдодда вафот этганликлари айтилади. У зотнинг энг йирик астрономик асари «Зиж» ҳисобланади. Олим асарни 830-йил атрофида ёзган. У 37 боб, 116 жадвалдан иборат. Мана, шунинг ўзи ҳам бу китобнинг қимматли эканлигини кўрсатади.

Қолганини, ўғлим, аста-секин ўқиб ўрганиб оларсан. Мақсадим, сенинг ақлли бўлишингни истайман. Ҳаёт одамга бир марта берилади. Ўз вақтида ўқи, ўз пайтида дам ол. Мусо ал-Хоразмий каби меҳнатинг одамларнинг оғирини енгил қилишга сарф бўлсин, илойим!

Энди, ўғлим, ал-Фарғоний ҳақида ўқигин. Кечқурун сўрайман.

**Тўлқин ХАЙИТ**

Ma'rifat

ТАЪСИС ЭТУВЧИЛАР:
Ўзбекистон Халқ таълими вазирлиги, Ўзбекистон Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси Марказий Қўмитаси.

Бош муҳаррир:
Ҳалим САИДОВ

Таҳрир ҳайъати: Йўлдош АҲМЕДОВ, Жуманазар БЕКНАЗАРОВ, Икром БЎРИБОЕВ (бош муҳаррир ўринбосари), Шукур ЖОНБОЕВ, Фахриддин КАРИМОВ (масъул котиб), Қурбонбой МАТҚУРБОНОВ, Усмонали МУСАЕВ, Абдусамат РАҲИМОВ (бош муҳаррир ўринбосари), Ҳулкар ТЎЙМАНОВА, Нурлан УСМОНОВ, Саъдулла ҲАКИМОВ, Ўткир ҲОШИМОВ

Газета Ўзбекистон Республикаси Давлат Матбуот Қўмитасида № 20 рақам билан 12 июнь 1998 йил рўйхатга олинган.

ИНДЕКС: 149, 150. Г-925.
Тиражи 19852. Г. 1 2 3 4 5 Ҳажми 4 босма табоқ.
Офсет усулида босилган, қоғоз бичими А-2

Навбатчи муҳаррир:
Нурлан УСМОНОВ,
Навбатчи:
Абдулҳамид МУҲТОРОВ.

«Маърифат»дан материалларни кўчириб босиш таҳририят рухсати билан амалга оширилиши шарт.
Таҳририятга юборилган материаллар муаллифга қайтарилмайди.
Ⓜ белгиси остида реклама материаллари берилади

МАНЗИЛИМИЗ: 700083, Тошкент, Матбуотчилар кўчаси, 32.
E-mail: marifat@ars-inform.uz
ТЕЛЕФОНЛАР: масъул котиб—136-57-89, олий таълим янгиликлари бўлими, мактабгача ва мактабдан ташқари таълим янгиликлари бўлими —136-55-58, хатлар, маънавий ва сиёсий ҳаёт янгиликлари бўлими — 136-54-23, умумий ўрта таълим янгиликлари бўлими, ўқувчиларни касбга йўналтириш ва ўрта махсус таълим янгиликлари бўлими — 136-54-03, реклама ва тарғибот бўлими — 136-54-69 (факс).

Баҳоси сотувда эркин нархда

Pentium IV компьютерида Лилия БИНАШЕВА ва Малоҳат ТОШОВА саҳифалади.

«Шарқ» нашриёт-матбаа акционерлик компанияси босмахонаси.
Корхона манзили: «Буюк Турон» кўчаси 41-уй

Босишга топшириш вақти—21.00.
Топширилди —21.00